

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida

XOLBOYEV Asliddin Allanazarovich

***MARKAZIY OSIYO MADANIYATIDA CHOLG'U SOZLARNING
TUTGAN O'RNI***

**Mutaxassislik: 5A 140801 – Musiqa mutaxassisligi magistri
akademik darajasini olish uchun yozilgan**

DISSERTASIYA

Ish ko'rib chiqildi va himoyaga
ruxsat berildi.

“Musiqa pedagogikasi va cholg'u
ijrochiligi” kafedrası mudiri, katta
o'qituvchi. Djalilov E.K _____

Ilmiy rahbar:

Pedagogika fanlari nomzodi,

Dots. **N.Toliboyev** _____

M.O'

MUNDARIJA

I.	KIRISH.....	3-9
II.	I-BOB. CHOLG’U IJROCHILIGI SAN’ATI TARIXIGA BIR NAZAR	
	1.1. Qadim zamonlarda kishilar hayotida cholg’u sozlarining tutgan o’rni	10-18
	1.2. Borbad Sharq musiqasining asoschisi	19-25
	Birinchi bob bo’yicha hulosa.....	26
III.	II-BOB. MARKAZIY OSIYO MADANIYATIDA CHOLG’U SOZLARNING TUTGAN O’RNI	
	2.1. Sharqda islom va musiqa	27-35
	2.2. Sharq mutafakkirlarining musiqa haqidagi fikrlari	36-67
	Ikkinchi bob bo’yicha hulosa.....	68
IV.	III-BOB. TAJRIBA-SINOV ISHLARINING MAZMUNI, O’TKAZILISH USULLARI VA NATIJALARI	
	3.1. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish.....	69-71
	3.2. Tajriba-sinov ishlari natijalarining tahlili va pedagogik samaradorligi.....	72-74
	Uchinchi bob bo’yicha hulosa.....	75
V.	UMUMIY XULOSALAR.....	76-82
VI.	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI.....	83-85

KIRI SH

«Biz quradigan jamiyat O'zbekiston xalqining munosib turmushini, erkinliklarini kafolatlashi, milliy qadriyatlarimiz va madaniyatimiz qayta tiklanishini, insonning ma'naviy-axloqiy barkamolligini ta'minlashi kerak».

I.A.Karimov.

Mavzuning dolzarbligi. Insonlar paydo bo'lganidan buyon uning tarixi doimiy ravishda tarbiya muammosini hal qilish bilan bog'liq ekaniga guvohlik beradi. Chunki, inson hayoti va turmush tarzi, xalq farovonligi, Vatan ravnaqi, jamiyat taraqqiyoti asosida tarbiya turadi.

Zardusht (eramizgacha bo'lgan 589-512 yillar) tomonidan yozilgan pandnoma - «Avesto»da shunday nasihat qilinadi: «Tarbiya hayotning eng muhim tirgagi (tayanchi) bo'lib hisoblanishi lozim».¹

Muqaddas Qur'oni Karim va Hadislarda barkamol inson tarbiyasiga keng o'rin ajratilgan.

Yuqoridagi dalillardan ko'rinib turibdiki, tarbiya masalasi bir umr asosiy falsafiy-axloqiy, madaniy-ma'rifiy burch va vazifa bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolmoqda. Zero, tarbiyasiz hech qanday rivojlanish va taraqqiyotni tasavvur qilib bo'lmaydi.

Shu o'rinda bir fikrni alohida ta'kidlab o'tish lozim va muhim. Zero, u tadqiqot mavzusining o'ta dolzarbligini isbotlashga yordam berishi aniq.

Sobiq Sho'ro Ittifoqi va komfirqa mafkurasi xukmronlik qilgan davr (1917-1991 yillar)da milliy tarbiya izdan chiqib, evropacha tus oldi, milliy tarbiyaga umuman e'tibor berilmadi, milliy qadriyatlar va xalq an'analari butkul unutildi. Milliylik targ'ibotchilari va unga amal qiluvchilarga «millatchi» degan yorliq yopishtirilib, qatag'on

¹ Узбек педагогикаси антологияси. 1-жилд, (тузувчи-муаллифлар: К.Хошимов ва С.Очил). -Т., «Ўқитувчи», 1995 йил. 30-35 бетлар.

qilindi. Bu dalildan ko'rinib turibdiki, mustaqillikka qadar o'tgan yetmish yildan ortiq davr o'zbek milliy tarbiyachiligining og'ir va ayanchli tarixi sifatida xalq yodida qoldi.

Xuddi shuning uchun mustaqillik tantanasidan keyin muhtaram Prezidentimiz hukumatimiz, jamiyatimiz, ziyolilar va olimlar diqqat - e'tiborini milliy qadriyatlar va madaniyatni qayta tiklashga, ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilishga, milliy tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yishga qaratdi. Yurtboshimiz shunday yozadi: «Biz quradigan jamiyat...milliy qadriyatlarimiz va madaniyatimiz qayta tiklanishini, insonning ma'naviy-axloqiy barkamolligini ta'minlashi kerak».¹ Darhaqiqat, tarbiya milliy, qadriyatlarimiz, madaniyatimiz va xalq an'analari ta'siri ostida samarali bo'ladi, ma'naviy-axloqiy barkamollikka erishiladi.

Mamlakatimiz mustaqilligi yillarida siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalarda tub islohotlar amalga oshirila boshlandi. Xalqimiz hayotining yangi bosqich olamshumul o'zgarishlari, muvoffaqiyatlari, o'zining g'oyalari bilan dunyo xalqlari tomonidan yuksak bahosini oldi.

O'zbekiston Respublikasi hayotida XX asrning oxirgi o'n yilligi dunyo tarixi saxifalariga yosh avlodni komil inson, umuminsoniy va milliy qadriyatlar mushtarakligida ma'naviy va jismoniy barkamol, sog'lom qilib tarbiyalash g'oyasi sifatida muhrlanib qoldi.

O'zbekiston xalqi o'zining asriy orzusi hisoblangan istiqloлга erishgach, u dunyoda eng taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o'rin olish yo'lida dadil qadam tashlay boshladi.

Buning uchun yurtboshimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Eng avvalo bizning ta'lim tizimiga bo'lgan munosabatlarimizni ham tubdan o'zgartirish kerak. Ta'lim islohoti bizni demokratik o'zgarishlar, yangi jamiyat barpo etish yo'lidan dadil yetaklovchi, barchamizni harakatlantiruvchi ichki kuch bo'lmog'i zarur. Har birimizga «besh barmoqday», eskicha aytganda «to'qqiz pulday» ayon bo'lsinkim, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib odamlar ongini, demakki, ularning turmush

¹ И.А.Каримов. «Узбекистон келажаги буюк давлат». -Т., «Ўзбекистон», 1992 йил. 36-бет.

tarzini ham tubdan o'zgartirish mumkin emas»¹ jarayonni isloh qilishdek, masala hukumatimiz olib borayotgan siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 9- sessiyasida «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi.

Buyuk mamlakatimizni barpo etadigan, har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalash, uzluksiz ta'lim tizimining shaklan va mazmunan takomillashtirishning mustahkam xuquqiy poydevori qo'yiladi. Jumladan, «Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy, axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan, har tomonlama barkamol shaxs fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi».²

Respublikamizda ta'lim va tarbiya jarayonning uzluksizligini ta'minlash oila, bolalar bog'chalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylari, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv maskanlari, jamoatchilik, malaka oshirish va qayta kasbga tayyorlash tizimlari ish mazmuni va shaklini jamiyat taraqqiyoti talablariga moslashtirish, umuminsoniy va milliy qadriyatlar mohiyatini o'quv fanlari mazmuniga singdirish orqali yoshlar ongida milliy istiqloq g'oyasi va ma'naviyat asoslarini shakllantirish pedagogika, xalq pedagogikasi va psixologiya fanlarining yutuqlarini amaliyotga keng joriy etish, iste'dodli va iqtidorli yoshlarni topish, ularni qo'llab-quvvatlash hamda qobiliyatlarini rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish, ta'lim-tarbiya jarayoniga yangi pedagogik texnologiyani olib kirish, yosh avlodni hozirgi zamon kasb-hunar sirlari, mehnatga ijobiy munosabat ruhida tarbiyalash hamda bu uzluksiz pedagogik jarayonni tashkil etuvchi kadrlar tayyorlash va boshqa muhim masalalarga e'tibor kuchaytirilmoqda.

Darhaqiqat, ushbu masalalarni muvoffaqiyatli, bosqichma-bosqich hal etilishini ta'minlash maqsadida Prezidentimiz tomonidan yillarni «Amir Temur», «Inson manfaatlar yili», «Oila yili», «Ayollar yili», «Sog'lom avlod yili», «Ona va bolalar yili», «Ijtimoiy himoya yili», «Homiylar va shifokorlar yili», «Yoshlar yili», «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili», «Barkamol avlod yili», «Kichik biznes va

¹ И.А.Каримов. «Халқимизнинг жипслиги - тинчлик ва тараққиёти гарови». Олий мажлисининг XII сессиясида сўзланган нутқи. «Баркамол авлод орзуси». -Т., «Шарқ» нашриёт матбаа концерти. 1999 йил. 84-бет.

² «Баркамол авлод. Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори». -Т., «Шарқ» нашриёт матбаа концерти. 1999 йил. 42-бет.

xususiy tadbirkorlik yili» - deb, e'lon qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan Davlat dasturlarida belgilangan chora-tadbirlar ham fikrimizning yorqin dalilidir.

Cholg'u ijrochiligi sinflarida, cholg'u sirlarini o'rgatish kundan-kun rivojlanib, takomillashib bormoqda. Musiqa san'ati va ijrochiligining rivojlanishi, dunyo xalqlari musiqachilari, bastakorlari, musiqashunoslari, o'zaro muloqotlarining kuchayishi natijasida ijrochilikning ham yangi-yangi ufqlari ochilib bormoqda.

An'anaviy ijrochilik bugungi kunda ham o'z tinglovchilari e'tiborini qozonmoqda. Shu boisdan an'anaviy ijrochilik sirlarini ham o'quvchilar qanday cholg'uda ijro etishmasin, ularga o'rganib borish, ularni milliy san'atimiz bilan yaqindan tanishtirib, farzandlarimizda milliy g'ururni tarbiyalab borishda asosiy omillardan biridir.

Ayni paytda cholg'u sozlarida milliy bezaklar ustida ishlash jarayoni juda murakkab bo'lib, muayyan vaqt talab etadi. O'quvchilarni yoshlikdan, ya'ni maktab davridan, akademik litsey hamda musiqa va san'at litseylarida cholg'uchilik sinflarida asta-sekinlik bilan oddiydan-murakkab usulida ijrochilikda milliy bezaklarni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish va turli ijrochilik maktablari yo'nalishlarini o'rganish va an'anaviy musiqa san'atining juda ham keng va boy ijro repertuarlarini o'zlashtirish, shuningdek ularni tajribada ya'ni ijrochilik amaliyotida qo'llash sir-asrorlarini o'rganib borish o'zining yaxshi samarasini beradi.

O'zbek musiqa madaniyatining qadimiy va boy tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ajdodlarimiz musiqa san'atiga juda katta e'tibor berganliklarining guvohi bo'lamiz. Buyuk bobokalon allomalarimiz ijodlarida, musiqa bobida fikr yuritmagan, o'zining faoliyatida musiqa bilan to'qnashmagan, ijod qilmagan biron-bir olimu-shoirni ko'rmaymiz.

Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Abdurauf Fitrat, Darvesh Ali Changiy kabi allomalar bizlarga juda qimmatbaho ma'lumotlar, ya'ni o'zlarining musiqa bobida ijod qilgan ishlarini, risolalarini, kitoblarni qoldirishgan.

Sharqda musiqa ilmi bilan shug'ullanmagan olim yoki shoir mukammal olim

sanalmaganligi, bugungi kunda ko'pchilikka ma'lum.

Qadimiy an'analarga sodiq qolgan hozirgi zamon musiqashunos olimlarimiz hamda, mohir sozanda-bastakorlarimiz ham ibratli ishlarni amalga oshirib kelmoqdalar. Bu borada davlatimiz rahbariyatining musiqa va san'atni rivojlantirish borasida olib borayotgan ishlari tahsinga sazavordir. Shaxsan Prezident I.A.Karimovning tashabbuslari bilan o'tkazilayotgan an'anaviy «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivali, «O'zbekiston Vatanim manim» kabi an'anaviy respublikamiz miqiyosida o'tkazilayotgan tanlovlar, Prezidentimizning milliy musiqamiz rivojlantirish borasida chiqarayotgan farmoyishlari fikrimizning dalilidir. Bugungi kundagi yangi avlod musiqashunos olimlari oldida, milliy musiqamizning qirralarini chuqurroq o'rganish yanada ko'proq izlanish va uning yangi-yangi ufqlarini kashf etishdek, dolzarb masala turibdi. Xususan, cholg'u ijrochiligi sinfida ijrochilikning milliy bezaklari ustida ishlash usullarini ham ilmiy asosda o'rganish, tadqiq qilish, musiqa pedagogikasidagi muhim vazifalaridan biridir.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Shu kungacha ko'plab olimlarimiz tomonidan cholg'u ijrochiligi tarixiga oid salmoqli ishlar qilingan. Jumladan, professorlar: S.M.Taxalov, F.Abdurahmanova, A.Odilov, K.Alimbayeva, T.Vizgo, A.Jabborov, O.Matyoqubov, A.Petrosyani, A.Semenov, F.Karomatov, R.Qosimov va N.Sharipov kabi olimlarimiz tomonidan ijro usullari, milliy bezaklarning qo'llanilishi, ularni ijro etishga o'rgatish, ilmiy-metodik qo'llanmalari va ko'plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Yuqorida qayd etilgan ilmiy ishlarga asosan ushbu ilmiy yo'nalishni davom ettirib, tanlagan mavzuni yoritishga harakat qildik.

Mavzuning obyekt va predmeti. O'zbekiston Mustaqillikka erishgandan so'ng, ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, kadrlar tayyorlashga yangi uslubda yondoshilishi, o'zining yaxshi samarasini bermoqda. Bugungi kunda ta'lim tizimida eski o'quv yurtlari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar, gimnaziyalar paydo bo'ldi.

Ushbu mavzuni kasb-hunar kollejlari, akademik litseylarda, cholg'u sinfida o'quvchilarga, milliy cholg'u sirlarini o'rgatishda, ularni boy musiqiy merosimiz bilan tanishtirishda va nihoyat, milliy musiqamizni ijro etish ko'nikmalarini shakllantirishda qo'llash mumkin. Mavzuning asosiy obyekt, bugungi kunda ta'lim

tizimidagi akademik litseylar va san'at yo'lidagi kasb-hunar kollejaridagi cholg'u sozlarida o'rgatish sinfidir. Mazkur jarayonda toliblar, ona diyorumizda cholg'u sozlarning tutgan o'rni haqida foydali ma'lumotlar oladilar.

Mavzuning maqsadi va vazifalari. Mavzuning asosiy maqsadi, cholg'u ijrochilik sinfida shogirdlarga boy ma'lumotlar berish, sozlarda ijro bezaklari ustida ishlashning usullari bilan tanishtirishdan iborat.

Mavzuning obyekti musiqa va madaniyat kolleji, hamda akademik san'at litseylarda bo'lgani bois, asosiy maqsad shu o'quv dargohlarida bilim olayotgan talabalarni, Markaziy Osiyo madaniyatida cholg'u sozlarning tutgan o'rni bilan tanishtirish.

Buning uchun har xil suhbat, savol-javoblar, baxs, munozaralar, konsertlar o'tkazish, milliy ijrochilik manbalarini to'plash, kuzatish, ularni o'rganish, ilg'or pedagoglar, mohir sozandalar, musiqashunoslar ish tajribasini o'rganish, ularni taxlil qilish, xulosalar chiqarish.

Mavzuning metodologik asoslari va ilmiy-tadqiqot metodlari. Mavzuning metodologik asoslari O'zbekiston Respublikasi mustaqillik mafkurasi, milliy istiqlol g'oyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining san'at va ma'naviyat haqidagi farmonlari, chiqishlari, ma'ruzalari va yozgan kitoblarida mustaqillik va yoshlarning ma'naviy kamoloti yo'nalishidagi fikrlari va O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'lim va tarbiya sifatini ko'tarishga qaratilgan vazifalar hamda g'oyalaridan iborat.

Mavzuning ilmiy tadqiqot metodlari quyidagilardan iborat:

1. Kuzatuv, bahs, munozara, tafakkur va ijod, suhbatli konsertlar.
2. Suhbatlar, har xil intervyular olish, amaliyotdagi taniqli sozandalar, musiqa tarixchilari, nazariyotchilar bilan uchrashuvlar o'tkazish, savol-javob, intervyu hamda tajriba sinov ishlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, I.A.Karimov asarlarida ilgari surilgan pedagogik g'oyalarda «Mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari»¹ ko'rsatib beriladi, ma'naviy-axloqiy tarbiyaga «Yuksak ma'naviyat - kelajak

¹ I.A.Karimov. «Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли». -Т., «Ўзбекистон». 1992 йил

poydevori»¹ sifatida qaraladiki, ular milliy ma'naviy-axloqiy tarbiyaning metodologik asosini tashkil qiladi.

Mavzuning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati. Mavzuning ilmiy yangiligi, shu yo'nalishdagi tarixiy ma'lumotlarni to'plab, o'rganib uni yoshlar orasida keng targ'ibot qilishdan iborat.

Ilmiy farazi. Talabalarni Markaziy Osiyo madaniyatiga mansub cholg'u sozlari bilan tanishtirish orqali ularni umummusiqiy va nazariy tayyorgarliklarini o'shish samarali kechadi.

Agarda:

- San`at kollejlari o'quv rejalariga Markaziy Osiyo xalqlari cholg'u sozlari tarixi haqida maxsus fan kiritilsa;
- Markaziy Osiyo xalqlari milliy cholg'ulari bilan talabalarni tanishtirib borish orqali ularning musiqiy-nazariy bilimlarini takomillashtirishning pedagogik tizimi ishlab chiqilsa;
- talabalarni milliy cholg'ular bilan tanishtirib borishning samarali ish shakli, usullari aniqlansa;
- talabalarni Markaziy Osiyo xalqlari milliy cholg'u sozlari bilan tanishtirib borish bo'yicha ilmiy nazariy tavsiyalar ishlab chiqilib amaliyotga tadbiq etilsa;

Dessertatsiyaning tarkibiy tuzilishi : *Dessertatsiya Kirish, 3 bob , 6 paragraf, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy xajmi 85 betni tashkil etadi.*

I - BOB. CHOLG'U IJROCHILIGI SAN'ATI TARIXIGA BIR NAZAR.

1.1. *Qadim zamonlarda kishilar hayotida cholg'u sozlarining tutgan o'rni*

Milliy ma'naviyat va ma'rifat, yangidan ko'z ochayotgan bir davrda mafkuramizni rivojlantirishda, xalqimizning umrboqiy san'at tarixini keng yoritish, musiqa merosimizni o'rganish va san'atsevar xalqimizga yetkazish muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, bu borada o'lmas merosimiz, ustozdan shogirdga o'tib kelgan xalq an'anaviy ijrochilik maktabi asosiy manba sanaladi. Biz o'tmishda yashab ijod etgan buyuk allomalarimizning tarixiy asarlariga murojaat qilish bilan birga, bobokalon san'atkorlarimiz meros qilib qoldirib ketgan durdonalarni chuqur o'rganamiz. Xalqimizning bebaho boyligiga aylangan musiqa merosimiz o'zining boy tarixiga ega bo'lib, davr o'tgan sari uni o'rganishga extiyoj ortib bormoqqa.

Buyuk Turon zaminida musiqa madaniyati va ijrochilik san'atining rivojlanishi, qadim zamonlarga bog'lanib ketadi. Buyuk Sharq allomalari Abu Ali Ibn Sino, Muhammad Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Paxdavon Mahmud, Umar Hayyom, Abdulqodir Marog'iy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Pahlavon Muhmud, Darvesh Ali Changiy va boshqa ulug' bobokalonlarimiz o'zlarining risolalarida ijrochilik san'ati, musiqa ilmi va tarixi, cholg'u sozlarining tuzilishi, ijroviy uslublari, san'atkorlik qonun-qoidalariga oid qimmatli ma'lumotlarni, o'zlarining fikr va muloxazalarini bayon etib ketganlar.

Mashxur qomusiy asar «Qobusnoma»da ham san'atchilik qoidalariga bag'ishlangan aloxida bob, o'rin olgan. Zaminimizda o'tkazilgan tarixiy qazilmalar natijasida topilgan dutor, surnay, qonunga o'xshash sozlar, toshlarga o'yib bitilgan sozandalarning soz chalib turganidagi tasvirlari o'lkamizda ijrochilik san'ati qadimdan rivojlanib kelganligidan dalolat beradi. Sharq xalqlarining musiqiy merosi bo'lmish maqom, mug'om, dastgoh, navba, raga, kuyi kabi ijrochilikning murakkab turkumlari avloddan-avlodga og'zaki ravishda o'tib kelgan. Tarixiy manbalar, bilimdon ustoz san'atkorlarning fikri hamda ilmiy tadqiqotlarga qaraganda, XIII-XVIII asrlarda O'rta Osiyo, Xuroson va Ozarboyjon xalqlari musiqasida quyidagi o'n ikki (duvozdah) maqom mavjud

bo'lgan. Bular: «Ushshoq», «Navo», «Busalik», «Rost», «Xusayniy», «Xijoz», «Raxoviy», «Zangula», «Iroq», «Isfaxon», «Zirafkand», «Buzruk».

Yana bir tarixiy manbaga murojaat qiladigan bo'lsak, ulug' olim Mirzo Ulug'bek Tarag'ayning «Risola dar ilmi musiqa» (Musiqa ilmi haqida risola) kitobining «Dar bayoni duvozdah maqom» (O'n ikki maqom zikrida) bobida shunday fikrlar keltiriladi: «Xoja Abdulqodir ibn Abduraxmon Marog'ay, Xoja Sayfiddin Abdulmo'min, Sulton Uvays Jaloiriyalar» ning so'zlariga qaraganda, avvalda maqomlar yettita bo'lgan: «Maqomi Rost», «Maqomi Ushshoq», «Maqomi Navo», «Maqomi Raho'», «Maqomi Xijoz», «Maqomi Iroq», «Maqomi Xusayniy». Yana ushbu risolada ulug' bobomiz Ulug'bekning o'zi tanbur va nog'orani juda yaxshi chalganligini, «Bulujiy», «Shodiyona», «Axloqiy», «Tabriziy», «Usuli ravon», «Usuliy otlig'» singari usullarni ixtiro qilganligini ta'kidlab o'tadi. Yuqoridagi fikrlarga suyangan holda shunday xulosa qilish mumkinki, tarixiy sharoitda yangi ijro yo'llari sayqallangan ko'rinishlari bilan jilolanib kelgan. Keyinchalik xalqning etnik joylashishi, yashash sharoitlariga qarab, ularning turlicha madaniy rivojlanish davriga asoslanib har xil maqom yo'llari ham o'z o'rnini topganligi ehtimoldan holi emas. Natijada, keyingi asrlarga kelib Buxoroning «Shashmaqom»i («Olti maqom»): «Buzruk», «Rost», «Navo», «Dugoh», «Segoh», «Iroq» maqomlari o'zining nasr va mushkilot qismlari bilan rivojlangan bo'lsa, Farg'onaning «Chor maqom»i («To'rt maqom»): «Dugoh-Xusayn»ning yettita yo'li, «Chorgoh»ning oltita ijrochilik yo'li, «Gulyori shaxnoz»ning oltita ijrochilik yo'li hamda «Bayot» yo'llari bilan jilolanib ijro etib kelingan. Xorazm maqomlarida ham shunday holni kuzatish mumkin. Bunda faqat keyinchalik yettinchi qilib «Panjgoh» maqomi kiritilgan. Shuning uchun ham avloddan-avlodga o'tib kelgan bebaho musiqiy boylik sanalmish Buxoro, Xorazm, Farg'ona-Toshkent ijro yo'llari, maqomlari betakror ashula va katta ashulalar singari durdonalar bizga berilgan ulug' ne'mat sifatida ardoqdanadi. Musiqiy ijrochiligimizning yana bir yo'nalishi bo'lgan dostonchilik san'ati Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm voxalarida juda rivojlangan bo'lib, xalq baxshilari tomonidan sevib ijro etib kelinadi.

Xalq san'atining ulkan bilimdoni ustoz Yusufjon qiziq Shakarjonov «Milliy musiqa san'atimiz bamisoli bir daraxt bo'lib, uning tomiri Xorazm, tanasi Buxoro,

shoxlari Farg'onadir» deb ta'riflagan ekanlar. Ustozning bu so'zlarida katta ma'no yotadi.

Xalq cholg'ulari uzoq o'tmishda paydo bo'lgan. Ma'lumotlarga qaraganda dastlabki musiqa cholg'ulari eramizdan avvalgi XIII ming yilliqda dunyoga kelgan, deb taxmin qilinadi. Musiqachilikda dastlab urma zarbli cholg'ular paydo bo'lgan. Bu tushunarli. Chunki, eng qadimgi mehnat qo'shiqdari ishning ritmik tuzilishi bilan bevosita bog'liq.¹

Keyin shovqinli cholg'ular paydo bo'ldi. Ijrochilar qarsak chalib ritmni ta'kidladilar, shovqinli cholg'ular ta'sirini kuchaytirdilar. Ijrochi ayollarning chapak zarblari o'ziga xos, takrorlanmas, go'zal holatni vujudga keltirar edi.

Keyinroq xalq ustalari tomonidan qamish yoki bambuk poyasidan surnay, xushtak, yana biroz o'tgach esa nay (bo'ylama, ko'ndalang, ko'p yo'lli), naysimon xushtaklar, shiqildoqlar, chiltorlar (arfa, lira) va kifarlar yasaldi. Vaqt o'tib u cholg'ular yanada takomillashib (ko'p yo'lli, shuningdek zamonaviy ko'p teshikli) naylar yuzaga keldi. So'ngroq torli-mizrobli va torli-kamonchali musiqa cholg'ulari paydo bo'ldi. Ulardan saroy ayonlarining marosimlarida, xarbiy yurishlarida foydalanildi.

Qadimgi Sharq madaniyati quchog'ida o'zbek xalq cholg'ulari shakllandi. Ular ko'p asrlik taraqqiyot davomida o'ziga xos xususiyatlarini, tovush tusini saqlab qoldi. O'ziga xos tuzilishi tufayli nay, surnay, tanbur, dutor, rubob, g'ijjak, qobuzlar an'anaviy shakllarda bizgacha yetib keldi.

Eramizdan avvalgi III asr o'rtalarida O'rta Osiyoning g'arbiy viloyatlarida Parfiyon(a), sharqida esa Grek-Baqgriya davlatlari tashkil topdi. Eramizning I asrida O'rta Osiyoning janubiy qismida qudratli Kushon shoxligi tarkib topdi. Maxalliy Kushon sulolasi xokimiyati ostida bir qancha davlatlar birlashdi, buning natijasi o'laroq shaharlar yuksaldi, madaniyat gullab-yashnadi, yangi-yangi musiqa cholg'ularining yaratilishiga shart-sharoit yuzaga keldi.

Quldorlik tuzumi davrida Marokand, Niso, Tuproqqal'a, Termiz va boshqa shaharlar mavjud edi. Ushbu shaharlar xududida olib borilgan qazilma ishlar chog'ida badiiy xunarmandchilik buyumlari, turli xil cholg'ularining tasvirlari topildi. Quldorlik jamiyati O'rta Osiyo xalqlari madaniyati rivojida muxim bosqich bo'ldi.

¹ С.Абдуллаева. «Современные азербайджанские музыкальные инструменты I». Баку. 1984 год. 5-стр.

Xalq musiqasi yanada yuksalishi bilan birga, cholg'ular ham takomillashdi.

Eramizning IV asridan boshlab O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarida o'zgarish yuz berdi: quldorlik tuzumi o'rmini asta-sekin feodal tuzumi egallay boshladi. IV asrning 60-yillarida O'rta Osiyoga turklarning kirib kelishi natijasida turkiy va sharqiy Eron xalqlarining aralashuvi tobora kuchayib, natijada o'zbek va boshqa O'rta Osiyo xalqlari shakllandi. Shu davrdan boshlab O'rta Osiyo xududi Turkiston (turklar yashaydigan joy) nomini oldi.

Asrimizning 30-40 yillarida uyushtirilgan arxeologik ekspeditsiyalar (S.L.Tolstov, V.AVyatkin, M.B.Masson va boshqalar rahbarligida) natijasida O'rta Osiyo madaniyatini, shu jumladan xalq cholg'ularini o'rganishda qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lindi. Topilgan madaniy yodgorliklar: nay, rubobsimon cholg'u, hozirgi doiraga o'xshash do'mbira va shu singari cholg'ularni chalayotgan mashshoqlar tasvirlangan. Bular Afrosisb, Tuproqqal'a, Ayratam (Ayratam frizi deb ataladi) kabi shaharlardan topilgan sopol idishlardagi mashshoq haykalchalardir. Ularda turli xil musiqa asboblari: lyutnya, tanbur, rubobsimon cholg'u, qonun, ud, rud, shemane (musiqor), chag'ona, chiltor, nay, burg'u, surnay, karnay, doirasimon cholg'ularida mashq qilishlari tasvirlangan.

Xalq cholg'ulari O'rta Osiyo axolisining turmushi va mehnat faoliyatiga singib, inson faoliyatining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. Cholg'ular jo'rligida qo'shiq, o'yin va kuylar xalqning katta-katta marosimlari va oilaviy bayramlarida ijro etilgani bizga ma'lum. Bayramlar ko'proq yil fasllari bilan bog'liq bo'lgan. O'rta Osiyoda «Navro'z», «Lola sayli», «Hosil fasli», «Qovun sayli», «Uzum sayli» kabi mavsumiy bayramlar keng tarqalgan. Bunday ommaviy bayramlarni xalq cholg'ulari ansambllari, xonanda va sozandalar hamda raqqosalarsiz tasavvir qilish qiyin. Bayramlarda, madaniy marosimlarda ayniqsa karnay, surnay, doira, nog'ora va chindoul kabi va urma ar-li musiqa cholg'ulari keng qo'llanilgan.

Feodalizm davrida O'rta Osiyo xalqlari madaniyati taraqqiyoti yangi bosqichiga ko'tarildi. VII asrda Osiyoga arablarning kirib kelishi keng xududda arab xalifaligini barpo etdi. Tirik jonzotni tasvirlashni taqiqlovchi islom dinining yoyilishi devoriy suratlarni, shu jumladan musiqa cholg'ulari tasvirining barxam topishiga olib keldi. VII-

VIII asrlardagi arab istilosi O'rta Osiyo madaniyati taraqqiyotiga sezilarli ta'sir o'tkazdi.

IX asr oxirida somoniylar maxalliy feodal sulolasi O'rta Osiyoning kattagina qismini birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. Somoniylar davlatining poytaxti Buxoro yirik madaniy markazga aylandi. Bu yerda adabiyot va musiqa taraqqiy etdi. Hayot sharoitining o'zgarishi tufayli musiqa san'atining ijtimoiy ahamiyati oshdi. Shaharliklar va yuqori tabaqa sinflari turmushda musiqaning roli sezilarli kuchaydi. O'sha paytlardayoq yakkanavoz, ansambl musiqachiligi va raqsnini o'z ichiga olgan vokalcholg'u musiqa turkum turlari mavjud edi. Saroy a'yonlari tantanali marosimlarida ijro etilgan musiqa aloxida o'rin to'lgan. Odatda bu bir necha damli (karnay, surnay) va urma zarbli cholg'ular: (nog'ora, chindovul) asboblarning birgalikda chalinishidan hosil bo'lgan. Dutor ijrochiligi o'sha paytda faqat kamer xususiyat kasb etgan bo'lib, bu ijrochilik san'atini asosan ayollar egallagan edilar.

O'rta asr musiqa ijrochiligi madaniyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shunda ediki cholg'uchilar nafaqat bir necha turdagi musiqa asboblarini chala olgan, balki o'zlari ham musiqa bastalaganlar. Cholg'uchilar o'z davrining yetuk musiqachilari va shoirlari ham bo'lishgan. O'rta asr sharoitida musiqiy ixtisoslashuv, maxsus musiqiy ustaxonalarni paydo bo'lishiga olib keldi. Bu yerda ustoz-shogird an'analari qaror topib rivojlandi. Ayni paytda ansambl ijrochiligi takomillashdi, musiqa san'atining asosiy ko'rinishlari shakllanib cholg'u asboblarining yangi namunalari kashf etilishi ham o'sha uzoq davrlarga borib taqaladi. Sharq olimlarining nazariy qarashlari mavjud ijrochilik san'ati tajribasi asosida shakllangan bo'lib, ular o'z risolalarida musiqaning jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati haqida atroflicha ma'lumot berganlar. Forobiyning (873-950) «Katta musiqa kitobi» («Kitob al-musiqa al-kabir»), Ibn Sinoning (980-1037) «Davolash kitobi» («Kitob ush-shifo») qomusidagi «Musiqa haqida risola», Al-Xorazmiyning (X asr) «Bilimlar kaliti», Safiuddin Urmaviyning (1216-1294) «Oljanoblik haqida kitob» yoki «Sharafiya kitobi», Jomiyning (1414-1492) «Musiqa haqida risola» kitoblarida musiqa ijrochiligi va xalq cholg'ulari haqida muxim ma'lumotlar bayon etilgan.¹ Safiuddin Urmaviy iste'dodli ud cholg'uchisi, xonanda, mashxur sozanda sifatida

¹ А.Жомий - ажойиб музика назариётчиси, илмий ва ижодий фаолияти асосан Хиротда кечди. Ўзининг музика ҳақидаги рисоласи билан музика илмини сезиларли даражада бойитди.

tanilgan. U Ozorbayjonning Urmiya shahrida tug'ilgan. Safiuddin eng katta yutug'i lad («modus»)larining mukammal sistemasini ishlab chiqqanligidir.

Ibn Zaylining (1044 yilda vafot etgan) «Musiqqa haqida to'liq kitob»i («Kitob ul-kabi fil-musiqiy») uning musiqqa ilmidagi yagona va bebaho kitobidir. U yangi usulni - musiqada lادلarni xarflar bilan ifodalash usulini ishlab chiqqi. Abdulqodir Marog'iy (XV asr) Abduqodir ibn-G'oyibiy (Marog'iy) Ozorbayjonning Marog' shahrida tug'ilgan bo'lsada, hayotining ikkinchi yarmi Temur saroyida - Samarqandda o'tgan va Xirotda vafot etgan. «Musiqqa ilmida ohanglar to'plami» («Jami al-alxan fi-ilm al-musiqiy») risolasida musiqqa haqidagi ta'limotni - kamoncha, yetti torli g'ijjak kabi bir turdagi musiqqa cholg'ulari borligi haqidagi ma'lumotlar bilan boyitdi. Al-Xusaynning (XV asr) Musiqiy Kanonlarida asosan O'rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan ikki torli musiqqa cholg'usi - dutor haqida ma'lumot berilgan. Qutbiddin ash-Sheroziy (1236-1310) eronlik musiqqa nazariyotchisi sifatida tanilgan bo'lib, o'z risolasida kamonchali tanbur haqida ibratli muloxazalar bildirgan hamda inson ovozi musiqqa asboblari ichida eng yoqimlisi deb hisoblagan. XVII asrda yashagan buxorolik musiqashunos Darvesh Ali o'z risolasidagi tanbur, chang, qonun, barbot, chag'ona, ud, rud, rubob, qobuz, g'ijjak, shemane, ruxavza, kungura kabi musiqqa cholg'ulari haqida batafsil ma'lumot bergan.

Buyuk Sharq mutafakkirlarining merosi xalq cholg'ularini o'rganish sohasida ham tarixiy qimmatga ega. Abu Nasr Muxammad Forobiyning mashxur asari - «Musiqqa haqida katta kitob» («Kitob al-musiqqa al-kabir») ulkan axamiyatga ega. O'rta asr olimi bu kitobida ikki xil musiqqa ijrochiligi:

ohangni inson ovozi (qo'shiq san'ati) va cholg'ular vositalarida qayta tiklashga ajratadi. Forobiy mohir ijrochi sifatida musiqqa cholg'ularining jamiyat hayotidagi ro'lini o'rganishga axamiyat beradi va u: «...Jangu-jadallarda, raqslarda, to'y-tomoshalarda, ko'ngil ochar bazmlarda hamda ishq-muxabbat qo'shiqlarini kuylashda chalinadigan o'ziga xos cholg'ular bor», - deb, yozgan edi.¹

Musiqiy san'atimizning piru komili bo'lmish «Shashmaqom» milliyligimizning kasbiy mumtoz ijrochiligida eng qadimgi, yirik va murakkab janr hisoblanib, u

¹ Каранг: А.Одилов. «Узбек халқ чоғулариди ижрочилик тарихи». -Т., 1995 йил.

jahonni o'z ruhiy taassurotlari bilan lol qoldirib kelmoqda. Avesto, Sug'diyona, Zardo'shtiylik va Buddaviylik, Borbad Marvaziy hamda ulug' alloma, o'z davrining olimlari orasida jahonning ikkinchi o'qituvchisi nomi bilan mashxur al-Forobiy, fit-tibu-olam shaxanshohi va raisi Ibn Sino, Abdul Qodir Marog'iy, Darvesh Ali va boshqalar tomonidan shashmaqom va maqom o'qitish usullarida nazariy va amaliy tasniflar tatbiq etilgan.

Ayniqsa, Forobiy va Ibn Sino aruz vaznlari ishlab chiqqanligi haqida tadqiqotchi Said Bolta Zoda Saidiyning jaxonshumul axamiyatga ega, bir necha ilmiy tadqiqotlari mavjudligini ta'kidlash joiz. Uning ma'lumotiga ko'ra: «Sharq usul ta'limotlarining psixologik taassurotlarida ushbu olimlarning zarb-usullari ham Sohibqiron Amir Temur va temuriylar tomonidan harbiy yurishlarda keng qo'llanilgan edi».

Masalan: Qarshini zabt etishda 300 ta nog'oralar ijrosi dushmani psixologik jixatdan larzaga tutgan va jangsiz taslim bo'lishga olib kelgan. Yana dushmanning 200 minglik armiyasini 5000 askar orqali psixologik taktika qo'llab taslim etishda turli xil, jahon tili bilan aytganda, idiofonlar, membronofonlar va aerofonlar guruhlariga mansub cholg'ularning vaximador zarb usullari va tovushlaridan foydalanilgan. Tengsiz dushman esa ruhiy jixatdan qaltirab qolgan va jangsiz taslim bo'lgan. Yoxud bayroqlarning qo'llanilishida ham psixologik taktika orqali dushmanlar qo'yilgan, deyilgan. Ushbu an'ana, shuningdek, Xusayn Boyqaro, Mironshoh, Mirzo Ulug'bek tomonidan va Buxoro amirligida ko'p qo'llanilgan bo'lib, Qo'qon, Xorazm, Qozog'iston va boshqa davlatlarning amirzodalari va xonlari tomonidan ham foydalanilgan.

Markaziy Osiyo olimlari A.A.Semyonov, A.Rajabov, G.Pugachenkova, T.Vizgo va ayniqsa, A.Nazarov tomonidan Forobiy va Ibn Sino nazariyasi zamonaviy ilmiy tadqiqotlar yuzasidan jahon notaqiyasi orqali kengroq yoritib berilgan. TTTu kabi Rossiyaning tibbiyot olimi V.N.Bogolyubov «Ichki kasalliklar» o'quv qo'llanmasida ham yurak qopqasidagi zarblar (mitral sistenoza)ni, klapanlar zarbi deb aniqladi. Bundan tashqari, S.B.Saidiy o'z tadqiqotlarida: «Bundan ming yil oldin Ibn Sino «Ash-shifo», «Nuqtahoi jolibiy» risolasida yurak . aritmik zarblari usul-uslublarini an'anaviy (kardiogramma)da, qadimgi falsafiy qoidasida (doirasimon sistema) notalar tushunchasini so'zlar talaffuzida yechib ko'rsatganligidan nafaqat V.Bogolyubov

yo san'atshunoslik va tibbiyot xatto jahon olimlari ham bexabar ekanliklari ma'lum darajadadir», - deydi. Shunday qilib, ushbu usullar shashmaqomning tuzilish konstrukciyasi va gavdalanishi, tasnifi va tavsiflanishida «Mushkilot yo'nalishi» (cholg'u ijrochiligi)ning ham «Nasr» (ashula yo'nalishi)ga katta ta'siri borligi bilan uning inson tarbiya vositalari va ruhiyatiga ham bog'liqligini inobatga olsak, Shashmaqom: inson tarbiya vositalarining abad-ul-piri-kaloni sifatida muxim o'rin tutishi, ajdodlarimiz ruhi bilan chambarchas bog'lanib kelinishi:

- inson yuragi bilan hamohangligida milliy o'zligimiz intonnaqiyasida qolipimizni saqlashi, u yo bu jarayonlarda tarixan ruhiy tarbiya omili ekanligi;
- psixologik gavdalanishi va ruhiy ta'sirchanligi bilan jahonni zabt etganligi;
- Sharqning kasbiy musiqasida qimmatbaho an'anaviy, badiiy lirik ko'rinishlari bilan inson xis-tuyg'usini junbushga keltirishi;

Jahonda yagona yo'nalish xisoblanib, u kabi ruhiy ta'sirchanlik, chuqur va murakkab falsafiy zarb-usullarining tuzilishlari, jahon hamjamiyatida tirik xazina sifatida tan olingan omildir. U sharq an'anaviy san'atining amaliy jixatdan milliy va maxalliy, an'anaviy-badiiy, ma'naviy-mafkuraviy, shaklan yirik mo'jizalaridan biri va o'zligimiz abadiy timsolidir.

U mustaqillik davrida o'z ildizlari sari yo'l ochib, jahonda yana ham kengroq tanila boshladi. Bunda:

- Shashmaqom, inson tarbiyasida yosh tanlamasa ham, ayniqsa bola tarbiyasining asosiy omili bo'lib kelgan. Undan ohang tuzilishining qolipi bo'lmish - usul, jahon tarixida zarblar xazinasining mo'jizasidir;
- ohang shakli tizimini doira va nog'ora cholg'u sozlari boshqaradi. Undagi ayrim doira usullari inson yurak tebranishi bilan hamohang ekanligini, san'atshunoslik va sharqshunoslik olimlarining ilmiy risolalaridan misollar keltirib anglash mumkin;
- Shashmaqom, ilohiy-ruhiy kuchlarni, falsafiy qilib aytganda, undagi psixologik tavsiflanishlarda insonni ezgulikka, poklik, jasurlik va mardlik, ayniqsa, orombaxshlikka chaqiradi.

Doira urma cholg'usi ham nafaqat kuchli ruhiy, balki ilohiy taassurotlarni qo'zg'ashga qodir. Shu bilan bir qatorda cholg'u musiqiy (estetik) va nomusiqiy

(noestetik) xususiyatlarga ega bo'lib, u orqali ruhiy xastaliklarni davolaganlar. Demak, doira bola tarbiyasida muxim o'rin tutib, uning hayotida juda keng tavsifiy gavdalanadi hamda uning butun hayoti davomida psixologik ruhiy axamiyat kasb etib boradi. U nafaqat bola ongida, balki ong osti harakatlarida, oliy asab faoliyatida differensial qo'zg'alishi natijasida ilohiy zarb-usullari nog'ora va doirada bajariladi.

Ushbu zarb-usullar shashmaqomdan ham o'rin olganligi ma'lum. Demak, shashmaqomdagi ruhiy taassurotlar nafaqat vokal va instrument yoki raqs janrlari, tilda samo'la (kosmologik intonnaqiya) kuylash, ayniqsa, aruz tizimi, doira usuli ta'sirchanligi bilan bog'lanib, aloxida o'rin tutadi.

Ba'zi yirik va madaniylashgan jahon davlatlarida yosh bolalarning dunyoqarashini keng, ongini milliy o'zaklarda rivojlantirib tarbiyalash vositasi sifatida irodasini mustaxkamlash uchun bog'cha va maktablarda an'anaviy musiqa orqali tarbiyalash yuqori darajada yo'lga qo'yilgan.

Ayrim davlatlarda chuqur tarixga ega milliy an'anaviy musiqalari bo'lmasa ham, chetdagi, aniqrog'i «Shashmaqom» yo'nalishidan baxramand bo'lish va foydalanish darajasi kun sayin ortmoqqa. Bunda:

- Shashmaqom, ruhiy terapevtik jixatdan asab, yurak, qon bosimlari, kunduzgi va kechki arteriyalar va ayrim og'riqlarda shifobaxsh ekanligi, xissiyot tuyg'ulari, xotirotni kuchaytiruvchanligi va fikrlashga chakiruvchanligi kabi xususiyatlarga ega bo'lib, u jahon olimlari e'tiborini tobora jalb etib bormoqda.¹

¹ Қаранг: С.Саидий. «Мозийдан садо». «Тарбия» журнали. -Т., 2007 йил. 2-сон.

1.2 BORBAD SHARQ MUSIQASINING ASOSCHISI

Borbad yetuk musiqashunos, bastakor, raqqos, xofiz va shoir bo'lgan. U taxminan 589 yili Marvda dunyoga kelgan. Turkmanistonning hozirgi Bayramali muzofoti yaqinida joylashgan Marv VI-VIII asrlarda ilm-fan, madaniyat, san'at va adabiyot, hunarmandchilik rivojlangan shahar bo'lgan. Yettinchi asrda mo'yna, charm buyumlari, musiqa asboblari, ayniqsa, turli-tuman bo'z, harir shoyi matolari bilan jahonga shuxrat qozongan. Xatto arablar unga Shoxijahoni (jahon shohisi), - deb, ham nom berganlar. Marvda muxtasham kutubxona, ilmiy markaz, madrasalar qad ko'targan. XI-XII asrlarda Marv Saljuqiylar hamda Xorazmshohlar davlatining markazi bo'lgan. Bag'doddagi «Baytul xikma» yoki «Ma'mun akademiyasi» deb nomlangan ilmiy markazda Al-Xorazmiyga hamroh bo'lib kelgan Marvaziy taxallusli bir necha riyoziyot va falakiyot (astronom) olimlari ishlagan. Anvariy Marvaziy, Abdulloh Marvaziy, Abduraxmon Marvaziy, Muhammad Solix Muzaffar Marvaziy, Muhammad Kison Marvaziy singari o'nlab san'atkorlar va qomusiy bilim soxiblari hayotining asosiy qismi Marv bilan bog'liq. Bundan tashqari Firdavsiy va Tabariylar Marvda dunyoga mashxur baxshilar, Ozarvar Changiy singari sozandalar yashab o'tganlarini qayd etishgan.

Bo'lajak bastakor ana shu go'zal madaniy markazda, Arab va Ajam¹ mamlakatlaridagi madrasalarda ta'lim olgan. Yigitlik yillaridayoq xalq kuylarini maxorat bilan chalish hamda qo'shiq aytishda nom chiqargan.

Zamonasining xukmronlari Borbadni o'z saroylariga jalb etmoqchi bo'ladilar. Ammo yosh xofiz Eron shaxanshoxi Xusrav Parviz saroyiga borishga jazm etadi. Zeroki, Xusrav adabiyot va san'atning, umuman madaniyatning taraqqiyotiga jiddiy e'tibor berib, ko'plab san'atkorlarga xomiylik qilardi. Borbad saroydagi ortiqcha bazm-dabdabalar, bexuda yurish-turishlarga qaramay, ijodiy ishlar bilan jiddiy shug'ullanadi: yosh xofiz, musiqachilar tarbiyasiga aloxida e'tibor beradi. Sosoniylar sulolasi davrida yetishgan mashxur sozandalar Nekiso Changiy, Ozodvor Changiy, Geso'i Novagar, Sarkash va Sarkablar bevosita yoki bilvosita Borbad shogirddari hisoblanadilar.

¹ Утмишда араблар яшайдиган юртлардан ташқари Шарқ мамлакатлари «Ажам» - деб, юритилган.

Borbad bastakor va xofizgina bo'lib qolmay, iste'dodli shoir ham edi. Uning aksariyat kuylari o'z she'rlari matniga yozilgan. O'sha davrdagi xijoli (barmoq vazniga yaqin) yangi she'riy shaklning ixtiro qilinishi ham borbad nomi bilan bog'liq.

Tabiatan shoir, sozanda, bastakor, xofiz va raqqos bo'lgan Borbad ijodining ilk pardalaridan boshlab, asarlarida tabiat ko'rki, bahorning betakror chiroyi, hayot nashidasini kuylashga, ifodalashga intilgan. Bastakor ijodining tadqiqotchilari uning «Gulzor», «Sabz bahor», «Rohi gul», «Oroishi xurshedu moh», «Abhari kuhan», «Ravshan charog'», «Polizbon», «Dilangizon» singari asarlarida bevosita tabiat go'zalligi aks etganligini o'qtiradilar. U haftaning yetti kuniga nisbat berib «Xusravoniy» ohanglar to'plamini, o'ning 30 kuniga qiyoslab 30 lahn (kuy, maqom yo'li), yilning 360 kuniga bag'ishlab shuncha tarona yaratgan. Borbadning «Sigona»sidagi 19 va 20-qo'shiqlar «Kini Eraj» hamda «Kini Siyovush» VII-X asrlarda Buxoro axli tomonidan qadimgi bahodirlarni xotirlash marosimida ijro etilgan.

Borbad yaratgan kuy va taronalarning ko'pchiligi bizning zamonimizgacha o'zgarishsiz yetib kelgan. Musiqashunoslarning aniqlashicha, barbat cholg'u asbobini ham Borbad ixtiro etgan. Uning «Zerafkand», «Nuxuf», «Gulno'sh», «Oromishi jon», «Darg'am» kabi kuy va taronalarini arab, turk sozanda hamda mashshoqlari to'xanuz ijro etadilar. Bastakorning arab mamlakatlarida Baxdbad, Borid, Paxlapaz va Faxlbaz taxalluslari bilan keng shuxrat qozonishi ham shundan dalolat beradi. Borbad musiqiy majmualaridagi barcha qo'shiq matnlarini o'zi ijod etgan. Sharq musiqiy bilimi donishmandlarining o'qtirishicha, «Yazdon ofarid», «Sabz andar sabz», «Partavi farxor», «Kini Siyovush», «Bog'i Shaxriyor», «Shabdiz» singari mavsum va marosim qo'shiqlari ana shular jumlasidandir. «Shashmaqom» ohanglari silsilasidagi «Zerafkand», «Xusravoni», «Navro'zi Buzurg», «Navro'zi Ajam», «Navro'zi xoro» maqom yo'llarida Borbad ijodining an'analari bevosita davom etmoqda. Borbad ijodi o'tmish musiqashunoslari tomonidan yuksak baholangan. «Eron musiqasi bilan tanishish» kitobining muallifi Aziz Sha'boniy «Borbad Sharq musiqasi tarixida yorqin siymolardandir. U bu sarzamin xalqlari musiqiy ilmi, notasi, sozu ovozi asoschisidir» deb yuqori baho beradi. Forobiy, Ibn Sino, Abduraxmon Jomiylar musiqaga doir risolalarida Borbadning musiqa iste'dodini e'zozlab unga yuksak baho berganlar.

Borbad VII asrning o'rtalarida ona shahri Marvda vafot etgan.

Hayoti murakkab va fojiali kechgan Borbad hamda uning sozi barbat haqida ko'plab rivoyatlar, naqlar tarqalgan. Ular kitoblardan ko'chib, avlodlardan-avlodlarga o'tib yuradi. Biz ana shunday naqillardan ayrimlarini Borbad shogirdlari tilidan bayon etdik.¹

Sosoniylar sulolasining so'nggi xukmdorlaridan bo'lgan Xusrav Parvez II shoxlik qilgan davr (590-628 y.)da Eronda madaniyat ayniqsa, gullab-yashnadi. Sosoniylar sulolasi xukmronligi 400 yildan ortiqroq (226-651 y.) davom etgan bo'lib, bu davr madaniyat, san'at ancha rivoj topganligi bilan tavsiflanadi.

San'atni sevish, uning namoyandalarini e'zozlash, Xusrav Parvez II-ning shaxsiy xislatlaridan biri bo'lganligidan, uning saroyida turli soxa ijodkorlari, jumladan, qo'shiqchilikda dong taratgan xofizlarning katta guruhi to'plangan edi. Bu san'atkorlar nafaqat eronlik, balki atrof mamlakatlardan ham shoh xizmatiga taklif qilingan bo'lib, saroyda ularning ijodi uchun qo'lay muxit yaratilgan edi. Ular orasida moxir musiqachilar, qo'shiqchilar, musiqa nazariyotchilari, raqqosalar, bastakorlar bo'lib, Sarkash, Bamshod, Noqus, Romtin, Navogar, Sarkab, Ozodvar, Changiy, Robustlar shular jumlasidan edi. Borbad Marvaziy ular davrasida yorqin yulduz bo'lib, aloxida ajralib turardi.

Shuni aytish joizki, Sosoniylar davri san'atida nay, barbat, rubob, chang, karnay, surnay, nog'ora va boshqa sozlardan ko'proq foydalanilgan.

Qadimgi «Xusravoniy» turkumidagi mumtoz musiqa asarida bayon etilishicha, «Navro'z» bayramlarida odatda Borbadning «Fayolobod» qo'shig'i ko'pchilik tomonidan doim kuylanardi. Bu esa uning ushbu qo'shig'i juda ommalashganligidan dalolat berardi. Mazkur asarda Borbad haqida yana shunday deyiladi. «Uning qo'shiqlarida, o'zi to'qigan she'rilarida shohning ta'rifi, uning majlisu ziyofatlari, harbiy yurishlari va erishgan g'alabalari moxirlik bilan kuylangan. Borbad xalq oldiga har bir chiqishida albatta biror yangi she'r yoki qo'shig'i bilan tinglovchilarni lol qoldirgan. Uning har bir taronasi boshqalarnikidan ajralib turgan. Shuningdek, Borbad o'z she'r va qo'shiqlarida shohni muruvvatli, odil bo'lishga, bechoralarga yordam qo'lini cho'zishga, gunohkorlarni

¹ X.Хамидов. «Қирқ беш аллома хикоят». -Т., 1995 йил.

avf etishga va ortiqcha jazolamaslikka ham chaqirardi. Xatto shohga noxush xabarlar ham Borbadning she'r yoki qo'shiqlari orqali bildirilgan. Chunki shohga noxush xabar olib keluvchilar ko'pincha qattiq jazo olardi.

Shunday xususiyatlari uchun ham Borbadning saroydagina emas, balki el orasida ham obro'si va shuxrati yuksak edi».

Borbad Sharq san'atida hozirgi kungacha keng foydalanib kelinayotgan an'anaviy musiqa sozi bo'lgan udni yanada takomillashtirdi va unda mislsiz kuylar ijod etdi. Bu sozga xatto Borbad nomi berilgan. Shundan beri bu soz manbalarda ham, el orasida hozir ham shu ikki nom bilan atalib kelinadi.

Borbad san'at tarixida birorta san'atkor tutmagan yo'lni kashf etdi, ya'ni yilning har bir kuniga bag'ishlangan 360 dan ortiq kuylar yaratdi. U ijod etgan boshqa 30 ta tarona «Oy sokinligi», «Shirin bog'i», «Ruh yo'llari», «Taxt», «Taqqis shaxti», «Ko'm-ko'k», «Sarviston», «Marvarid soyabon» va xokazo deb atalardi.

Darxaqiqat, Borbadning yorqin ijodiy yutuqlari, iste'dodli barcha qirralarining namoyon bo'lishi ayniqsa shoh Parvez II saroyida yanada yaqqol ko'zga tashlanadi. Xolid-el-Fayz, Al-Buxturi, Al-Fakix, As-Saolibiy va A.Firdavsiy kabi Sharq allomalarining ta'kidlashicha, Borbad iste'dodining barcha tomonidan e'tirof etilishi VII asrning ikkinchi o'n yilligiga to'g'ri keladi. Aynan shu davrda Borbad o'z shon-shuxratining eng yuqori cho'qqisiga ko'tarilgan edi.

Borbad davridagi xarbiy qo'shiqlar tarkibida ayniqsa «Mozandaron» qo'shig'i mashxur bo'lib, uning mazmuni qadimgi muqaddas «Avesto» kitobidagi matnlardan olingan, asosiy qismini Borbad o'zi yaratib va o'zi ijro etib, nom chiqargan. Jang maydonlarida, g'alaba tantanalarida ijro etilgan ushbu qo'shiq o'z davrida an'anaviy asarlardan biriga aylanib qolgan.

1205 yilda fors tilida tuzilgan «Xaft kulzum» («Yetti dengiz») nomli katta lug'atda qayd etilishicha, Borbad «Surudi Musajja» nomli yirik asarlar majmuini yaratib, unda qo'shiqlar hamda ularni ijro etish uslublari haqida fikrlar bildirgan.

Borbad yaratgan qo'shiqlardan ayrimlarining nomlari bizning kunlarga yetib kelganki, ularga «Yam-yashil», «Ov gashti», «Choshtgoh», «Sarvzor» va boshqa asarlar kiradi.

Borbad o'z majmuida 30 ta asarini keltiradi va ularda ko'proq inson hayotining abadiy emasligi, imkon borida hayotning barcha sharoitlaridan unumli foydalanish zarurligi haqida kuylanadi. Shunday ekan, biz Borbadga shubxasiz, teran fikrli falsafiy qo'shiqchi deb, ya'ni hayot mazmunini, uning qadriyatlarini yoritib, insonning jamiyatda tutgan o'rnini ochib bera olgan ijodkor sifatida qarashimiz mumkin.

Insoniyat tarixi shundan guvohlik beradiki, ko'plab soxalar olimlari, shoirlar, yozuvchilar, sarkardalar nomlari yuzlab, xatto minglab yillar davomida minnatdor avlodlar yodidan ko'tarilmaydi. Nomi aslo unutilmas ana shunday buyuk insonlar orasida bundan 1400 yildan ortiqroq ilgari yashab, barakali ijod qilgan daxo bastakor Borbad Marvaziy siymosi butun Sharq ijodchiligida xamon yorqin yulduzdek charaqlab turibdi.

O'rta Osiyo xududida Turk xoqonligi davrida ushbu o'lkalarda yashagan xalqlar ijtimoiy-madaniy hayotida jiddiy o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Bunday hol mazkur xalqlar qo'shiqchilik san'atida ham aks etdi.

Arxeologik va tarixiy manbalar bunday xalqlar madaniy hayotida an'anaviy qo'shiqchilik san'ati turlari saqlanib qolganligi hamda yanada takomillashganligidan dalolat beradi. Bunga IV-VIII asrlar davomida musiqachilar tasviri tushirilgan buyum va idishlar ham dalil bo'la oladi.

Bulardan tashqari, qazilmalarda qo'shiq aytayotgan, raqsga tushayotgan va musiqa cholg'ulari chalayotganlar tasviri tushirilgan maxsus uy-ro'zg'or buyumlari, taqinchoqdar ham topilgan.

V-VII asrlarda topilgan qo'shiqchi va musiqachilar tasvirlangan xaykalcha va naqshlar bundan ilgarigi davrga mansub shunday ashyolardan ancha farq qiladi. Ammo ular qo'lida tasvirlangan ud, qo'shnog'ora va o'zga sozlar hozirgacha o'z shaklini deyarli o'zgartirmay saqlanib qolganini ko'rish mumkin.

Panjikent topilmalaridan yana birida qattiq gardishli, egik chang chalayotgan musiqachi ayol tasvirlangan. Ayni shu yerda yana nay, ud kabi musiqiy sozlar chalayotgan va qo'shiq kuylayotganlar tasviri ham mavjud bo'lib, bular majmui kichik bir ansambl mavjudligidan darak beradi. Shuningdek, bu yerda raqsga tushayotgan to'rt nafar raqqosalarning ham tasviri ko'rinib turibdi.

Bolaliktepa qal'asidan topilgan V-VI asrlarga oid tasvirda maxsus tashkil etilgan ziyofatda bir necha musiqachilar chang, nay chalayotgan, xonanda esa qo'shiq aytayotganini ko'rish mumkin. Samarqand axli har bir bayramni qo'shiq va raqssiz o'tkazmagan va bu san'at turi o'sha axoli ijtimoiy-madaniy hayotida aloxida rol o'ynagan.

O'rganilayotgan davrda O'rta Osiyo qo'shiqchilik san'atining yuksak darajada rivoj topganligini boshqa davlatlar xalqlari e'tirof etilgani bilan ham izoxdash mumkin edi. O'lkamizda ijod qilgan ko'plab qo'shiqchi, sozanda, raqqosa san'atkorlar o'zga davlatlar xukmdorlari saroylaridagi rasmiy tantanalarida o'z maxsulotlarini namoyish etganlar.

Bu borada o'lkamiz san'atkorlari Xitoyda katta nufuzga ega bo'lganliklarini ko'rsatib o'tish mumkin. Xitoy imperatori saroyida Buxoro, Samarqand, Shosh va boshqa shaharlardan kelgan musiqachi, ashulachi va raqqosalar o'z san'atlarini namoyish qilganlar. Xattoki ularga xitoycha ismlar qo'yilib, ijro etgan musiqa va qo'shiqlari o'sha xalq tilida nomlangan. Ingliz olimi E. Sheferning yozishicha, Xitoyda O'rta Osiyolik va Sharqiy turkistonlik musiqachilar doimo izzatda bo'lgan. Buxorolik tomoshachilar, Samarqandlik naychilar, Toshkentlik raqqosa va boshqalar uzoq Sharqqa doimo panoj topishga ishonar edilar.

Sharqning serqirra ijodkori, Turonzaminning Marv viloyatida tavallud topgan ilk alloma bastakor Borbad Marvaziyning yoshlik chog'lari o'tgan davr ro'y berayotgan zamon edi.

Bu san'atkorning o'zi tug'ilib o'sgan xududdagi ijodi hamda Eron sosoniylari shohi Xusrav Parvez II xuzuriga borgunga qadar kechgan hayotiy faoliyati haqida juda kam ma'lumotlar saqlangan. Shuning uchun bizgacha yetib kelgan shu ma'lumotnigina bayon eta olamiz.

Shunisi aniqki, Borbad o'z ijodi va boshqa san'atkorlar bilan O'rta Osiyo va Eron xalqlari o'rtasidagina emas, balki butun Sharq xalqlari orasida ma'lum va mashxur bo'lgan. Buning sabablari ko'p bo'lib, bizningcha, uning eng muximi Borbadning ijodi o'rganilayotgan davrda boshqa xududlardagi xalqlar orasida keng tarqalgan fors-tojik tilidagina emas, balki butun Sharq xalqlari tillarida ham kuy va qo'shiqlar yaratib,

mukammal ijro etganligidadir. Bunga aloxida e'tibor berishimiz shuning uchun ham joizki, qadimda va o'rta asrlarda Turon va Xuroson xalqlari o'zaro mustaxkam iqtisodiy va madaniy munosabatlarda yashagan. V-VII asrlargacha Xuroson xalqlarining aksariyati parfikliklar tilida so'zlashgan. Borbad yashagan davrga kelib esa, forsiy-dariy tillari sekin-asta o'z ustunligiga ega bo'la boshlagan. Bu vaqtgacha agar Xurosonda parfiy, Toxaristonda (hozirgi Surxondaryo viloyati) baqgriy, Buxoro va So'g'dda so'g'diy tillari qo'llanilgan bo'lsa, biz o'rganayotgan davrga kelib, fors tili ularni asta-sekin siqib chiqara boshlagan va Turon, Xuroson hamda Shimoliy Afg'onistonda ustuvor tavsifga ega bo'lgan adabiy tilga aylana borgan.

Atoqli musiqashunos Vinogradov o'zining «Klassicheskiye traditsii iranskoy muzmki» nomli kitobida Borbad Marvaziy haqida «Borbadning nomi va shuxrati ayniqsa sosniylar davrida Sharqda va uning vatani bo'lmish Turonda keng yoyildi. Uning ona shahri bo'lmish Marv esa o'zining madaniyati hamda musiqaviy an'analari bilan mashxur edi», -deb, yozadi.

Abu Mansur as-Saolibiy (961-1038 yillar) esa o'zining «Yatimat at-daxr» asarida ta'kidlashicha, Borbad Turon o'lkasining Marv viloyatidan bo'lib, keyinchalik arablar unga Faxlabod yoki Faxlaboz deb nom berganlar.

Borbad taxminan 588 yili Marv viloyatida tavallud topadi. Manbalarda ko'rsatilishicha, Borbad ma'lumotli, savodli oilada dunyoga kelgan. Uning otasi qo'shiqchi, shoir hamda Sharq xalqlari qo'shiqchilik madaniyatidan xabardor bo'lib, ancha taniqli edi. Shuning uchun bo'lsa kerak, Borbad o'zining musiqa soxasidagi dastlabki saboqlarini otasidan olgan. Marv shahriga kelganida qobiliyatli va yetuk san'atkorlar orasida bo'lishga harakat qiladi va o'z ijodiy maxoratini tobora oshirib boradi. Uning uchun bu davr saboq olish, o'rganganlarini takomillashtirib borish davri bo'ldi.

Shuning uchun ham uning bu yerda egallagan bilimlari kelajaqda uni Sharq xalqlari qalbini zabt etadigan san'at asarlarini yaratishida, buyuk san'atkor bo'lib yetishida ulkan zamin xizmatini o'tadi. Borbad tabiat in'om etgan betakror yoqimli ovoz soxibi, sozanda, bastakor, raqqos va shoir edi. U Marvda 29 yoshgacha, ya'ni Eron shohi Xusrav Parvez II xuzuriga borguniga qadar o'zining yuqorida qayd etilgan serqirra san'ati bilan mashxur bo'lib tanila bordi, shuningdek, Baqtriya, So'g'd va Marg'iyona

xalqlari madaniyatidan baxramand bo'ldi.¹

¹ Профессор: Х.Хамидовнинг «Шаркнинг серкирра иждокорлар»и номли мақоласидан фойдаланилди.

II-BOB. MARKAZIY OSIYO MADANIYATIDA CHOLG'U SOZLARNING TO'TGAN O'RNI

2.1. Sharqda islom va musiqa

Ibn Sino zamondoshi, suriyalik shoir va mutafakkir al-Maarriy (979-1057)ning musiqa va uning inson ruhiyatiga ta'sir qilishi haqidagi fikrlari shoirning «Rislatu-l-gufron» asaridagi rivoyatlarda o'z ifodasini topgan.

Jannat go'shalarida safarda yurgan shayx odamlardek so'zlashuvchi g'ozlarni uchratib, hayrat aralash ulardan: «Bu yerda nima qilib yuribsizlar? - deb, so'raydi. Shunda ular mana shu o'tloqqa tushib ibodat qilayotgan dugonalarimizga ashula aytib berishimiz buyurilgan» - deyishadi. Birdan g'ozlar silkinishib, jannat libosidagi to'lishgan qizlarga aylanishadi. Ularning qo'llarida turli-tuman cholg'u asboblari paydo bo'lib qoladi. Xudoning amridan shayx hayratga tushadi. Shayx shu yerda o'tirgan shoirlardan Abu Umam she'rini kuyga solishlarini so'raydi. G'oz-qizcha ud torlarini asta chertib, shunday ashula boshlaydiki, uning ovozidagi quvonch va shiddat har bir eshituvchi qalbiga oqib kira boshlaydi. Agar o'tirganlar jannatiylar bo'lmay, tosh yoki yog'ochdan yasalgan butlar ham bu ovozlarda ta'sirida o'yinga tushib ketgan bo'ladilar.

Shayx iltimosiga ko'ra, g'ozcha-qiz kishi yuragini yumshatuvchi ashula aytadi: «Axir sen ulug' san'atkorsan, ashulalarning dardini qochiradi, uyquni va lanjlikni yo'q kiladi», - deydi.¹

Shayx g'oz-qizlarning odamzod qalbiga quvonch olib kiradigan kuy va qo'shiqlaridan behad mamnun bo'lganini xikoya qiladi.

Al-Maarriy majoziy voqyealar tavsifida bo'lsa ham musiqaning juda katta ma'naviy kuchini, odamlar ruhini, kayfiyatini o'zgartirib yuborish xususiyatiga ega ekanligini ta'kidlaydi. Buni u badiiy obrazlar orqali ifodalashga muvaffaq bo'ladi.

Bir o'rinda Al-Maarriy Makkaga yaqinlashgan ziyoratchilarning ikkita qul ayollarning ashulalarini tinglab, Ka'baga ziyorat qilishni ham unutib qo'yganlarini

¹ Абу-ль-Аля Аль-Маарри. Избранное. -М.: Художественная литература. 1990 год. 197-198 стр.

xikoya qiladi.¹

Bu xikoya orqali shuni anglash mumkinki, musiqa inson uchun eng aziz va mo'tabar. sanalmish xodisalardan ham judo qilib qo'yishini yoki eng og'ir va mushkul holatlarda unga yo'ldosh bo'lishga qodir ma'naviy ne'mat bo'lishi ham mumkin.

Zayniddin Muhammad G'azzoliy (1059-1111) ham ma'naviy barkamol inson tarbiyasiga doir juda ko'p fikr-muloxazalar qoldirilgan. U faylasuf olim bo'lish bilan birga tasavvuf ta'limotining yirik namoyandalaridan biridir.

Al-G'azzoliy o'zining «Kimyoviy saodat» asarida inson tabiyati, dili va ruhiyatini poklantirish, tarbiyalashning o'z davriga nisbatan ancha mukammal tizimini ishlab chiqadi.

Unda inson ma'naviyatini yuksaltiruvchi omillarni birma-bir sanab yozadi: «Har nimarsaning saodati ul nimarsadurkim, lazzati va rohati o'shandadir va har nimarsaning lazzati aningdadurkim, ta'bi ani taqozo qilg'ay... Ko'zning lazzati zebo surat va oftob talantiga nazar solg'ondadir va quloqning lazzati laxni xush va ovozi dilkashning eshitmoq birla bo'lur».²

G'azzoliy bevosita musiqa va uning tarbiyaviy axamiyati haqida gapirmasa ham musiqani qabul qilish jarayonida estetik idrok etish va estetik zavq olish bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Musiqa ohanglari quloqni «yirtib» tashlaydigan, asabni o'ynatib, dilni vayron qilganda emas, insonga xush yoqib, dilkash ovoz sifatida ta'sir qilganda badiiy-estetik axamiyat kasb etishi mumkin, degan xulosa chiqarishga da'vat etadi.

Islomda san'atga, musiqaga nisbatan munosabat haqida fikr yuritishda qalamkash Nafas Shodmonovning «Tafakkur» jurnalida e'lon qilingan, «Musiqa - uyg'onish demak» nomli maqolasini to'laligicha keltirishni lozim deb bildik. Zero maqolada biz ko'targan mavzu xolisona ham ijobiy, ham salbiy munosabatlar mushtarakligida asosli bayon etilgan.

Milliy madaniyatimiz islomiy g'oyalar bilan chambarchas bog'lanib ketgani sir emas. Binobarin, uning muxim bir qirradi - musiqa hamda musiqa ilmining qadimiy an'alarini bor jozibasi, bo'y-basti bilan tiklashda islomni chetlab o'tib

¹ Абу-ль-Аля Аль-Мааррий. Избранное. -М.: Художественная литература. 1990 год. 212-стр.

² Зайнидқин Муҳаммад Ғаззолий. Кимёвий саодат. -Т.: «Камалак». 1995 йил. 34-бет.

bo'lmaydi.

Istiqlol sharofati bois diniy erkinliklardan baxramand bo'layotgan xalqimiz endi musiqaga nisbatan qanday munosabatda bo'lish lozimligini ham bilishi darkor. Bu ma'lum ma'noda islomiy ta'lim ko'rgan yoki shu dinga e'tiqod qo'ygan ba'zi yoshlarimiz tarbiyasida ayniqsa, zo'r axamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, tarixda musiqaga munosabat masalasida musulmonlar orasida ayrim ixtiloflar mavjud bo'lgan. Bu borada islom olimlarining xulosalari taxminan quyidagicha:

- a) Har qanday musiqaning ijrosi va istimosi (tinglanishi) mutlaqan xarom xukmida;
- b) Qurollar bilan kuylash va o'ynash (raqsga tushish) xarom qolganlari mubox xukmida;
- v) Mutlaqo mubox;
- g) Muboxgina emas, balki mustaxab xukmida.

Ushbu nuqtai-nazarlar soxiblarining har biri fikrining isbotu dalillarini aytadi va muxoliflari keltirgan gaplarni rad qiladi. Albatta, baxsda taraflar nima qilib bo'lsa ham yutib chiqishga urinadilar, bu urinishlar ko'pincha xayajon, jazava bilan uyg'unlashadi va shubxali asoslarning ham dalillar sirasiga kirib kelishiga sharoit tug'diradi. Shuning uchun ham bu masalaga jiddiy yondashish, dalillarni taxlil etishda ularning eng ishonchlilarini asos qilib olish lozim. Shuning uchun, ba'zi olimlarning aqdi asoslangan ijtixodiga, xususiy fikrlariga tayanib, jami islom axli bilan muxolifatga borishi xayrli oqibat emas.

Oллоh har bir xilqatni yaratar ekan, uning sirli botinidan albatta zoxirida nishonalar bergan. Bu nishonalar uning quvvati, qobiliyati, extiyoji kabi ma'naviy omillardan dalolatdir. Inson ana shunday nishonalaridan ba'zilarini xamisha bo'rttirib ko'rsatishga, ayrimlarini esa pinxon tutishga intiladi. Musiqa ana shunday sirli nishonalardan biridir. Uni bo'rttirish yoki pinxon tutishda ham shubxasizki, nedir xikmat bor.

Mashxur adib Chingiz Aytmatov musiqaga bunday ta'rif beradi: «Hayot, o'lim, muhabbat, shavqat va ilhom - hammasini musiqa aytadi, zotan, biz musiqa vositasida eng oliy xurlikka erishamiz, bu xurlik uchun esa ongimiz yorishgan zamonlardan to

hozirgacha - butun tariximiz davomida kurashganmiz, lekin unga faqat musiqa vositasidagina yetishganmiz. Faqat musiqagina zamonlarga xos aqidalarni yengib o'tib, mudom kelajak sari intiladi...». Bu ta'rif Jaloliddin Rumi asos solgan mavlaviya taraqqiyoti g'oyalarini to'ldirgandek bo'ladi: «Dunyoda xech narsa musiqiy va raqs yanglig' inson ruhining yashirin quvvatlarini oshkor etolmas, musiqiychalik uni mayda-chuyda turmush tashvishlaridan xalos etib, o'z ruhiy odami sari boshlay olmas... Musiqa xotin kishiga o'xshaydi. Uni cho'ri deb istifoda etarkansiz, o'zingizda insonni uxlatib, hayvonni uyg'otasiz. Lekin uni sevishingiz, unga birikib, bir to'lqinda oqishingiz, shu yo'sinda ruhiyatingizdagi chin insoniy mohiyatni uyg'otish uchun ilk qadam qo'yishingiz ham mumkin... Samo' - uyg'onish...».

Bu iqtiboslar islomiy xukmlar uchun yetarli darajada ishonchli xujjat hisoblanmasa-da, inson xilqatiga xos xususiyatlarni oydinlashtirish nuqtai-nazarida qimmatlidir.

Asosiy xujjat sifatida esa, Qur'oni Karim oyatlari, xadis, ijmo' va qiyosni tan olamiz. Mabodo ulardan birida dalolat mavjud bo'lmasa, ikkinchisida bo'lmasa, uchinchisidan izlanadi. Qur'oni Karimda musiqani eshitish mumkin yoki mumkin emas degan oyat yo'q. Ba'zi olimlar mutashobix oyatlardan xulosa chiqarmoqchi bo'ladilar. Ammo bu maqbul ish emas. Chunki, «Oliy Imron» surasining 7-oyatida bunday deyiladi: «U sizga kitob nozil qilgan zotdirki, u (Kitobdan) shu kitobning asl mohiyati bo'lgan muxkam aniq-ravshan oyatlar ham va boshqa (qiyomat, jannat, do'zax va hokazolar haqidagi) mutashobix -tushunish qiyin bo'lgan oyatlar ham o'rin olgandir. Endi dillarida haq yo'ldan OG`ISH xissi bo'lgan kimsalar odamlarni aldab fitnaga solish va o'z havoyi nafslariga muvofiq ta'vil-tavsir qilish uchun uning mutashobix oyatlariga ergashadilar. Holbuki, unday oyatlarning ta'vilini yolg'iz Olloh bilir...».

Musiqa sasini tinglash xarom degan da'voni aql bilan isbot qilib bo'ladimi? Yoki, bunga shar'iy dalil bormi? Fatvo kitoblarida keltirilgan fikrlar sira dalil bo'lolmaydi. Shuning uchun taxmin yoki «falon olim unday degan, falon olim bunday degan» kabi naqlar, rivoyatlar kofiy emas. Yuqorida aytganimizdek, oyat yoki xadis kabi qat'iy dalil keltirmas ekan, nimaga asoslanib musiqani xarom

deyish mumkin.

Imom Buxoriyning «Al-Jomi' as-Saxix» (Ishonchli to'plam) kitobining 3-jildida quyidagi ikkita xadis bor: «Rabi' binti Muavviz ibn Afro' (payg'ambarimizning zavjai poklaridan) rivoyat qiladilar: «Janob Rasululloh menga qo'shilmoq bo'lib xuzurimga kirganlarida, hozir sen o'tirganingdek to'shagimga o'tirdilar. Joriya qizlarimiz doira chalib, Badr g'azotidan shaxid bo'lgan ota-bobolarim» haqida, yig'lab kuylay boshladi». Ulardan biri: «Bizning oramizda payg'ambar hozirlar, u zot ertangi kundan boxabarlar», - deya, kuylar edi. Shunda u zot: «Bu qo'shig'ingni bas qilgin, avvalgi qo'shig'ingni aytavergil!», - dedilar. «Hishom ibn Urva» rivoyat qiladilar: «Oysha Roziyallohu anho bir kelinni, bir ansoriy kuyovning xuzuriga kuzatib qo'ydilar». Janob Rasululloh: «Ey Oysha, musiqa chalib o'yin-kulgi bilan kuzatib qo'yinglarmi? Ansorlar musiqa chalib o'yin-kulgi qilishni xush ko'radilar», - dedilar.

Bu ikki xadisda musiqa tinglash man qilinmaydigina emas, balki o'yin-kulgiga targ'ib ma'nosi bor. Rasulullohning iyd kuni Oysha onamizga musiqa tinglashni man qilmaganlari to'g'risida ham xadis borligi ma'lum. Xo'sh, unda musiqani xarom deyishga sabab nima? Bunga xajv, xazil hamda sharmsiz so'zlarni so'zlashga musiqa bir vosita bo'lish mumkinligi; musiqa mavzun va sajli bo'lib, unda lazzatbaxshlik xususiyati mavjudligi; aksar san'atkorlik da'vosida bo'lgan kishilarning tarjimai hollarida ko'pincha qusirlar bo'rtib turishi kabi extimollar asos bo'lgan.

Keling, endi ushbu extimollarni taxlil qilib ko'raylik.

Xajv, xazil yoki sharmsiz so'zlarni so'zlashga musiqa vosita bo'lmasligi ham mumkin. Shuning uchun xajv va xazilni sharmsiz so'zlar qatorida tushunish unchalik to'g'ri emas. Rizouddin bin Fazriddin: «Javomi' ul-Kalim sharhi»da «Inna minal-bayoni sexran va inna mina-sh-she'ri xikaman» (ma'nosi: ba'zi bayonda (nutqda) sehr (jalb etish) va ba'zi she'rda xikmat bor) xadisni sharxlar ekan, she'rdan ko'ra nasrda xajv, faxsh so'zlarning ko'pligi, agar bunday so'zlar sababli she'r xarom bo'lsa, yaxshisi, gapirmay jim turish lozimligini ta'kidlagan.

Mavzun va sajli narsalarni ham xarom deyishga asos yo'q. Mavzun va sajli she'rlar Rasululloh xuzurida ko'p bor o'qilgan. Rizouddin bin Faxriddin Termiziy bunday rivoyat qiladi: «Rasululloh majlislarida yuz martadan ziyod ishtirok etdim, bu majlislarda

saxobalar she'r o'qib, joxiliyat davridagi voqyealardan muzokara qilardilar. Rasululloh ularni tinglar va ko'pincha tabassum qilib o'tirar edilar». Sadixi Buxoriydan ko'chirilganiga ko'ra, Rasululloh Xison ismli shoirga: «Yana o'ki, Jabroil farishta sening birla barobardur», - degan ekanlar. Muhammad Alayxissalomning bir shoirni Jabroildek ulug' farishtaga tenglashtirishlari xazil gap emas.

She'r - boshqa, kuy - boshqa degan fikrda yurgan kishilar mumtoz arab she'riyatining salmoqli qismi aruz vaznida yozilganidan, extimol, bexabardirlar. Aruz vaznida bitilgan she'rlar misralardagi xijolarning miqdori bilangina emas, balki ularning sifati, ya'ni cho'ziq va qisqaligi bilan ham xoslanadi. Cho'ziq-qisqa xijolarning bir xilda - muayyan nizom asosida takrorlanishi ohangdorlikni vujudga keltiradi.

Ko'p asrlar mobaynida she'riyatimizni aruz vazni yetakchi o'rin tutib keldi. O'tgan asrlarda, xatto yaqin o'n yilliklargacha bu vaznda yozilgan bayozlarning o'ziga xos o'qilish an'anasi mavjud edi. Kamina 70-yillarning boshlarida ana shunday an'anaga muvofiq she'rxonlikka guvoh bo'lgan edim. G'azallar, masnaviyalar, murabba' va muxammaslar shunday jozib ohanglar bilan o'qilardiki, muxlislar ko'zda yosh bilan tinglar edi. Ular she'rxonlikdan keyin ham allaqanday kuylarni emas, purma'no baytlarni xirgoyi qilib yurardilar. Bunday she'rxonliklarning ildizi Rasululloh davrlaridan boshlanmaganmikan? Axir, bizning mumtoz she'riyatimiz arab she'riyati ta'sirida vujudga kelganiga shubxa yo'q-ku!

Demak, she'r ham, kuy ham mavzun (muayyan vaznli). Ularning biri xarom, biri mubox bo'lishi mumkin emas. Qolaversa, Olloh taolo bir talay parrandalarni ham mavzun va sajli kuylaydigan qilib yaratgan. Yaxshi kuy qushiqlarning xandon sayrashiga tenglanishi bejiz emas.

Lazzatbaxshlik haqida shuni aytish mumkinki, islom dini hamma lazzatli narsalarni ham xarom qilmagan. Masalan: uyqu kishiga lazzatbaxsh etib, ruhni ma'lum vaqt g'afolatga tutadi. Lekin inson uyqusiz yashay olmaydi. Boshqa ba'zi lazzatbaxsh holatlar ham shunday. Binobarin, ularning barchasi birday xarom emas. Demak, bu boradagi da'volar ham asossizdir.

San'atkorlik da'vosida bo'lgan aksar kishilarning tarjimai hollarida qusur bo'lishi ham musiqani xarom deyishga sabab bo'lolmaydi. To'g'ri, bu qavm

orasida hayotga yengil qarovchilar boshqa kasbdagilarga nisbatan ko'proq uchrab turadi. Biroq buni xudosizlik tarbiyasi oqibatidagi bir hol deb qarash joiz. Ayni paytda iymonli, ilmi musiqashunoslar ham ko'pligini unutmasligimiz lozim.

Islom xukmron bo'lgan Sharq mamlakatlarida bir necha asr davomida yuzlab musiqiy risolalar yozildi. Ularni Kindiy, Forobiy, Ibn Sino, Urmaviy, Marog'iy, Jomiy, Xusayniy, Kavkabiy, Darvesh Ali Changiy kabi ma'lum va mashxur olimlar yaratdilar. Ularning ta'kidlashicha, musiqa - ilohiy ne'matdir, uning yaralishi - inson ruhidagi harakatning namoyon bo'lish xodisasidir. Hali xech narsaga aqli yetmaydigan go'dakka alla eshitishga moyillik bo'lishi yoki musiqa eshitishi bilan oyoq-qo'llarini silkiy boshlashi o'sha xodisadan darak.

SHu o'rinda taniqli olim Isxoq Rajabovga shoir Zokirjon Xabibiy so'zlab bergan bir rivoyat esga tushadi.

Qadim zamonlarda bir podshoning merosxo'ri bo'lmagan ekan. Lekin dono vaziri bor ekan. U yangi podshoning taxtiga o'tirishi saroyda katta janjalga sabab bo'lishini bilar ekan. Shuning uchun shaharga jarchi qo'ydirib, podsho o'lgan kuni tug'ilgan o'g'il bolalarni saroyga yig'diribdi. So'ngra xuzuriga sozandalarni chorlashni buyuribdi. Bolalar yig'lay boshlagan onda musiqa chaldirib, mulozimlarga yig'idan birinchi to'xtagan bolani tanlab berishni so'rabdi. Taklif ado etilibdi. Vazir ayonlarga murojaat etib: «Shu go'dak podsho bo'ladi. Chunki bu bolada tug'ma xis-tuyg'u bor. Bola ulg'aygach, aqli, xalq axvolini, uning arzu dodoni ziyraklik bilan xis qiladigan odil podsho bo'ladi», - debdi.

Yana ayrim bir rivoyatlarga qaraganda, inson tanasiga jon musiqa sadolari vositasida jo etilgan ekan. Albatta, bir qarashda bu gapga ishonish qiyinroqdek tuyuladi. Lekin kiyomat kuni barcha o'lik maxluqlar Isrofil Farishta suri sasi ostida qayta tirilishiga xujjat bor: «Va nufixa fis-suri faizaxum mina-l-ajdasi ila robbixim yansilun». (Ma'nosi: qiyomat soati kelib farishta Isrofilning suri chalinishi bilan banogoh ular qabrlaridan parvardigorlari (xuzuriga hisob-kitob uchun) sug'urilib chiqurlar). «Yosin» surasi, 51-oyat. Oyatdagi «Nufixa» kalimasi majxul nisbatdagi «puflanmoq» ma'nosini bildiradi. Puflab chalinadigan asboblar qadimda «zavotu-n-nafx» deb atalgan. Mantiqan ma'lum bo'ladiki, surga puflab o'lik tanlarga jon ato kilinar ekan.

Abduraxmon Jomiy musiqani man etuvchilarga aynan shuni ishora qiladi:

Ma'ni samo'ki mikunad, fakix,

G'ofil az sur va nufixat fix.

Ma'nosi: Ey fahih, samo'ni man kiluvchilar sur va unga puflanishidan g'ofildir.

. Darxaqiqat, musiqaning xarom qilingani to'g'risida Qur'on yoki xadisda dalil yo'q. Mashxur mazxablarning peshvolari ham bunga qat'iy xukm aytmaganlar.

Rasulullohning tuy va iydlarda musiqani man etmay, uni targ'ib etgani xaqiqat ekan, uni xarom deyishga asos yo'q.

Islom dini peshvolari ham musiqaga xayrixoh bilganlar. Ulardan Abdulloh Dehlaviyning faoliyati, ayniqsa, ul zotning «Taxiku-s-samo'» asari bilan musiqa xomiysi sifatida namoyon bo'lishi diqqatga loyiq. To'g'ri, u musiqaning hamma turini yoqlamaydi. Olimning fikricha, musiqa dunyoviy ayshu ishratlar doirasida bo'lar ekan, u xaqiqatdan inson ruhini g'aflat va befarqlikka chulg'aydi. Ogoxlikdan benasib etadi. Dehlaviyga ergashgan ulamolar nazdida «ayshu ishrat sozi - shaytonning namozidir».

Samarqandda dinning ustunlaridan biri deb nom olgan mashxur so'fiy Xoja Ubaydulloh Axror dargoxida bir talay musiqa ixlosmandlari bo'lgani tarixdan ma'lum. Darvesh Ali Changiy o'zining «Tuxfatus-surur» deb nomlangan risolasida bir necha musiqashunoslar, jumladan, Darvesh Axmad Qonuniy, Sulton Axmad, Mavlono Xisobiy kabi zotlar Xoja Ubaydulloh Axror dargoxida Jaloliddin Rumi, Qosim Anvar singari shoirlarning she'rlariga kuy bastalab, nash'u namo topgani haqida to'xtaladi.

Bahouddin Naqshband tariqatida bo'lgan ba'zi olimlar, masalan, So'fi Ollohyor «Quloq bergan tag'anniyu navoga, ko'ngil bergay'xavas birlan havoga» deya samo'ga muxtalif so'z aytsa ham, mashxur mutasavvufning o'zi kuy tinglagani zikr etilgan manbalar anchagina.

Alisher Navoiy «Nasoyim-ul muhabbat» asarida zikr qilinishicha, avliyo Xirmoniy: «Rubob uni - bexisht eshigining kaliti», - degan ekanlar.

Xoja Ahmad Yassaviyning zikrlari haqida ham shunday fikrlar aytish mumkin.

Genri Jorj Farmer «Arab musiqasi manbalari», - degan kitobida arab musiqasi iborasini, islom musiqasi iborasi bilan birga ishlatadi. Demak, xalqaro tushunchalarda

ham islom musiqaga qarshi deb qaralmaydi.

Musiqa haqidagi ushbu da'volarni hamma holatlar uchun mutlaq deb bilmaslik kerak. Musiqa tinglash umumiy holda muboh. Lekin u gunoh amallar, faxsh ishlarga ibtido, vosita qilinsa - xaromdir. Bu - gunoh ish qildirish uchun birovga halol luqma yedirib, gunohkor bo'lishdek gap.

2.2 Sharq mutafakkirining musiqa haqidagi fikrlari.

Forobiy qomusiy olim bo'lishi bilan birga buyuk musiqashunos ham edi. Forobiy musiqasining aksariyat hollarda insonning nozik sezgilari, tug'ma iste'dod va salohiyatlarining mevasi ekanligini ta'kidlash bilan barobar, uning, o'z navbatida, inson ma'naviyati va ma'rifatini, ongi va tushunchalarini to'ldiruvchi ruhiy ne'mat ekanligini o'qtiradi. «Is'haq ibn Ibroxim al-Mavsimiy aytganki, «kuylar erkaklar to'kigan va ayollar bezagan gilamdir» (matnda - «mato»). Ushbu xay'atdagi ma'rifat ham xis bilan sezilishga yaqin bo'lgan holdagi vujud ma'rifati yoki (boshqacha aytganda) uni sezgi orqali topish mumkin bo'lgan mazmun ma'rifatidir».¹

Forobiy kuylarning turlari va ularning inson ruhiyatiga ta'siri haqida gapirib, ularni uch turga ajratadi: ko'ngilga lazzat va rohat bag'ishlovchi; boshqasi birinchi tur kuylar bilan qo'shilib, ko'ngilni taxayyul bilan boyituvchi; uchinchi xil kuylar esa hayvonlarning lazzati va aziyati bilan bog'liq infiolot va axvol hakidagi mazmundan tarkib topadi.

Forobiy qarashlariga ko'ra, barcha tabiiy va sun'iy tovushlar, xissiyot va kechinmalar moxiyati, mazmuni inson kamolotiga, idrok quvvatiga bog'liq bo'ladi. Forobiy sozanda, bastakor, musiqa asboblari ustasi sifatida musiqa tarixida ham o'z o'rniga ega.

Ayniqsa, uning «Kitob al-musiqiy al-Kabir» («Katta musiqa kitobi») olim nomini musiqa nazariyotchisi va amaliyotchisi sifatida faqat Sharqqa emas, G'arbgga ham ma'lum qildi.

Avvalo, Forobiy fanlar tasnifida musiqani matematika ilmi tarkibiga kiritadi.

Forobiy «Ixso al-ulum» asarida esa musiqa ilmini quyidagicha ta'riflab: «Musiqa ilmiga kelganda qisqacha shuni aytish mumkinki, u ohanglarning turlarini, ularning tuzilishi nimalardan iborat ekanligi va qaysi yo'llar bilan tashkil topishi hamda qanday hollarda o'tkir va ta'sirchan bo'lishini o'rganadi»,² - deydi va musiqa ilmini amaliy

¹ Абу Наср ал-Форобий. «Китабул-муסיка аль-Кабир». Арабчадан АФ.Назаров таржима килган. -Т.: Қатартол. Камалак. 1997 йил. 14-15 бетлар.

² Форобий рисолаасидан намуналар. М.Хайруллаев. «Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккири китобига илова». -Т.: Ўзбекистон. 1971 йил. 295-бет.

hamda nazariy kislarga ajratadi.

«Kitob al-musiqiy al-Kabir» kitobining birinchi kitobida musiqiy bilimlarning usul-qoidalari va unga bog'liq bo'lgan turli narsalarni o'rganish; ikkinchi kitobda zamonaviy musiqa asboblari va ulardan foydalanish yo'llari, uchinchisida esa, tovushlarning turlari haqidagi fikr bayon etiladi.

Olim musiqa ilmini inson bilimlari tizimida tutgan o'rnini, boshqa ilmlar bilan aloqasini, musiqiy tovushlarning vujudga kelishi va rivojlanishini taxlil etar ekan, musiqa san'atining axloqiy estetik jixatlari haqida ham o'z qarashlarini bayon etadi.

Masalan: «O'zbek musiqasi tarixi» o'quv qo'llanmasida Forobiyning tovushlarning harakteriga ko'ra musiqa asboblari xilma-xil rol o'ynaganligi haqidagi fikri keltiriladi: «Janglarga mo'ljallangan cholg'u asboblari mavjud, ularning ovozi baland va keskin. Ziyofat va raqslar uchun, to'y va quvnoq yig'ilishlar uchun, muhabbat qo'shiqlari uchun ham maxsus cholg'u asboblari bor. Ayrimlarining tovushi keskin va xazin bo'ladi; bir so'z bilan aytganda ular shunchalik xilma-xilki, hammasini sanab o'tish qiyin».¹

Forobiy musiqa san'atini insonning axloqiy-estetik takomili bilan birga, ilmiy bilimlar tizimida ham katta axamiyatga ega ekanligini ko'rsatib berdi.

Bu borada M.Xayrullayev Forobiyning musiqa sohasidagi tadqiqotchilar oldiga qo'ygan talablarini keltiradiki, mazkur talablarni bajarish har bir ilm odami uchun zarur sanaladi:

«Nazariy bilimlardan xabardor bo'lgan yetuk san'atkor qaysi bilimda bo'lmasin, shu uch narsaga ega bo'lishi kerak:

1. Har bir bilimning usul va qoidalarni to'la bilishi lozim.

2. Shu bilimning turli holatlarida hosil bo'lgan usul va qoidalarning natijalarini sharh va izoh etishga qobil va iste'dodli bo'lishi kerak.

3. Musiqa (san'ati) haqida noto'g'ri nazariyatga ega bo'lgan yozuvchilarning noto'g'ri nazariyalarini tanqid eta bilsin, xato va to'g'ri nazariyalar o'rtasidagi farqni ko'rsata bilsin».²

¹ Узбек музикаси тарихи. «Музика олий ўқув юрларининг студентлари учун қўлланма». Тузувчи: Т.Е.Саломонова. -Т.: Ўқитувчи. 1981 йил. 11-бет.

² М.Хайруллаев. «Юқорида кўрсатилган асар». -Т.: Ўзбекистон. 1971 йил. 156- бет.

Ko'rinib turibdiki, Forobiyning «Kitob al-musiqiy al-Kabir» asari ham nazariy, ham axloqiy-estetik jihatdan qimmatga ega bo'lib, insonning ham aqliy, ham nafosat tarbiyasida katta rol o'ynaydi.

Musiqqa tushunchasidan fikrimizda birinchi tasavvur etiladigan narsa ohangdir.

Ohang yo bir necha tovushlarni belgili va ajratilgan holda ketma-ket bayon etish yoki bir necha ohanglarni tartibli ravishda zehnga ta'sir etadigan va turli ta'sir kuchiga ega kuylarni ma'lum g'oyaga xizmat kiluvchi so'zlarda, iste'mol bo'ladigan qilib birin-ketin bayon etishdir. Chunonchi, inson bir turli sado - ohang vositasi bilan o'z fikrini bayon qilib, dilidagi xis-tuyg'uni va muloxazasini boshqalarga yetkazadi.¹

Kunlardan bir kuni Forobiy Sohib Obbod sharafiga berilgan bazmga kirib boribdi. Xech kim uni tanimas ekan. Forobiy bazmga kirib, bir chekkada jim o'tiribdi. Chamasi, biror soat o'tgandan so'ng musiqqa asbobini qo'lga olib, ajoyib bir kuy chala boshlabdi. Kuyning birinchi qismini chalganda atrofda g'ildirakning hammasi nixoyatda xursand, kayfiyatlari chog' bo'libdi. Kuyning ikkinchi qismini eshitib, nixoyatda ma'yus holatga tushibdilar, yig'lab ko'z yoshi to'ka boshlabdilar. Kuyning uchinchi qismi ijro etilganda, hammalari xayajonga tushibdilar, so'ngra esa uxlab qolibdilar. Shunda mehmon cholg'u asbobining dastasiga: «Forobiy keldi, shu yerda bo'ldi-yu, ketdi», - deb yozib ketibdi.

Abu Ali ibn Sino uchun musiqqa ham inson ma'naviyatini shakllantiruvchi, ham bu ma'naviyatning axloqiy-estetik mezoni hisoblangan. U o'zining «Ash-Shifo» asari muqaddimasida inson ma'naviyatini ifodalashda tovush va inson sezgilarining madaniylashuvi haqida muloxazalar yuritadi. U musiqqa paydo bo'lishining asosiy sabablaridan biri odamlar orasidagi ma'naviy extiyoj ekanligini, inson musiqqa orqali o'z kayfiyati, ruhiyatida sodir bo'layotgan xodisalardan boshqalarni ogoh etishini, musiqqa shu tufayli odamlarning madaniy hayoti o'zaro «o'rtoq»lik, bog'liklik hayotining ifodasi bo'lishini ko'rsatadi.

Ibn Sino musiqqa san'ati odamlarning ma'naviy kamolotida katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. U tovush va nutqni inson kamolotining ramzi sifatida tushunadi. Musiqani kishilarga ruhiy ozuq beruvchi, jaxolat va nodonlikdan qutulishda

¹ Форобий. «Узбекистон» санъати. 1979 йил. №9. 26-бет.

najot bo'lishini ko'zda tutgan Ibn Sino o'z asarlarini «Ash-Shifo», «An-Najot», «Donishnoma» deb atashi bejiz emas.

Ibn Sino musiqaga doir risolalarini aloxida risolalaridan tashqari boshqa sohalarga, ayniqsa, tibbiyot ilmiga bag'ishlangan asarlarida ham bayon etgan. U «Tib qonunlari»da yozadi: «...bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun, unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri, bolani asta-sekin tebratish, ikkinchisi, uni uxlatish uchun aytish odat bo'lib qolgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badantarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo'lgan iste'dodi hosil qilinadi».

Demak, musiqa odamni nafaqat jismoniy jixatdan, balki ma'naviy barkamol qilish uchun xizmat qiladi.

Ibn Sino zamondoshi, suriyalik shoir va mutafakkir al-Maari (979-1057)ning musiqasi va uning inson ruhiyatiga ta'sir qilinishi haqidagi fikrlari uning «Risolat-ul-gufron» asaridagi rivoyatlarda o'z ifodasini topgan. Uning fikricha ashula, kuy «dardni qochiradi, uyquni va lanjlikni yo'q qiladi».

Ibn Sino musiqani nazariy va amaliy jixatdan Arastu darajasida bilganligi natijasida o'zining «Risolai musiqa» asarini yozadi. U o'rta asr musiqachiligiga o'zining ulkan xissasini qo'shadi. Ibn Sino o'zining «Kitob ush-Shifo», «Donishnoma», «Kitob un-Najot» deb atalgan asarlarida falsafa, tibbiyot, odob-axloq, psixologiya, dorishunoslik fanlari bilan bir qatorda musiqa ilmiy qonuniyatlariga ham jiddiy e'tibor qaratadi.

Olimning musiqa sohasidagi qarashlari uning ajoyib, mukammal asari «Kitob un-Najot»da atroflicha, yanada chuqurroq darajada rivojlantirgan.

Ibn Sino musiqa faniga atab yozgan asari haqida shunday deydi: «Bu yozgan asarimda ajdodlarimiz xikmatlaridan besh nuqtasi jamlangan bo'lib, besh nuqqaning to'rtinchisi «Musiqa ilmi»dir». Olim mazkur asarda ovozlarning yoqimli va yoqimsizligi sabablarini ochishga harakat qilgan.

Abu Ali ibn Sinoning musiqa tarixiga bag'ishlangan asarlari XI-XII asrlardayoq Yevropa xalqlari tiliga tarjima qilinib, maktablarda darslik sifatida o'rganilgan.

Ibn Sinoning durdona asarlari ichida musiqa faniga bag'ishlangan ilmiy kuzatishlari va umumlashmalari o'zining qadimiyligi, turli tadqiqotlarga asoslanganligi bilan

umrboqiydir.¹

Jumladan, rivoyatda quyidagicha ta'kidlanadi: «Hamadonning sokin oqshomi boshlandi. Osmon moviy tusga kirdi. Qushlar tunash uchun joy qidirib uchib o'tishdi. G'ijjak Abu Alining qo'lida daraxt barglarini shildiratib o'tgan yengil shabada kabi mayin kuylardi».

Ibn Sino sehrli kuy ta'sirida sarxush bo'lib, xamon g'ijjak chalardi, bu yerda oy chiqib, avval daraxt uchlariga, so'ngra butun borliqqa nur taratdi. Agar ichkaridan xizmatkor chiqib, kechki taomga taklif etmaganda, ustoz va shogird -mohir sozanda-yu, ziyrak shinavanda yana uzoq vaqt bu husunkor kuylar sexridan qutulolmas edilar. Shundagina Abdulvoxid boshini ko'tarib, sekin shivirladi: «Bu bilan ruxni davolash, har qanday g'amu-g'urbatdan tasalli topish mumkin, ustoz!».²

Musiqaning inson ma'naviyatida tutgan o'rniga aloxida axamiyat bergan Sharqning axli donishlari kuyning ta'limiy, tarbiyaviy ta'sir kuchiga tayangan holda, avvalo, xofiz va sozandaning xulq-atvori diyonat, ezgulik hamda nafosat mezoniga aylanmog'i kerak deb qaraganlar.

Musiqaning inson ma'naviyatiga ta'siri juda qadimdan Sharq mutafakkirlari va musiqashunoslari fikrini band qilgan. «Arablar faylasufi» al-Kindiy musiqani koinot garmoniyasi, inson ruhiyati garmoniyasiga qiyosan o'rganadi, insonni jismoniy va ma'naviy sog'lom qiluvchi omil sifatida idrok etadi. U musiqaga doir risolalarida kuy, rang va xidlarni estetik idrok etish jarayonidagi mushtaraklikni aniqlashga ham axamiyat beradi. Al-Kindiy Sharq olimlari orasida birinchilardan bo'lib musiqaning nazariyasi haqida risolalar yozibgina qolmay, musiqaning badiiy-estetik va tarbiyaviy jihatlariga ham katta e'tibor berdi.

Rivoyatga o'xshab ketadigan, aslida esa bo'lib o'tgan bu ayanchlik voqyea, ming yildan oshsa hamki, arab xalqlari orasida xamon og'izdan-og'iz ko'chib yuradi, xatto uni ko'pgina tarixiy kitoblarda ham uchratish mumkin.

Qadim zamonlarda Arabiston mamlakatida bir boy o'tgan ekan. Uning yolg'iz o'g'li endi voyaga yetganda, bir bedavo dardga chalinibdi-yu, qo'l-oyog'i shol bo'lib, xatto

¹ А.Аминов. «Алломанинг мусиқа мероси». Ўқитувчи газетаси. 1980 йил. 2 июль. 3-бет

² Мусиқа сеҳри. (Туплаб, қайта нашрга тайёрловчилар: З.Эгамбердиев, З.Эгамбердиева). -Т.: Уқитувчи. 1985 йил.

tildan ham qolibdi. Boy o'g'lini ko'rsatmagan qo'li yengil tabibu, dami zo'r azayimxon qolmabdi, lekin hech kim bolaning dardiga shifo topolmabdi. Shunda tanishlaridan biri boyga maslaxat berib, o'g'lingizni bog'doddik xakimga ham ko'rsatingchi, shoyad bir muolajasini topsa, debdi. O'g'lining sog'ayib ketishidan umidini uzgan ota quvonib, haligi xakimni uyga taklif qilibdi. Xakim kasalning tomirini ushlab ko'ribdi-da, so'ngra o'zining nag'ma chaladigan shogirdlaridan birini chaqirtirib kelibdi. Mashshoqni bemorning bosh tomoniga o'tkazib qo'yib, kishini zavklantiradigan bir mashq chalishni buyuribdi, o'zi bo'lsa bolaning qo'llarini ushlab, tomir urishini kuzatibdi. Oradan ko'p o'tmay, kuy ta'sirida bola bezovtalanibdi, asta-sekin harakatga kelibdi, keyin qaddini rostlab o'tiribdi. Tili gapga kelib, atrofida o'tirganlarga so'z ham qotibdi. Shundan keyin mashshoq nogahon chalayotgan mashqidan yanglishib, boshqa nag'maga o'tib ketibdi. Bu mashq bolaning yuragini siqib yuboribdi, axvoli yana og'irlashib, bir necha kundan so'ng olamdan o'tibdi.

Musiqaning kishi bilmas xosiyatlaridan biri, ya'ni uning shifobaxshlilik xususiyatini amalda sinab ko'rgan bu xakim o'rta asr Sharqining allomalaridan biri Yoqub ibn Isxoq al-Kindiy edi.

Al-Kindiy Sharqning buyuk siymolari - Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino bilan yonma-yon qo'ysa bo'ladigan mutafakkir, arab musiqasining otasi va eng yetuk faylasufidir.

Al-Kindiy yoshligidayoq ilmga berildi, o'z davrining ko'zga ko'ringan olimlari bilan tanishdi, ularning asarlarini mutolaa qildi, bir necha xorijiy tillarni ham o'rgandi. Aristotelning «Metafizika», «Kategoriya» asarlarini, Ptolemeyning «Geografiya», Evklidning «Unsurlar» va boshqa asarlarni yunon tilidan arabchaga ag'dardi, ba'zi birlariga sharxdar ham yozdi.

O'rta Osiyo, umuman, Sharqning dunyoga mashxur allomalari kabi al-Kindiy ham zamonasining barcha fanlaridan xabardor shaxs bo'lganligi uchun uni «Abu-l-xukmo» (xakimlar otasi) deb atashgan. Abu Rayxon Beruniy o'zining mashxur «Ma'dansunoslik» asarida shu sohaga oid kitoblar orasida al-Kindiyning risolasidan bo'lak durustroq asar ko'rmaganligini yozadi. Darxaqiqat, al-Kindiy matematika, astronomiya, kimyo, geologiya, geodeziya, tarix kabi fanlar bilan teran

shug'ullangan. U arab olimlari orasida birinchi bo'lib materiya, shakl, ruh, vaqt, makon va zamon kabi falsafiy terminlarni ta'riflab berdi.

Al-Kindiyning tib ilmida qilgan katta xizmati shundaki, u musiqa bilan tabobatning o'zaro aloqadorligini aniqlagan. U musiqaning insonga ruhiy ta'siri ustida ko'p shug'ullangan va bu sohada anchagina muvafaqqiyatlarga erishgan. Ibn Sino ruhiy kasalliklarni davolashda al-Kindiyning musiqa bilan davolash sohasidagi ishlariga katta e'tibor bergan.

Qomusiy alloma al-Kindiyning yozishicha, kuydar bilan gullar o'rtasida qandaydir o'xshashlik bor. Gullardan taraladigan xushbo'y kishi ruhini ko'taradi, kuchiga-kuch qo'shadi. Mutafakkirning musiqa va tabobatga doir ana shu muloxazalari hozirgi kunda ham o'z qimmatini yo'qotmagan.

Kaykovus Vashmgir X-XI asrlardayoq o'zining «Qobusnoma» nomli qimmatli risolasida, san'atkorlarning axloqiy prinsiplariga oid ko'pgina masalalarni yoritib o'tgan edi. Jumladan, u deydi: «Agar xofiz bo'lsang, xushfe'l, quvnoq bo'l, hamma vaqt o'zingni toza tut, sendan yoqimli xid kelib tursin, shirin so'z bo'l, o'z ishingga mashg'ul bo'l, qo'pol so'z, qovog'i soliq bo'lma... Agar seni majlisga olib borsalar, unda ikki kishi narda o'ynab o'tirgan bo'lsa, xofizlikni tark etib, ularning o'yinini tomosha qilmag'il, chunki, seni xofiz bo'lganing uchun keltirganlar, nardbozlik uchun keltirmaganlar».

Darxaqiqat, bu talablar, shu kunga qadar ham naqadar to'g'ri, naqadar o'rinli. Ibosiz va hayosiz xonandalar, otarchilar haqida vaqtli matbuotda muntazam bosilib turgan tanqidiy materiallar shuni ko'rsatadiki, ana shunday eng qadimiy va zaruriy axloqiy qoidalarga rioya qilmaydigan san'at vakillari xanuzgacha mavjud. Ular, baxtga qarshi, eng oddiy axloqiy pinqiylarni qo'pol ravishda buzib, ulkan san'atimizning pokiza sha'niga dog' tushiradilar. Garchi bundan ming yil avval «musiqachi bo'lsang, - janjalkash bo'lmagin... uyingga boshing yorilgan, kiyiming yirtilgan, tanburing singan holda bormagil» - deb, ochiq oydin axloqiy raviyalarni belgilab berganlar. Shuning uchun ular xatto professional ashulachilarni ham jalb qilganlar. Bunda she'r va musiqaning inson ma'naviyatiga ta'sir qilish uchun kuch va imkoniyatidan o'rinli va unumli foydalanganlar.

Forobiy musiqa ta'limotining munosib davomchisi, buyuk alloma Abduraxmon Jomiy ham musiqa ta'limoti va uning inson ma'naviy kamolotida o'ynagan roliga oid juda ko'p va chuqur fikrlarni bayon etgan. Jomiy fikricha, musiqa va u haqidagi nazariy bilim insonga jaxolat torini emas, nafasat va odamiylik kuyini chalish uchun kerak. Musiqa inson ruhidagi odob va xalimlikka zid xususiyatlarni xaydovchi, poqdomonlik va ma'naviy kamolot sari yetaklovchi estetik malxamdir.

Jomiyning musiqaga doir ta'limoti bayon etilar ekan, uning musiqa asarlari xilma-xilligi inson ma'naviy extiyojlarining ifodasi ekanligi, estetik lazzat va xuzur orqali inson, o'z navbatida, ma'naviy barkamol bo'lishga intilishi haqidagi qarashlari hozir ham o'z ilmiy nazariy axamiyatini yo'qotmaganligini ta'kidlash lozim.

Alloma «Risoi musiqiy» asarini yaratar ekan, o'z o'tmishdoshlarining musiqiy tarbiya haqidagi qarashlarini rivojlantiradi. Avvalo, olim bu asarida an'anaga ko'ra musiqaning kelib chiqishi, ohanglar haqida qimmatli fikrlar bildiradi, maqomlarga tavsif beradi, musiqa asboblari haqida ma'lumot keltiradi. Eng muximi, musiqaning kishiga ta'siri haqidagi fikrlaridir. Musiqaning ba'zi kuylari insonda ko'tarinki ruh paydo qiladi, kamolatga yetishda ilmu fanning axamiyatini ko'rsatib o'tish bilan birga, jamiyat taraqqiyotining asosi sanalgan ilm axli, ilmni tarqatuvchi olimu fozillarga xurmat va ularning turmush darajasini yaxshilash masalalariga ham e'tibor beradi.

Xulosa qilib aytganda, barcha ta'limiy-axloqiy asarlarda insonni har tomonlama kamolga yetkazishning barcha masalalari badiiy ifodasini topgan. Mazkur asarlarda insonning kamolga yetishi uchun quyidagilar nazarda tutiladi:

1. Aqliy kamolat - bilim va zakovat, o'quvga ega bo'lish.
2. Jismoniy kamolat.
3. Go'zallikni xis etish. risola»sida insonning ma'naviy kamol topishida musiqaning tarbiyaviy ta'siri ilmiy asosda yoritib beradi.

Xusayn Voiz Koshifiyning ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya va axloq to'g'risidagi fikrlari ham ta'lim-tarbiya tarixida muxim axamiyatga ega bo'ldi. Chunki u yuksak axloqiy fazilatlarni tarannum etdi, kishilarni baxt-saodatli bo'lishi uchun bergan tavsiyalari hozirgi davrda ham o'z axamiyatini yo'qotgan emas.

Tadqiqotchilar Ibn Sino ham musiqaga oid asarlar yaratib, ularning faqat bir qismi bizgacha yetib kelgan deb ma'lumot beradilar. Shulardan biri «Musiqqa bilimiga oid to'plam» bo'lib, bunda tovushning sezgi a'zolariga ta'siri, uning yoqimli va yoqimsizligi, tovushni eshitganda lazzatlanish yo nafratlanish xissining paydo bo'lishi kabi masalalarga to'xtaydi. Unda musiqaning kishi hayotigacha qanchalik zarurligi haqida ham fikrlar bayon etiladi. Olimning fikricha, inson tabiatan yoqimli narsalar orqali yengil tortsa, uning aksida oromi yo'qolib, nafrati paydo bo'ladi.¹ Ibn Sino musiqqa ovozlarining kishi ruhiga ta'siri haqida noyob fikrlar bayon etadi.

Ibn Sinoning musiqaga oid asarlari u yashagan davr musiqqa ilmidan juda muxim ma'lumotlar berilishi ham qimmatlidir.

Sharq musiqashunoslik ilmining shakllanishidagi eng ahamiyatli davrlardan biri Sharq uyg'onish davri hisoblanadi. Bu davr X-XI asrlarga to'g'ri keladi. Ulug' o'zbek olim va mutafakkirlari Forobiy, Ibn Sino, Ibn Zayla, Abu Abdulloh Xorazmiy Sharq musiqashunoslik faniga asos solganlar. Ular tomonidan arab tilida yaratilgan musiqqa ilmiga xos kitoblarda, jumladan, Abu Abdulloh Xorazmiyning «Mafuotuih al-Uluum» - «Ilmlar kalitlari» qomusiy asarining musiqaga bag'ishlangan bobida mustaqil musiqashunoslik fani asoslari, umumiy musiqashunoslikka oid tushunchalar ishlab chiqildi, atamalar tizimi yaratildi.

Abu Abdulloh Xorazmiyning bizgacha yetib kelgan yagona asari «Mafuotuih al-Uluum»dir. Arab tilida bitilgan Sharqdagi ilk qomusiy asarlardan bo'lgan «Ilmlar kalitlari» 976-991 yillar orasida yaratilgan bo'lib, unda o'z davrida ma'lum bo'lgan fanning barcha sohalari qamrab olingan va ularning asoslari bayon etilgan. U juda e'tiborli va ishonarli bir manba bo'lganki, Ibn Sino ham o'zining «Aqliy ilmlar bo'limlari» risolasida undan iqtiboslar keltiradi. «Ilmlar kalitlari» ikki qismga - maqolaga bo'lingan, bu kism (maqola)lar tarkibida 90 faslni birlashtiruvchi 15-bob bor. Musiqaga bag'ishlangan bob uch fasldan iborat. Xorazmiy musiqaga bag'ishlangan bob tarkibi haqida shunday yozadi:

«Ikkinchi qismning yettinchi bobi musiqqa haqida va u uch fasldan iborat. Birinchi fasl musiqqa asboblarning atalishlari va ular bilan bog'liq narsalar haqida, ikkinchi

¹ А.Ирисов. Абу Али ибн Сино. «Хаёти ва ижодий мероси». -Т.: Фан. 1980 йил. 137-139 бетлар.

fasl donishmandlar kitoblarida keltirilgan musiqiy jamlar haqida, uchinchi fasl iste'moldagi iyqolar (ritmlar) haqida».

Musiqa asboblariga bag'ishlangan birinchi faslda o'n to'rtta cholg'u sanab o'tilib, nomlari keltiriladi. Barbat (ud)ning torlari, pardalari va boshqa qismlari bayon etiladi, sozlash izohlanadi. Bu faslning e'tiborli joyi shundaki, ba'zi musiqa asboblariga qisqa sharh ham, ularning qismlarining atalishlari ham berilgan. Masalan: Forobiy, Ibn Sino va Ibn Zaylaning musiqashunoslikka oid asarlarida organ musiqa asbobining nomigina keltirilib, uning shakli-shamoili berilmagan bir holda, Abu Abdulloh Xorazmiyning asarida organ shunday ta'riflanadi: «Organ -yunonliklar va rimliklarning musiqa asbobi. Qora mol terisidan ishlangan, bir-biriga o'langan katta uch charm mesh - bosqon bo'lib, o'rtadagisining boshiga katta mesh - bosqon o'rnatiladi va unga tuynukchalari ma'lum nisbatda joylashgan mis naychalar maxkamlanadi va ulardan sozanda istagi bo'yicha yoqimli, quvnoq va xazin tovushlar chiqaradi». Demak, organ havo to'ldirilgan bosqonlardan biriga, ya'ni dam beruvchisiga - maxsus moslama (bosqon)ga bosilganda, ularga o'rnatilgan naylar tovush chiqargan. Alisher Navoiy davrida ham organ ko'p mashxur bo'lgan.

Organ qadimda xajmi kichik, garmonga o'xshash damli, ko'tarib yursa bo'ladigan musiqa asboblaridan edi. Hozirda ham organ atalmish klavishli musiqa asbobi havo vositasida ishlaydi, ammo u bir butun murakkab musiqa inshootini tashkil etib, barmoq klavishlari va oyoq bilan bosiladigan pedallar yordamida chalinadi hamda, maxsus zallarga doimiyga o'rnatiladi. Toshkentda ham bir necha organ zallari bor.

Asarning jamlarga bag'ishlangan ikkinchi faslda tovush, nag'ma (ton), bu'd (interval), jins (intervallar tizimi, tetraxord) va jam (jinslar tizimi, gamma - tovushqator)lar haqida baxslar olib borilgan.

Iyqolar (ritmlar) haqidagi uchinchi faslda quyidagi sakkiz iyqo sanab o'tiladi:

1. Xazaj.
2. Xafif ur-ramal.
3. Ramal.
4. Saqil ur-ramal.
5. As-saqil us-saniy.

6. Xafif us-saqil ussaniy - Maxuriy.
7. As-saqil ul-avval.
8. Xafif us-saqil ul-avval.

Abu Abdulloh Xorazmiyning musiqa ilmiga oid qarashlari Forobiy va Ibn Sinonikidek qamrovi keng emas, ammo u ba'zi yangi musiqashunoslik atamalarini qo'llaydi. Masalan: musiqor (musiqachi, bastakor) atamasini, qadimiy yunon torli tirnama musiqa asboblari qitora (gitara), lur (lira) kabilarning atalishlarini keltiradi. U keltirgan lur (lira)ning umumiy shakli hozirda musiqa emblemasi sifatida qabul qilingan, musiqor (musiqachi, bastakor) atamasi esa ko'p sharq tillarida xanuz iste'moldadir.

«Ilmlar kalitlari» kitobining musiqaga bag'ishlangan qismi nemis va ingliz tillariga tarjima qilingan, tanqidiy matni nashr etilgan, fors tiliga ag'darilib nashrdan chiqqan, o'zbek tilida bu borada tadqiqot bor. Asarning qo'lyozma matni dunyoning ko'pgina kutubxonalarida saqlanmoqda.

Abu Abdulloh Xorazmiyning «Ilmlar kalitlari» asarining musiqaga oid bobini tadqiq etish hozirgi zamon milliy o'zbek musiqasining ustivor asosi - maqomlar va maqomlar masalasiga doir muammolarni to'g'ri hal qilishda ham qimmatli manbadir.¹

Manbalardan ma'lum bo'lishicha, buyuk shoir, adib, tarixchi va olim Zaxiriddin Muhammad Bobur musiqa sohasida ham juda bilimdon bo'lgan. Bobur Farg'ona vodiysining poytaxti -Andijon shahri xukmdori bo'lgan vaqti juda ko'p olimlar, shoirlar, sozanda va xonandalarni o'z atrofiga to'plagan. Uning adabiyot va musiqa sohasidagi faoliyati ham shu yerda boshlangan edi. «Boburnoma» shoirning musiqaga, san'atga katta e'tibor bilan qaraganligidan dalolat beradi.

Bobur «Boburnoma»da otasi Umarshayx davrida yashab ijod etgan adabiyot va musiqaga axllari nomlari eslatib o'tadi. Ba'zi joylarda esa, o'sha vaqtda uyushtirib turiladigan majlislar, ko'pgina san'at axllari haqida iliq so'zlar aytadi. «Boburnoma»da zamonasining madaniy hayotiga doir qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

Boburning o'zi turli asboblarni chala bilgan, yetuk sozanda bo'lgan. U saj'

¹ Қаранг: Зокиржон Орипов.

baxrida yozilgan she'riga «Rosti panjgoh» maqomi yo'lida kuy bastalagan, «Savti Chorgoh» va boshqa maqom yo'llarini ijod etgan.¹

Inson adolat istadi, lekin mag'lubiyatga uchrayverdi, kuydi, yondi. Inson oftob istadi, lekin zulmat uni shafqatsiz bo'g'di.

Inson har narsani bilmoqchi bo'ldi, «uchar gilam»larga keng osmon bo'ylab uchmoqchi bo'ldi, lekin zulmkor yerdan oyoq uzolmadi. Inson moxiyatiga va qadr-qimmatiga mos keladigan, moddiy va ma'naviy boyliklar to'lib-toshgan, go'zallik, osudalik va osoyishtalik xokim bo'lgan jamiyat istadi, lekin mavjud ijtimoiy hayot uning yoqasini chok qilishdan to'xtatolmadi.

Mazkur holat va fojealarning tub sabablari va muammolarini hal qilish vositalari esa ming qatlam parda ostida yashiringan bo'lib, jafokash osiylarni ming-ming qurbonlash berishga hamda, faryod chekishga majbur etishdan to'xtamadi.

Xalq va undan chiqqan yuksak didli farzandlar, ulkan bastakor, xonanda va sozandalar shu serqirra va qaxrli voqyelik hamda jafoli voqyealar jo bo'lgan musiqani ham qadim-qadimdan boshlab yaratdi, saqladi, ardoqladi.

Xalq daxosi o'zbek va tojik xalqlarining hayotiy negizi bilan chambarchas bog'liq ma'naviy qadriyati sifatida maqomlar majmuasini yaratdi. Ularni o'n ikki mustaxkam turkumida: Ushshoq (Oshikdar), Navo (Ohang, mungli), Buslik (Abu Salik - tarixiy shaxsning ismi bilan bog'liq), Rost (Forsigo'y xalqlarda «mos keladigan» ma'nosida), Xusayniy (Xusayniy - tarixiy shaxsning ismi bilan bog'liq), Xijoziy (Xijoz - Saudiya Arabistonida Makka va Madina hamda ular atrofidagi past tekislikka ishora), Raxoviy (Raxoviy Najmiddin Kavkabiyning risolasida ko'rsatilishida, bu Rum shaharlaridan birining nomi bo'lgan), Zangula (tuya bo'yniga ilinadigan yoki do'mbiraga bog'lanadigan qo'ng'iroq (zang) ma'nosida), Iroq (Iroq mamlakatiga nisbat ma'nosida), Isfaxon (Eronning mashhur shaharlaridan biri), Zirafkand (pastga tushish, sakrash ma'nosida), Buzrug (Buzruk katta, ulug' ma'nolarini anglatadi) nomlari bilan mumtoz etdi.²

Musiqiy qadriyatimiz ma'nosini yashnatib turgan shu'lakor yulduzlardan biri

¹ М.Қирғизов. «Оҳангда жиллоланган қадриятлар». -Т.: Фан. 1995 йил. 22-бет.

² И.Ражабов. «Мақомлар масаласига доир». -Т.: Давлат бадиий адабиёт нашриёти. 1963 йил. 40-49 бетлар.

Najmiddin Kavkabiy Buxoriy (XVI asr) o'zining «Musiqqa haqidagi risola» asarida: «Ayrim maqomlarni ijro etish uchun muvofiq keluvchi vaqtni tanlash kerak. Raxoviy maqomini quyosh chiqish oldidan, Ushshokni quyosh chiqib bo'lgach, Rostni choshgoh arafasida, Irokni choshgoh paytida, Buzrukni quyosh botishi paytida, Busalikni digar namozi (choshgoh bilan quyosh botishi oldida o'qiladigan namoz) vaqtida, Zangulani quyosh botishi paytida, Navoni nomozshom paytida, Zirafkanni uyquga yotish oldidan Isfaxonni tunda ijro etish kerak»¹ligini o'qirib, musiqani koinot bilan uyg'unligini har kecha-kunduzdagi tabiatning o'zgarishi asosida inson ruhiyatida sodir bo'ladigan holatlarda uning ma'naviy-ozuqiy ahamiyatini ta'kidlaydi.

XVII asrning musiqachi va nazariyotchisi Darveshali Changiy o'zining «Risolai musiqiy» («Musiqqa risolasi») asarida faqatgina musiqqa nazariyasini bayon qilish bilangina chegaralanib qolmay, balki o'z asarining katta qismini turli davrlarda yashab ijod etgan bir qator musiqachilar faoliyati, shuningdek, saroyda mavjud bo'lgan musiqqa asboblari tavsifiga ham bag'ishlaydi.²

Muallif o'sha davr maktab ta'lim-tarbiya yo'nalishiga to'xtalib, «Birinchi dars: merosiy xuquqqa. Ikkinchi dars: prosodiya (lotincha - she'rdagi vaznlarning bir-biriga nisbati to'g'risidagi ilm) va grammatikaga bag'ishlangan. Uchinchi dars: o'quvchilar kurash san'atiga o'rgatilgan. To'rtinchi dars: bevosita musiqqa darsi bo'lgan» - deb, ma'lumot beradi.

Ma'lumki, har qanday san'at namunasi, jumladan, musiqqa asari ham zamonlar osha mazmunan keng qamrovlikka, shaklan ixchamlikka intilib yashadi. Jamiyatning boshqa xodisalari kabi davrning ijtimoiy, badiiy-estetik talablari va extiyojlariga bog'liq ravishda o'zgarib bordi. Chunonchi, XVIII asrning o'rtalariga kelib, o'zbek-tojik xalqlarining mustakil musiqqa janri «Shoshmaqom» (olti maqom) o'zidan oldingi o'n ikki maqom asosida yuzaga keldi.³

O'zbekiston xalqlari qalbi va tarixida o'zining nurli siymosini tiklab qoldirgan Feruz Muhammad Raximxon Soniy Xorazmning xoni, talabchan sardor, elparvar, haqiqatgo'y, ma'rifatparvar rahbar sifatida xalqning mehrini qozondi. Feruz she'riyat

¹ Л.Бобоева. «Муғом ва мусулмон маданияти». Санъат. 1990 йил. №9. 15-бет.

² «Ўзбек мусика тарихи». (Тузувчи: Т.Е.Соломонова). -Т.: Ўқитувчи. 1981 йил. 17-б.

³ И.Ражабов. «Мақомлар масаласига доир». Давлат бадий адабиёт нашриёти. 1963 йил. 124-бет.

va musiqa bilan shug'ullanar ekan, san'at va adabiyot axlining jonkuyar raxnamosiga aylandi. Feruz maqomlarning cholg'u va aytim qismlariga ko'pgina musiqalar bastalaydi.

Rost maqomining cholg'u qismidagi «Muxammasi Feruz», Navo maqomining cholg'u qismidagi «Saqili Feruz», Segoh maqomining cholg'u qismidagi «Chor usul», «Feruz-1», «Feruz-2»lari shular jumlasidandir.

Feruzning milliy musiqa merosimizning ravnaqini ta'minlovchi say'-harakatlaridan biri uning tarixiy farmonidir.

«Biz kim?, Xorazm mamlakatining oliy xoqoni Muhammad Raximxon Soniy quyidagi farmoni oliyga imzo chekdik.

Xorazm maqomlari xalqning daxlsiz mulki deb e'lon qilinsin. Ushbu farmoni oliyga shak keltirgan va maqomlarni kamsitgan, yoyinki uni buzib ijro etgan kimsalar qattiq jazolansin!

Farmonning mazmunidan ko'rinib turibdiki, Feruz xazratlari xalq dahosi yaratgan milliy mumtoz musiqamizni davlat siyosatining oliy darajasida saqdab kelish bilan keyingi avlodning - siz, bizning ma'naviy kamolatimizga munosib xissa qo'shgan.

«Shashmaqom» yuz yilliklar davomida sevib tinglandi, to'y-yu - tantana va davrlarning bezagi bo'ldi. Bobolar uning xikmati va faraxbaxsh ohanglari bilan ajdodlarni tarbiyaladilar, ustozlar o'z talabalarini amaliyotchi va savodxon etib voyaga yetkazdilar.

Shu asnoda u xalqning noyob gavhari - ma'naviy qadriyat sifatida bizning kunimizgacha yetib keldi. O'zining ijodkori, madadkori bo'lmish Turon xalqi kabi mustamlaka zanjirlari bilan tutqunlikka saqlandi.

Beadad shukurlarkim, milliy ozodlik deb nomlanuvchi buyuk qudrat «u xalqchil emas, saroy musiqasi», «bir ovoqlik musiqa shaxoni garmonik shakllantira olmaydi», «soqialistik realizm talablariga javob bera olmaydi» kabi ta'nalar toshini uloqqirib tashladi. Uni bor bo'yi basti bilan jaxon xalqlariga namoyish etish baxtiga muyassar bo'ldi.

Bu kunga qadar milliy madaniyatimiz qadrini sarbaland etmoq uchun bor

imkoniyati, faoliyati, xatto hayotini qurbon qilgan Cho'lpon, Fitrat, G'ulom, Zafariylarning porloq siymolarini taxlikali 30 yillar zulmatida ziyodek xis qilmoq, Ota Jalol Nosirov, Ota G'iyos Abdug'aniyev, Xoji Abdulaziz Abdurasulov, Domla Xalim Ibodov, Xamza Xakimzoda Niyoziy, mulla To'ychi Toshmuxeammedov, Shoraxim Shoumarov, L.Boboxonov, M.Xudoyberganov, usta Shodi Azizov, Madraxim Yoqubov, Madali xofiz Raxmatullayev, Boltaboy Rajabov, Mamatbuva Sattorov, Qurji ota Avazmetov, usta Olim Komilov, Yusufjon qiziq Shakarjonov, Muxiddin Qori Yoqubov, Tamaraxonim, Xalima Nosirova, Mukarrama Turg'unboyeva, Matyoqub Xasratov, Ma'rufjon Toshpo'latov, To'xtasin Jalilov, Matyusuf Xasratov, Axmadjon Umrzoqov, Abduqodir Ismoilov, Abdusoat Vaxobov, Jo'rajon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Ashirali Yusupov, Maqsudxo'ja Yusupov, Imomjon Ikromov, Komiljon Jabborov, Saidjon Kalonov, Nabijon Xasanov, Faxriddin Sodiqov, G'anijon Toshmatov kabi san'atimiz darg'alari nomi muboraklarini ma'naviy qadriyatimiz tarixiga jilokor satrlar-la bitilganini idrok etmoq kishi qalbini iftixor tuyg'usi bilan to'ldiradi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, insoniyatning ma'naviy qadriyatlaridan hisoblanmish musiqa ming asrlar mobaynida avlodlar qalbini ezgulik nuri bilan yoritib keldi. Inson o'zining yaralish ibtidosini ohang va yaxshilik bilan esh deb bildi va bu haqiqatni rivoyat, xikoyat hamda yozma manbalarda e'tirof etdi.

Bu xulosalar asrlar davomida o'z ifodasini topar ekan, ijodkor xalq ohanglarda hayot tajribasini tingladi, mazmunida yaxshilik va yomonlik natijalarini idrok etdi. Ezgulik bilan yo'g'rilgan qalblarni madx etuvchi, illatni, dillarni fatx etuvchi musiqadan unumli foydalangan xalq o'z sozshunoslari, musiqashunoslari, bastakorlari, ijrochilari va tinglovchilarini ma'naviy qadriyat deb bildi.

O'zbekiston dunyoga nafaqat buyuk olimlari, ularning kashfiyotlari bilangina ma'lum bo'lib qolmay, ibtidosi qadim yillarga borib yetadigan umumbashariy qadriyatlari bilan ham mashxur va manzurdur. O'zbek xalqining inson qalbini poklab, ezgulik bilan mushtarak faoliyatga yo'lovchi bu qadriyatlari bebaho ma'naviy durdonadir:

San'atga baxsh umrning ajib mo'jizasi bor,

U dunyoni tark etsa, undan dunyo qoladi.

*Odam umri sarxadli, ko'shik umri poyidor,
Navosoz yuraklarda o'lmas navo qoladi.*

Erkin Voxidov.

Musiqqa tarixiga bir nazar.

Afsuski, milliy musiqa tariximiz mukammal o'rganilmagan soha bo'lib kelmokda. Turkiy xalqlar musiqasi tarixi boshqa qardosh Sharq xalqlari, xususan, fors va arab xalqlari madaniyati bilan chambarchas bog'liq. Arablar O'rta Osiyoni bosib olgunlariga qadar ham turkiy va forsiy xalqlarning adabiy, me'moriy hamda musiqiy madaniyati bir butunlikka ega bo'lgan. Bu xalqlarning uzoq o'tmishdagi cholg'u asboblari, qo'shiqlari haqidagi ma'lumotlar eng qadimgi og'zaki va yozma adabiy manbalar orqali bizgacha yetib kelgan. Bu manbalarda O'rta Osiyo xalqlarining o'z mustaqilligi uchun mardonavor kurashi tasvirlangan bo'lib, ular qaxramonlik eposlarida, qo'shiqlarda o'z ifodasini topgan. «Avesto»da juda ko'p marosim qo'shiqlar berilgan, ularning aksariyati xudolarga sig'inish bilan bog'liq. O'rta asr adiblari musiqaning mehnat marosimlaridagi ahamiyati o'lim va tiriklik haqidagi miflar bilan bog'lashga intilishgan.

Cholg'u asboblari haqida gapirganda, ularning eng qadimiylari, shubxasiz, urib chalinadiganlari bo'lgan. So'ngra puflab chalinadiganlari vujudga kelgan hamda asta-sekin shakllana borgan. Qadimgi tarixiy va adabiy asarlarda ijodkorlar va bastakorlarning nomi keltirilishi O'rta Osiyoda musiqa yuksak darajada rivojlanganligidan darak beradi.

IX asrga kelib O'rta Osiyo ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy hayotida keskin o'zgarishlar yuz berdi. Bu davrda she'riyat va musiqa nazariy hamda amaliy jihatdan bir-biriga yaqinlashdi va uyg'unlashib ketdi. Bu holat keyingi asrlarda yashab ijod etgan shoirlar, musiqachilar ijodida yaqqol aks etdi. O'sha davrda arfa, ud tipidagi torli hamda puflab chalinadigan nayga o'xshash asboblar keng tarqalgan. Udsimonlardan kvarta bo'yicha sozlanadigan besh-olti juft torli ud qo'llanilar edi. Ud egiluvchan patga o'xshash plektor bilan chalinadi. Darveshali Changiyning udni barcha musiqa asboblarining podshosi, deb baholaganligi bizga ma'lum. Shuningdek, doira ham asosiy cholg'u asboblaridan biri bo'lgan.

Aynan IX-XI asrlarda musiqa faniga asos solinib, bu yuz yilliklarda yashagan mutafakkirlarning deyarli barchasi bu fan bilan shug'ullanganlar. IX asrdayoq musiqaga bag'ishlangan risolalar paydo bo'lgan. Xususan, ularda musiqaning nazariy asoslari tadqiq etiladi. Musiqa asboblari ilmiy tasvirlanadi, tanikdi ijrochilar nomi, ularning repertuari, keng tarqalgan musiqa janrlarining nomlari keltiriladi.

Musiqa nazariyasi masalalari bilan shug'ullanishga Sharqning ulkan olimi Ibn Sino ham vaqt ajratgan. Mutafakkir asarlarining ayrim bo'limlarida musiqa uning fizik xossasi, musiqaviy parda va ritmik asosi haqida ma'lumotlar bor. Olim «Kitob ush-Shifo» va «Kitob ul-Najot» asarlarida musiqa fanining akustikasini, «Donishnoma»da matematik tomonlarini rivojlantirdi. Forobiy, Ibn Sino va boshqa allomalarning o'rta asrda ilm, madaniyatni yuqori darajada aks ettirgan asarlari ana shu davr musiqa madaniyatini o'rganishimizda ham muxim manba bo'lib xizmat qiladi.

XII-XII asrga kelib islom dini, u bilan bog'liq bo'lgan tasavvuf ta'limoti paydo bo'ldi. U musiqaga ta'sir ko'rsatmay qolmasdi, albatta. Bu o'z navbatida yangi ohanglar, yangi usullar va o'zgacha yo'nalishlarni yuzaga keltirdi. Musiqadagi diniy, so'fiyona motivlar XX asr boshlarigacha o'zbek madaniyatida katta o'rin egallab keldi.

Temur va temuriylar xukmronligi davrida sohibqiron bobomiz Xuroson, Eron, Suriyaning madaniy markazlaridan turli xil xunarmandlarni, jumladan, musiqachilarni ham keltirgan edi. O'sha davrda yashab o'tgan tarixiy shaxslarning guvohlik berishicha, saroy marosimlari musiqa jo'rligida o'tkazilgan. Masalan: Xofizi Abru yozadi: «Xushovoz xofizlar va shirinovoz sozandalar esa fors namunalari, arab ohanglari, turkiy an'analar, mo'g'ul ovozlari, xitoyliklar (ashula aytish) qonunlari va oltoyliklar o'lchovlari asosida kuy chalib, qo'shiq aytardilar».

Alisher Navoiy musiqani g'oyat sevgan va uning ulkan bilimdoni bo'lgan. Xatto o'zi ham musiqa asarlari yaratgan. Mutafakkirning fikricha, musiqa ta'sirli kuch bo'lib, xalq va uning hayoti bilan mustaxkam bog'lanishi lozim.

XV asrda cholg'u asboblari, xususan, torli asboblarda musiqa chalish keng tarqalgan edi. Asboblarning poetik tasviri XV asrda yashagan o'zbek shoiri Axmadning

«Sozlar munozarasi» deb nomlangan original asarida batafsil berilgan.

XVI asrning shoirlari va musiqachilari, shuningdek, musiqa ilmining bilimdonlaridan Najmiddin Kavkasiy ijodi ko'pchilikda katta qiziqish uyg'otadi. Uning «Musiqa haqida risola»si ustoz an'alarini Samarqand va boshqa shaharlarda davom ettirgan shogirdlari (Xoji Muhammad, Mavlono Rizo, Samarqandiy) uchun musiqali poetik qo'llanma bo'lgan.

XIII-XVII asrlarda O'rta Osiyo, Ozarboyjon va Xuroson musiqa ilmi va amaliyotida 12 ta maqom juda keng tarqalgan edi. Ular haqida bizga to'liq ma'lumot qoldirgan olim Darveshali Changiydir. Uning 12 maqom (soz)dan iborat «Risolai musiqa» asari juda katta axamiyatga ega. Muallif boshqalardan farqli holda faqatgina musiqa nazariyasi asoslarini bayon qilib qolmay, balki o'z asarining katta qismini turli davrlarda yashab ijod etgan bir qator musiqachilar faoliyati, shuningdek, saroyda mavjud bo'lgan musiqa asboblari tavsifiga ham bag'ishlaydi.

XIX asrga kelib musiqiy nazariy risolalar bilan bir qatorda «Bayoz»lar ham vujudga keladi. Ular muayyan kuylar nomi ko'rsatilgan qo'shiqlar matnidan iborat to'plam edi. Bu an'ananing taraqqiyoti Xamza Xakimzoda Niyoziy ijodida yaqqol aks etadi. Xamza «Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar» majmuasini tuzdi. Shoir xalq ichida mashxur bo'lgan ashulalarga o'zi milliy, vatanparvarlik ruhida she'rlar yozib, ular qaysi ashula usulida aytilishi, bu ashulaning qaysi joylarda tarqalganligi, ijrosi haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, uning bastakor sifatidagi ijodi aloxida e'tiborga molik. U o'z she'rlariga musiqalar bastalagan. Ashulalari o'zining milliy ruhi, jangovar ruhi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, Xamzaning o'zbek musiqa tarixida birinchi vals yaratganligini ham ta'kidlamoq joiz.

Akademik olim Abdurauf Fitratning o'zbek musiqashunosligiga qo'shgan xissasi beqiyosdir. Asrimiz boshida u milliy cholg'u asboblari haqida maxsus asar yozdi. Unda musiqa asboblarning deyarli barchasi nomma-nom keltirilib, ularning tafsiloti, tuzilishi to'liq yoritilgan.

Buxoro shashmaqomi o'zbek maqomlarining aloxida shoxobchasi hisoblanadi. U Xorazm olti yarim maqomi va maqomning Farg'ona-Toshkent yo'llari bilan

birga o'zbek maqomi asosini tashkil etadi. Uni notaga yozib olishning ham o'ziga yarasha tarixi bor.

Aslini olganda shashmaqomni notaga olish harakati ba'zi musiqashunoslar XIX asrning o'rtalarida boshlangan edi. Mashxur shoir va musiqa ilmining bilimdoni Komil Xorazmiy (1825-1857) va uning katta o'g'li Muhammad Rasul Mirzo tomonidan Xorazm notaqiyasi ixtiro qilingandi. Bu nota yozuvini yaratishda ular tanbur sozi pardalarini asos qilib olgandilar.

Tabiiyki, bu nota tizimi maqomlarni o'rganishda o'z vaqtida katta axamiyat kasb etgan. Lekin tanbur tabulaturasida bu nota tizimi hozirgi nota yozuvi imkoniyatlariga ega bo'lmaganligi tufayli o'sha davrda shashmaqom musiqasini yozib qoldirishga monelik qildi va kutilgan natijani bermadi.

Buxoro shashmaqomini yozib olish tarixi nisbatan boshqacharoq kechgan bo'lsa-da, asosan, XX asr davomida voqyelikka aylandi. To'g'ri, uning ayrim parchalari XX asr arafasida xarbiy kapelmeysterlar A.Eyxgorn va A.Leysek tomonidan notaga ko'chirilgani haqida ma'lumotlar bor. Lekin nisbatan to'la nusxasining ilk bor notaga ko'chirilishida Abdurauf Fitrat tashabbuskor va tashkilotchi sifatida aloxida jonbozlik ko'rsatgani hammaga ham ma'lum bo'lmasa kerak.

Fitrat 1921 yili Toshkentdan Buxoroga qaytgach, maorif va madaniyat ishlari bilan jiddiy shug'ullana boshladi: Sadri Ziyo, Musa Saidjonov kabi maslaqdoshlari bilan hamkorliqqa ilmiy jamiyat tuzib, turli fanlarga oid nodir qo'lyozmalarni to'plashga kirishdi. 1922-1923 yillarda Buxoro Xalq Sho'rolar Jumxuriyati (BXShJ)ning maorif noziri vazifasida ishlagan kezlari bu faoliyati doirasini yanada kengaytirdi.

Fitrat musiqiy ta'limni va bu sohadagi tadqiqotlarni yo'lga qo'yishni ko'zlab, Buxoro shahrining Ravg'angaron guzarida ixtisoslashgan musiqa maktabi tashkil etdi. Bu maktab «Sharq musiqa maktabi» atalib, unda ta'lim jarayoni sharqona ustoz-shogird saboqlari asosida qo'rilgan edi. Maktabga o'sha zamonning mapgxur maqomxonlari va maqomdonlari Ota Jalol Nosir o'g'li, Ota G'iyos Abdug'ani o'g'li, Levicha (Levi Boboxonov), Abduraxmon Umarov, Ma'rufjon Toshpo'latov kabi ustoz san'atkorlar jalb etildi. Keyinchalik shu ustozlardan saboq olgan Sharq musiqa maktabi talabalari orasidan Shohnazar Soxibov, Fazliddin Shaxobov, Borux Zirkiyev

kabi mohir maqomxonlar va zabardast bastakorlar Muxtor Ashrafiy, Mutal Burxonovlar yetishib chikishdi.

Abdurauf Fitrat Sharq musiqa maktabida ta'limni tashkil etish jarayonida asrlar davomida xalq daxosi bilan yaratilgan. Buxoro shashmaqomini shu ustozlardan yozib olish va abadiylikni ta'minlashni kechiktirmaslik zaruriyatini tushundi. Bu borada Fayzulla Xo'jayev bilan o'zaro fikrdoshlikda yechim topishga kirishdilar. Nixoyat ular kelishib, o'sha davrning yetuk musiqashunosi V.Uspenskiyga murojaat kildilar.

V.Uspenskiy bu ishga jiddiy va g'ayrat bilan kirishdi. Fitrat shashmakrm kuylarini notaga yozib olish ishlarini quyidagicha tashkil etdi: Sharq musiqa maktabining muallimlari Ota Jalol boshchiligida navbatma-navbat shashmaqom sho'balarga oid u yoki bu kuyni doira va tanbur jo'rligida ijro etishgan. V.Uspenskiy uni notaga ko'chirgan, so'ngra, albatta, shu yozib olgan kuyni fortepianoda chalib bergan. Ota Jalol boshchiligidagi hay'at nazoratida ma'qullangandan keyingina uni nashr qilishga tavsiya etishgan.

Shashmaqomning yozib olinishi jarayonini tezlashtirishni va uning mukammal yozib olinishini ko'zlab Fitrat o'z uyida xaftada bir marta Ota Jalol boshchiligidagi Ota G'iyos, domla Xalim Ibodov, Levicha va boshqalardan iborat maqomxonlar ishtirokida musiqa kechasi uyushtirib turgan. Kechada ijrochilar yozib olingan asarlar sifatini muxokama qilishgan, sozandalar u yoki bu kuyni qayta-qayta ijro etishgan, bunda ijro aniqligi, tinikligi va jozibasiga axamiyat berishganki, bu V.Uspenskiyga shashmaqomga xos siru-sinoatni chuqurroq hamda teranroq anglashga, Fitratga esa uning nazariy asoslarini idrok etish hamda taxlil qilib borishga imkoniyat yaratgan. Keyinchalik Fitratni badoim etuvchilar uchun bu kechalar malomat toshlariga aylanganiga qaramay, har qalay xuddi shu kechalarda Buxoro shashmaqomini ilk bor nisbatan to'la xajmda yozib olish va notaga ko'chirish ta'minlangan. Bu Fitratning o'zbek milliy musiqasini avlodlarga yetkazishda nechog'lik Fidoyilik ko'rsatganligini yaqqol tasdiqlaydi.

Bu haqda Fitratning o'sha vaqtdagi shaxsiy kotibi, Sharq mumtoz adabiyoti bilimdoni, buxoroliklar orasida domla Izomiy nomi bilan tanilgan G'ulomjon Izomov

(joylari jannatda bo'lsin!) xotiralari e'tiborlidir: «Xalqimizning bebaho boyligi bo'lgan shashmaqomni keyingi avlodga yetkazish maqsadida Fayzulla Xo'jayev va Abdurauf Fitrat o'sha davrda O'rta Osiyo xalqlari musiqa merosini o'rganish uchun Turkiston o'lkasiga kelgan Moskvalik mashxur musiqa etnografi V.A.Uspenskiyni Buxoroga taklif etishdi... V.A.Uspenskiy bu mashaqqatli vazifani 1923 yilda boshlab, 1924 yilda A.Fitrat va N.Mironovlar taxriri ostida Moskvada nashr ettirdi. F.Xo'jayev Uspenskiyning xizmat haqini sof Buxoro oltini bilan to'ladi».

Buxoroning «sof oltini» bahosida bunyod etilgan bu kitob «Shashmaqom» («Olti poema») nomida chop etilgan bo'lib, olti maqomning har biri o'ziga xos ichki guruhlanish tartibida tubandagicha berilgan:

«Buzruk» shashmaqomning birinchi va boshlovchi maqomi bo'lib, mushkilot va ashula bo'limini ifodolovchi nasr qismlaridan iborat. «Rost» - ikkinchi maqom bo'lib, mushkilot, nasr va ufor qismlaridan iborat. Butun maqom 20 kuy atrofida. «Navo». - uchinchi maqom bo'lib, mushkilot, nasr va ufor qismlaridan iborat. Butun maqom 28 kuydan iborat tarkibda berilgan. «Dugoh» *Sh* to'rtinchi maqom, unda ufor qismi yo'q, asosan mushkilot va nasr qismlari mavjud. Butun maqom esa 35 kuyni ichiga oladi. «Segoh» - beshinchi maqom; u ham mushkilot va nasr qismlaridan iborat. Butun maqom 29 kuydan tashkil topgan. Nixoyat, yakunlovchi oltinchi maqom bo'lgan. «Iroq» - mushkilot, nasr va ufor kabi uch qismdan tarkib topgan. Umuman, yakuniy maqom 23 kuydan iborat.

V.Uspenskiy Buxoro shashmaqomiga taalluqli 158 ta kuyni notaga ko'chirishga muvaffaq bo'lgan. Bu juda katta muvaffaqiyat edi. Shu sababli notaga olish ishi nixoyasiga yetgach, Buxoro maorif vazorati tomonidan V.Uspenskiyga quyidagi mazmunda guvohnoma berilgan: «...V.Uspenskiyga qadimiy maqomlarni notaga ko'chirish topshirilgan edi. U bu ishni juda muvaffaqiyatli bajardi. Uning tomonidan yozib olingan «Buzruk», «Rost», «Navo», «Dugoh», «Segoh» va «Iroq» maqomlari «Narkompros» Kengashining maxsus komissiyasi tomonidan tekshirilib ma'qullandi va muallifga katta minnatdorchilik bildirildi».

Shubxasiz, A.Fitrat va F.Xo'jayevlar tashabbusi hamda V.Uspenskiy g'ayrati bilan amalga oshirilgan bu xayrli nashr Buxoro shashmaqomini notaga ko'chirishdagi dastlabki

qadam bo'lib, milliy musiqa madaniyatimiz tarixida muxim xodisa edi. Bu nashr Buxoro shashmaqomini yanada mukammalroq qilib notaga ko'chirishdan iborat keyingi ishlarga, shuningdek, maqomlarni ilmiy tadqiq etishga yo'l ochib berganligi bilangina emas, balki O.Matyoqubov «Maqomot» kitobida yozganidek: «...maqom parchalarining joy-joyiga to'g'ri qo'yilganligi va umuman lad tizimining mukammal aks ettirilganligi bilan keyinchalik yuzaga kelgan ayrim to'plamlarga qaraganda birmuncha ustun»ligi bilan ham ayricha axamiyat kasb etgandi.

Shunga qaramay, bu nashrda bir qator kemptiklarga yo'l qo'yilganligidan ham ko'z yumib bo'lmaydi. Albatta, bu kemptikliklarning kelib chiqishiga ma'lum obyektiv va subyektiv sabablar mavjud.

Zero, Buxoro shashmaqomi notaga ko'chirilayotganda, asosan, ijrochilar bergan ma'lumot va axborotlargagina tayanilgandi. Ijrochilarning aksariyati esa usta ijrochi sifatida tanilgan bo'lsalar-da, musiqaning, jumladan, shashmaqomning nazariy asoslarini mukammal bilishmas, nota ilmidan bexabar ustodlar edi. Shu sababli ular aksar holatlarda V.Uspenskiy yozib olgan sho'balarni notasini o'qib, tekshirish imkoniyatiga ega emasdilar, faqat shu notaning fortepianodagi ijrosini eshitib, uning qanday darajada ko'chirilganligini baholay olishardi xolos.

Bunday sharoitda har qancha tajriba va bilimga ega bo'lsa-da, notanish an'analarga, ijro uslubiga, sozlarga ega bo'lgan boshqa bir xalqning milliy musiqasini notaga ko'chirishda V.Uspenskiy ma'lum kamchiliklarga yo'l qo'yishi tabiiy edi.

Kamchilikning dastlabkisi va eng kattasi maqomlarning nasr-ashula qismlarida she'r matnlarining tashlab ketilganligidir. Ba'zi manbalarda yozilishicha, V.Uspenskiy notada o'zbekcha va tojikcha she'rlarni berishga qiynalganligi uchun ularni aloxida qog'ozda yozib olgan, deya qusur sababi izohlanadi.

Ikkinchi qusur - ba'zi sho'balarning usul - ritm tuzilishida chalkashliklar uchrashida ko'rinadi. Zero, shashmaqomning nota matni tanburda «bas» kalitida yozilgan aslida skripka kalitida yozilgan matn ancha qulay imkoniyatlarga ega bo'lur edi.

Biroq Buxoro shashmaqomi o'z tarixi davomida birinchi marta notaga ko'chirilganligi inobatga olinsa, bunday kamchiliklar uning badiiy qimmatini zarracha pasaytirmaydi. Aksincha, mazkur nashr V.Uspenskiydan keyin uni notaga tushirganlar uchun asos va dasturi amal vazifasini o'taganligidan tashqari, yozib olinishi jarayonidagi baxsu-munozaralar Abdurauf Fitratning «O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi», «O'zbek musiqasi to'g'risida» hamda V.Uspenskiyning «Klassicheskaya muzshka uzbekov» («O'zbeklarning mumtoz musiqasi», 1927) singari tadqiqotlarining yuzaga kelishiga turtki bo'ldi. Bu asarlar, o'z navbatida o'zbek maqomshunosligi, qolaversa, zamonaviy musiqashunosligining qaror topishi, shakllanishi va taraqqiy topishida muxim ahamiyat kasb etdi.¹

Maqom bo'yicha fundamental tadqiqot muallifi I.Rajabov musiqaning estetik va tarbiyaviy xususiyatlari haqida fikr yuritir ekan, «musiqaning kishining xis-tuyg'ularini, undagi insoniy fazilatlarini o'lchab beradigan tarozidir», - deb yozadi. Maqomlarning inson ma'naviyatini yuksalishtirishdagi rolini Oqilxon Ibroximov obrazli tarzda quyidagicha ifodalaydi: «...maqomlar musiqasining ma'naviyat jabxasida nixoyatda muxim o'rin to'ganligidan, uning xatto ruhiy ekanligidan darak beradi».

Ijtimoiy hayotda san'atning o'ziga xos o'rni bor. San'at janrlaridan biri bo'lgan musiqaning kundalik hayotimizga naqadar singib ketganligini ba'zan tasavvur ham qila olmaymiz. Ona allasini tinglashga harakat qilayotgan chaqaloq birinchi navbatda musiqiy ohangni ilg'aydi va ana shu ohang vositasida asta-sekin so'zlarni ham ajrata boshlaydi. Beshikdan tobutgacha bo'lgan masofada insonning doimiy hamroxi bo'lgan musiqaning va milliy va na irqiy chegarani tan oladi. Ana shu musiqani hosil qilishda eng mukammal cholg'u sifatida insonning tovushi tan olingan bo'lsa-da, tarixiy taraqqiyot davomida turli xalqlarda musiqaning yaratilishining sun'iy vositalari - yangi musiqiy cholg'ular qadimiy ajdodlarimizning tuyg'ularini ifodalash vositasi sifatida dunyoga kelgan. Chunki u davrlarda kuy, ritm, garmoniya singari tushunchalarning o'zi yo'q edi. Tuyg'u cholg'ulari sifatida dunyoga kelgan va xanuzgacha saqlanib qolgan chanqovuz, sibizg'a, xushtak kabi

¹ O.Сафаров, Ф.Тўраев. «Фитрат ва Бухоро шашмақоми». Адабиёт ва санъат газетаси. 2006 йил. 21 апрель сони.

sodda musiqiy cholg'ularda oddiy odamlar hozir ham kuy ijro etishmaydi, aksincha, o'zlarining takrorlanmas tuyg'ularini ifodalaydilar. Bunday ijro hech qanday usul yoki tizimga bo'ysunmagan va ijrochi tomonidan to'g'ridan-to'g'ri kashf etilgan shaxsiy tuyg'uning ifodasi bo'lib, birinchi navbatda ijrochining o'ziga zavq bag'ishlaydi. Shunisi ajablanarliki, aksariyat cholg'ular xuddi shunday yoki biroz boshqacharoq ko'rinishda dunyoning turli joylarida istiqomat qiladigan xalqlarda uchraydi. Bu xodisa turli davrlardagi urush harakatlarining yoki madaniy aloqalarning natijasi bo'lsa kerak. Sharq va G'arb sivilizatsiyasining chorraxasi sifatida tan olingan Markaziy Osiyo xududi, xususan, O'zbekistonda mana shu jarayonlarning ta'siri musiqiy cholg'ular turlarida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Biz yashab turgan xududimizda ko'plab musiqiy cholg'u turlarining saqlanib qolganligi va milliy cholg'ularimiz sifatida qo'llanilib kelayotganligi ota-obolarimizning musiqa san'atiga va xususan, cholg'u ijrochiligiga bo'lgan jiddiy munosabatlarining maxsuli bo'lsa ajab emas.

XX asrning 40 yillari o'rtalaridan boshlab dastlab maxalliy ustalar, so'ngra mutaxassislar tomonidan o'zbek milliy musiqiy cholg'ularini takomillashtirish va qayta ishlash jarayoni boshlandi.

Jaxon andozalari asosida cholg'uchilar tayyorlash tizimi ham ishlab chiqilib, boshlang'ich, o'rta va oliy bosqichda kadrlar tayyorlana boshlandi, cholg'ularni maxsus o'lchamlar asosida ishlab chiqaradigan 2 ta musiqiy cholg'ular fabrikasi ishga tushirildi. Lekin juda katta mablag'lar va mashaqqatli mehnat evaziga yaratilayotgan ko'p ovozli musiqiy ijro respublika tashqarisida olqishlarga sazovor bo'lgani holda oddiy xalqning yuragiga yo'l topolmasdi. Oddiy xalq ko'povozli ijrodan ko'ra an'anaviy ijroni ma'qul ko'rar va go'yo xalq uchun ataylab yaratilayotgan zamonaviy musiqiy ijrodan baxramand bo'lishga tayyor emasdi.

Endi bir fikrlab ko'raylik-chi, shu ketishda milliy cholg'u ijrochiligimizning kelajagi qanday bo'lar ekan. Buning ustiga radio va televideniye orqali doimiy ravishda yangrayotgan estrada musiqasi bilan raqobatlashish degan muxim muammo ham turibdi.

O'zbek milliy cholg'ulari va ularda ijrochilikning mavqeyini tiklash va

rivojlantirishning yo'llarini izlash va hayotga tadbiiq etish muammosi hozirdanoq o'ylanmasa, asrlar davomida saqlanib kelgan va madaniy hayotimizda muxim o'rin tutgan milliy musiqamiz inqirozga yuz tutishi mumkin.

Ijroda milliylikni yanada ta'kidlash maqsadida qadimiy ko'rinishdagi noyob milliy cholg'ular - chanqovuz, sopol nay, g'ajir nay, sibizg'a kabi qator cholg'ulardan ham foydalanish mumkin.

Ko'povozli ijro xalq tomonidan qabul qilinishiga erishish yo'lidagi sa'y-harakatlarni - repertuar tanlash, ijroni milliyashtirish, xalqqa manzur bo'ladigan garmonik yechimlarni topish, musiqiy cholg'ular tarkibini o'zgartirib ko'rish, ijrochilik maxoratini shakllantirish kabi yo'llar bilan davom ettirish zarur.

Cholg'u musiqasini targ'ib etishni yaxshilash maqsadida radio va televideniye orqali tobora kamroq yangrayotgan cholg'u musiqasining xissasini orttirish va keyingi paytda musiqiy ko'rsatuvlar va eshittirishlar asosini -tashkil qilayotgan «qo'shiqlar guldastasi»ga cholg'u musiqa namunalari kiritish ham zarur.

Matbuotning hamma vositalari orqali milliy musiqiy cholg'ular va sozandalar haqida ommabop va qiziqarli materiallar berib borish ham yaxshi natijalar beradi deb o'ylaymiz.

Bir paytlar juda sifatli bo'lmasa-da, arzon bahoga sotib olish mumkin bo'lgan musiqiy cholg'ularni tayyorlab kelgan musiqiy cholg'ular fabrikasi faoliyatini ham tiklash zarurati sezilmoqda. Fabrikalarning so'nggi davrlarda ishlab chiqargan musiqiy cholg'ulari ham o'z xizmat muddatini o'tab bo'layotgani bilinib qoldi va bog'cha, maktab tarbiyachilari milliy musiqa cholg'ulardan kamroq foydalanayotganliklari misolida ushbu axvol tobora aniqroq ko'zga tashlanmoqda.¹

Ma'lumki, kollej va maktablarda musiqa darslarini yuksak saviyada olib borishda o'qituvchining cholg'u asboblarini mukammal egallaganligi katta rol o'ynaydi. Shunday ekan, musiqa o'qituvchisining ish faoliyati uchun ixtisoslangan cholg'u asbobini faqat ijrochilik tomonidan emas, balki pedagogik nuqtai-nazardan ham mukammal egallash muxim ahamiyatga ega. Bu vazifani amalga oshirish uchun bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tarbiyalashda maxsus cholg'u asbob predmetini o'qitish

¹ Ўрвали Тошматов. Чолғуларимиз тақрири. «Мулоқот» журнали. -Т., 2001 йил.

metodikasini to'g'ri yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Umumiy ta'lim maktablarining musiqa o'qituvchilari o'zida ikki xislatni, ya'ni ijrochilik va pedagogik xislatlarni mujassamlashtirgan bo'lishi kerak.

Shuning uchun pedagogika institutlarining musiqa fakultetlari (bo'limlari)da o'quv jarayonining asosiy yo'nalishi talabaning maktabda ashula darsini va sinfdan tashqari musiqa mashg'ulotini o'tkazish uchun kerak bo'lgan bilim komponentlarini egallashiga qaratilishi lozim.

Oliy o'quv yurtlari, ya'ni musiqa bilim yurtlari va konservatoriyada asosiy kuch ijrochilik maxoratini egallashga qaratiladi va maxsus cholg'u asbob predmeti o'quv proqyessining o'zagi hisoblanadi. Pedagogika institutlarida esa maxsus cholg'u asbobi predmeti juda katta ahamiyatga ega bo'lishidan qat'iy nazar, o'quv proqyessidagi komponentlarning ajralmas bir qismi hisoblanadi. Yana shuni nazarda tutishimiz kerakki, musiqa asarini konsert zalida va sinfda ijro etish xususiyati turlichadir. Shunday ekan, tabiiyki musiqachi-ijrochi va musiqa-pedagog oldiga kelishi kerak. Bu farq nimadan iborat bo'lishi lozim?

Musiqachi-ijrochi oldiga cholg'u asbobini egallashda chalish texnikasini oshirish, yirik formada yozilgan xilma-xil musiqa asarlari bilan tanishish, asarning chuqur estetik mazmunini talqin etishdek vazifa qo'yiladi. Musiqachi-pedagog yuqoridagi xususiyatlardan tashqari oddiy musiqa asarlarini notaga qarab tezda ijro eta bilishi, asarning estetik mazmunini musiqa va so'z izohi bilan talqin etib o'quvchiga yetkazishi, cholg'u asbobida ijro etish bilan bir vaqtda dirijyorlik va nafas olish elementlarini ko'rsata bilishi kerak. U mana shu xususiyatlarni mukammal egallashi uchun notaga qarab chalish, jo'r bo'lish, eshitib chalish va asarga so'z orqali izoh berish qobiliyatini o'stirish ustida tinmay ishlashi lozim.

Jo'r bo'lish o'quvchilarning ashula aytish qismini boshqarishning ajralmas tomonidir. Shu tufayli jo'r bo'lish qobiliyatini o'stirish uchun o'qituvchi, albatta, Talaba repertuariga sakkiz yillik maktablarning «Musiqa» programmasidan bir. necha bolalar ashulasini kiritishi maqsadga muvofiqdir. Undan asarni jo'r bo'lib, yaxshi ovoz bilan o'zini sinfda, bolalar oldida turgandek faraz qilib ijro etishini talab qilish kerak. Bundan tashqari u jo'r bo'lish qobiliyatini o'stirish uchun eshitib chalish

qobiliyatini o'zlashtirishi lozim. Chunki dars vaqtida kundalik ish planiga kiritilmagan xilma-xil bolalar ashulasiga jo'r bo'lish vazifasini bajarishga to'g'ri keladi. Shuning uchun Talabada dars vaqtida bolalar ashulasini yoki xalq kuyidan biror parcha chalib berish, eshitgan kuyni qaytara olish qobiliyatini rivojlantirish kerak.

Musiqachi-pedagog uchun maxsus cholg'u asbob predmetini egallashda ikkinchi xususiyat - notaga qarab chalish qobiliyati kelgusi ish praktikasida aloxida o'rin oladi. Chunki darsning musiqa tinglash qismida har xil asarlarga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Shu maqsad uchun biz har dars mashg'ulotida badiiy asar ustida ishlash qismiga o'tmasdan Talabaga maktab ashula darsi repertuaridan yengil kuy va ashular chaldirib ko'rdik. Natijada notaga qarab chalish qobiliyati darsdan-darsga yaxshilandi:

Birinchidan, musiqachi-pedagog uchun musiqa asarini bolalarga so'z orqali musiqa asari bilan mustaqil tanishib, analiz qila bilish va uning badiiy qiymatiga to'g'ri baho olish qobiliyatini o'zlashtirish; ikkinchidan, Talabaning musiqa tinglash qismi uchun ko'proq maktab repertuarini o'zlashtirish; uchinchidan, o'quvchilarning umumiy musiqaviy rivojlanishiga qarab musiqa obrazini so'z orqali izoxlash qobiliyatini tarbiyalash.

Shu maqsadda asarni analiz qilishda quyidagi tartib sakdanadi:

1. Kompozitorning qisqacha tarjimai holi va ijodiy yo'nalishi.
2. Asarning badiiy-g'oyaviy mazmuni va harakteri.
3. Asarning tuzilishi, tonlik plani, garmonik xususiyati.
4. Asarda uchraydigan ifoda belgilari bilan mustaqil tanishib chiqib, uni badiiy jixatdan yuksak saviyada ijro etishga erishish.

Talabalarning bilimni tekshirish uchun imtixoniga maktab repertuariga xos bo'lgan biror kichik asarni badiiy izoxlab berish kiritildi. Natijada Talabalarning umumiy musiqaviy saviyasi ancha o'shganligining guvoxi bo'ldik.

Maxsus cholg'u asbob predmetining to'rt yillik ta'lim va tarbiya vazifalarini ikki bosqichga bo'lsak, birinchi bosqichga 1 va 2-kurslarda Talabani aktiv praktikaga tayyorlash vazifasi qo'yiladi, ya'ni birinchi talab (jo'r bo'lish, eshitib chalib ketish, notaga qarab chalish, bir tonlikdan ikkinchi bir tonlikka transport qila bilish, asarni badiiy izohlash va maktab repertuari bilan tanishish) kabi amaliy bilim va maxoratdan

iborat:

Birinchi bosqichda Talabaga maktabda ashula darsini yuqori saviyada o'tkazish uchun zamin yaratiladi.

Ikkinchi bosqichda esa ijrochilik bilimi va maxorat ustida ishlashni yanada mukammalroq yo'lga qo'yish ko'zda tutilib, Talabani, ko'p miqdorda musiqa asarlari bilan tanishtirishga aloxida e'tibor beriladi.

Pedagogika institutlarining musiqa fakultetlarida cholg'u asboblari egallashga qo'yilgan yuqoridagi aloxida talablar va o'quv proqyessining shu talablarga moslashtirib olib borilishi umumiy ta'lim maktablariga har tomonlama rivojlangan, to'liq bilimga ega bo'lgan oliy ma'lumotli musiqa o'qituvchisi tayyorlashning garovidir.

Mazkur magistrlik dissertatsiyasiga biz ko'plab ma'lumotlar kiritdik. Mozega nazar tashladik, mustaqillik yillarida yurtimizda san'atni rivojlanganligi haqida so'z aytdik. Prezidentimiz san'atga qanchalik g'amxo'rlik ko'rsatib kelayotganini ta'kidladik. Endi eng muxim narsa yodimizdan chiqmasligi kerak. Bu san'atkor odobi. San'atkor ma'naviyati, san'atkorning qanchalik odamoxunligi, har bir so'z va harakatda atrofdagilarni beradigan namunasi haqida so'z aytish vaqti keldi. Biz manbaa qidirishga harakat qilmadik. Buning o'rniga O'zbekiston «Adabiyot va san'at» gazetasining 2005 yil 3 iyun sonida bosilib chiqqan gazeta taxririmizning «torning cho'michdan farqi» nomli maqolasini to'laligicha kiritishga qaror qildik. Bu maqola san'atkorning ma'naviy qiyofasi, ichki dunyosi haqida. Biz magistraturada o'qib yurganimizda muxokama qilganimiz.

«Torning cho'michdan farqi...»

Kamtarin san'atkorlar haqida gap ketganda, muxlislar ko'pincha Komiljon Otaniyozovni, Jo'raxon Sultonovni, Ma'murjon Uzoqovni yodga olishadi. Hayotlik chog'larida ularni xech kim «san'atimizning buyuk yulduzlari, betakror iste'dod soxiblari», deb ulug'lamagan. Bunga extiyoj ham bo'lmagan. Chunki ular oddiy, Yaratgan egam in'om etgan favqulodda iste'dodlarini aytmasa, siz biz kabi jo'ngina odamlar edi. Shu boisdan ham hayotlari past-balandsiz, bir tekis kechgan. Odamlar orasida el qatori umrguzaronlik qilishgan. Yurish-turishda, kiyinishda, muomala

madaniyatida zarracha bo'lsin aloxidalik, kibru havo bo'lmagan. Muxlislar ularni tinglashgan, go'zal xonishlari yurak-yuraklarga malxamday yetib borgan va shu joyda naqsh bog'lagan.

Ulug' san'atkorlar kamtarligi, katta-yu - kichikka, boyvachcha-yu - o'rtaholga teng munosabatlari, zarur hollarda o'zlari kabi oddiy va odmi odamlarga ko'proq e'tibor berishlari bilan ham nom qozonishgan. El xizmatida bo'lganlarida, nomunosib xatti-harakatlar qilishmagan, izzattalab ham bo'lishmagan. Aytilgan joyga vaqtida o'zlari, tan qo'riqchilarsiz boraverishgan, to'y egalarini, qarindoshlarni o'rtaga chaqirib, pul yig'ishmagan. Ko'zlari to'q bo'lgan. Pul degan sabil qolgur kimga yoqmaydi deysiz, ammo ular pulning makkor jozibasiga uchishmagan.

Ma'murjon Uzoqov, Jo'raxon Sultonovlar paytida saxnada xech kim soxtakorlik qilmagan. Ovozi, iste'dodli bor odam o'rtaga chiqqan, tumonat tinglovchini sel qilib qo'shiq kuylagan. Ovozi yo'q, umrida qo'lga cholg'u asbobi ushlamagan odamlar esa boshqa ishlar bilan shug'ullanishgan. Usha paytlari ham bog'larimizda anvoyi gullar barq urib ochilib turgan, kerak bo'lsa, quchoq-quchoq olib kelish mumkin edi. Ammo konsert zallarida bugungiday soxta gulbozlik urf bo'lmagan. Qarindosh-urug', tog'a-jiyanlar, endigina yo'lga kirgan nabiralar saxnaga gurras-gurras chiqib, ashula aytib turgan xofizning bo'yniga gulchambarlar ilishmagan, cho'lpillatib o'pishmagan, egniga kim o'zarga zar chopon yopishmagan. Ustoz san'atkorlar saxnada bunday bemazagarchilik qilish tomoshabinga nisbatan xurmatsizlik, g'irt sharmandalik bo'ladi-ku, degan hayolga borishgan.

Bu ham mayli, avvallari xofiz deganingiz saxnadan bemalol pastga tushib, oldingi qatorda viqor bilan o'tirgan xeshu aqrabolariga, quda-andalariga, maxalla choyxonasidagi ulfatlariga egilib-buqilib salom bermagan, validai muxtaramasining yoniga kelib, xuddiki onasi bilan tasodifan shu joyda uchrashib qolishganday, bir-birlarini bag'irlariga bosishmagan. Ona ham o'g'li san'atkor bo'lganini, uncha-muncha xirgoyi qilib turishini xuddiki bugun, shu yerda bilayotganday, bolaizorini yalab-yulqamagan. U paytlarning onalari ancha vazmin bo'lishgan shekilli-da.

Avvalari qo'shiq kuylanayotganida, ashula aytilayotganida, birov ovoz chiqarmagan, saxnada turgan xofiz bolaning oldiga ko'tarilib, belidan maxkam ushlab suratga tushmagan. Qulog'iga bir nimalarni shivirlamagan. Tomoshabinlarning qiy-chuvidan ilhomlanib san'atkor birodarini dast ko'tarib, bir-ikki aylantirib qo'ymagan. Negaligini taxmin qilish mumkin. Ular juda uyatchan bo'lishgan nazarimda, konsert bilan sirkdagi masxarabozlikning farqiga borishgan. Zavqlari kelib ketsa «do'st» devorishganu shu bilan xovurlari bosilgan.

U paytlari xofizlar saxnada qo'shiq kuylashgan. Og'izlarini shunchaki qimirlatib turishmagan. Odob-axloq haqida ma'ruza o'qishmagan. Ginaxonlik qilishmagan. Ashula qolib ketib, hamkasb do'stlarining bog'iga tosh otishmagan.

Ma'murjon Uzoqov, Jo'raxon Sultonovlar «klip»larni bilmay o'tib ketishdi...

Komiljon xofiz, Ma'murjon xofizlar paytida televideniye va radio bu qadar rivojlanmagan edi. G'M kanallari va ulardagi so'zbozlik birovning hayoliga ham kelmagandi. Bitta qo'shiq bugungidek bir kunda yigirma-o'ttiz marta emas, xafta - o'n kunda bir marta efirga qo'yilgan va sog'inch bilan tinglangan.

U paytlari xususiy radiokanallar qayoqda deysiz. Shu kamchilik tufayli Ma'murjonu Jo'raxon akalar o'zlari tashabbus ko'rsatib, uncha-muncha xarajatini ko'tarib bo'lsa-da, radio orqali jonli muloqotlar o'tkazishmagan. Shunday bo'lgandan keyin, avvaldan tayinlab qo'yilgan «muxlis»lar aniqrog'i, xofizbolaning jiyani-jiyanchani dast ko'tarib, bir-ikki aylantirib qo'ymagan. Negaligini taxmin qilish mumkin. Ular juda uyatchan bo'lishgan nazarimda, konsert bilan qirqdagi masxarabozlikning farqiga borishgan. Zavqlari kelib ketsa «do'st» devorishganu shu bilan xovurlari bosilgan.

U paytlari xofizlar saxnada qo'shiq kuylashgan. Og'izlarini shunchaki qimirlatib turishmagan, odob-axloq haqida ma'ruza o'qishmagan. Ginaxonlik qilishmagan. Ashula qolib ketib, hamkasb do'stlarining bog'iga tosh otishmagan.

Ma'murjon Uzoqov, Jo'raxon Sultonovlar «klip»larni bilmay o'tib ketishdi...

Komiljon xofiz, Ma'murjon xofizlar paytida televideniye va radio bu qadar rivojlanmagan edi. G'M kanallari va ulardagi so'zbozlik birovning hayoliga ham kelmagandi. Bitta qo'shiq bugungidek bir kunda yigirma-o'ttiz marta emas, xafta - o'n kunda bir marta efirga qo'yilgan va sog'inch bilan tinglangan.

U paytlari xususiy radiokanallar qayoqda deysiz. Shu kamchilik tufayli Ma'murjonu Jo'rxon akalar o'zlari tashabbus ko'rsatib, uncha-muncha xarajatini ko'tarib bo'lsa-da, radio orqali jonli muloqotlar o'tkazishmagan. Shunday bo'lgandan keyin, avvaldan tayinlab qo'yilgan «muxlis»lar, aniqrog'i, xofizbolaning jiyanu-jiyanchalari, tanish bilishlari radioga qo'ng'iroq qilib, tayyorlab berilgan savollarni xijjalab o'qishmagan, nega ekranda ko'rinmay qoldingiz, nega sizga e'tibor kam, falon konsertda nega qatnashmadingiz, nega shu choqqacha unvon olmagansiz, deb masalani ko'ndalang qo'yishmagan. Negaki, bunday qilish o'sha yillari uyat hisoblangan.

U yillari televideniye xofizlarning xashamdor uy-joylarini, oshxonayu yotoqxonalarini, divanda mudrab yotgan mushukchayu kuchuklarini, moyi artilmagan qo'sha-qo'sha mashinalarini takror-takror namoyish qilmagan, boshlovchilar «Mana bu qandilni qayerdan sotib olgansiz, xuv anavi chinni ko'zani sizga kim sovg'a qilgan», deb bechoralarni so'roqqa tutishmagan. Ustoz xofizlar, agarki shundoq qilsak, el ustimizdan kulvoradi, deb o'ylashgan bo'lsa kerak-da. U paytlari san'atkorlar televideniya oshpazlik ham qilishmagan. Tor bilan cho'michning farqiga borishganda.

U yillari reklama degan kasallik bugungidek xuruj qilmagan. Xofizlar xofizligini, aktyorlar aktyorligini, voizlar voizligini qilgan. Didsiz reklama odamlarning joniga tegmagan, asabini buzmagan.

O'ylanib qolasan kishi, tasavvur qilingki, o'shanda bitta qitmir, foydaga o'ch tadbirkor Ma'murjon aka yoki Jo'rxon akani bir chetga tortib, «Aka, lotereya o'yini tashkil qilganmiz, shunga o'zingiz bosh bo'lmasangiz sira iloji yo'q. Sizdan lozimi - kuniga nari borsa yigirma-o'ttiz marta katta ashula ohangida *«Otingni sot xaloyiq, molingni sot xaloyiq, a'lo o'yinlar keldi, yutugi - senga loyiq»*, deb tursangiz bas» - desa, bu soddasi tushmagurlar nima deyishardi ekan-a? Taxmin qilish mumkin, hoynahoy «Nimalar deyapsan hoy tirrancha, meni kim deb o'ylayapsan, es-xushim joyimda, endi bir qilmaganim bola-chaqa, maxalla-kuy oldida sharmandam chiqib, el-yurtga kulgi bo'lishmi, bor toshingni ter», deb bechoraning xafsalasini pir qilisharmidi...

U paytlari ham el-yurtda to'y-tomoshalar bo'lgan, xofizu xofizalar xizmatda bo'lishgan. Ammo bir qo'shiqchi ikkinchisi bilan navbat talashib butun el oldida, muxlislar ko'z o'ngida qirpichoq bo'lmagan, men turganda senga kim qo'yibdi, mishiqi, deb bisotlaridagi jamiki marganqovkasiz eshitib bo'lmaydigan iboralarini yuzaga chiqarishmagan. Jon aka o'zingiz boshlab bering, biz sizdan keyin, bu yerda aytmasak, keyingi to'yda aytarmiz, deb mulozamat qilishgan. O'zlaricha shunday odobli bo'lishganmi yoinki ustozlarining gaplari quloqlarida qolganmi, buni aniq aytish qiyin.

Ayol san'atkorlar avvalari to'y-xashamlarda kamroq ko'rinishgan. Zamona zayliga qarab ish tutishgan-da. Shu bois kechki bazmlarda navbat talashib, bir-birlarining sochlarini yulishmagan, erkakshodalik qilishmagan. Ayol zotining og'zidan faqat latif so'z, yuzidan munavvar tabassum taralgan xolos.

Bu holatlar bugun san'atimizda oddiy bir hol bo'lib qoldimi? Ushbu satrlarni o'qiyotgan gazetxonning hayoliga «Muallif yoppasiga shunday xulosaga kelibdida», degan fikr tug'ilishi mumkin. Axvol nechog'li tashvishli bo'lmasin, men bu savolga: «Aslo, hozircha oddiy bir hol bo'lib qolgani yo'q», deb javob qaytarishni, siz ham shunday deyishingizni juda-juda istayman. Negaki, besh qo'l barobar emas. Bu istakning ro'yobga chiqishi, eng avvalo, millat munavvarlariga, madaniyatimiz fidoyilariga, jamiki jonkuyarlarga, kuyunchaklarga, uyg'oq va murosasizlarga bog'liq. Zero, bizdan keyingi avlodlarga ozod va obod Vatan yanglig', yer, suv, havo kabi muqaddas san'atimizni, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarimizni ham bus-butun, pokiza, saranjom-sarishta, to'rt muchasi sog', yuragida o'zga «qadriyatlar»in qurmagan, o'pkasi o'zga havolarga to'yintirilmagan holda qoldirmog'imiz darkor.¹

Yurtimizda ota-bobolardan bizgacha yetib kelgan musiqiy merosni e'zozlash, milliy san'at va madaniyatimizni yanada rivojlantirish, yosh iste'dodlarning saloxiyatini namoyon etishiga aloxida e'tibor qaratilmoqda.

Barpo etilayotgan va jaxon andozalari darajasida ta'mirlanayotgan san'at koshonalarida yaratilgan qulayliklar xalqimiz milliy va zamonaviy musiqa

¹ «Адабиёт ва санъат» газетаси. 3 ноябрь. 2005 йил сони.

san'atidan to'la baxramand bo'lishiga imkon yaratmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Davlat konservatoriyasi yangi binosi ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrigida: «*Musiqa deb atalmish ilohiy bu mo'jizada shunday bir sexr mujassamki, uni tushunish, ta'sirini sezish uchun hech qanday tarjimonning keragi yo'q*».

III-BOB. TAJRIBA - SINOV ISHLARINING MAZMUNI, O'TKAZILISH USULLARI VA NATIJALARI

3.1. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish

Talabalarni Markaziy Osiyo xalqlari musiqa san'atida mavjud milliy cholg'u asboblari, ularni umummilliy qadriyatlar tizimidagi, bugungi kundagi badiiy qimmatini va o'rnini bilan tanishtirish jarayonida ma'lumotlarni samarali shakl va usullarini aniqlashga yetakchi ahamiyat berildi.

Bu yo'nalishdagi ishlarni amalga oshirishda magistrlik dissertatsiyasi talablari doirasida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi shuningdek Davlat Ta'lim Standartlarida talabalar egallashi lozim bo'lgan bilim va malakalar mezonlariga tayanildi.

Tadqiqot ishini bajarishda san'at kollejlari talabalarini mavzuga oid ma'lumotlar bilan chuqur tanishtirish, shu orqali ularni musiqiy-nazariy bilim va malakalarini shakllantirishning samarali ish-usullari amaliy faoliyatda sinovdan o'tkazildi.

Tajriba-sinov ishlarini olib borishda quyidagilarga alohida ahamiyat berildi:

- Kollejda O'rta Osiyo xalqlari umummadaniyatiga tegishli cholg'u sozlarini bo'lishligiga;
- Cholg'u sozlarining tarixi, takomillashish jarayonlari, qo'llanilishiga oid ilmiy manbalarni mavjudligiga;
- Talabalarni cholg'u sozlariga qiziqishi va munosabatlarini aniqlashga;
- Talabalarni cholg'u sozlari tarixi, rivojlanishi va bugungi kundagi umummadaniyatimizda tutgan o'rnini va ahamiyati haqida bilishga va qiziqishlariga ko'ra ish tutishga;
- Musiqa cholg'ulari haqidagi ko'rgazmali qurollar, videoyozuvchilarni hozir qilish;

- Milliy cholg'ular haqidagi bilimlar orqali talabalarni umummusiqiy-nazariy malakalarini shakllantirishga qaratilgan bir qator tadbirlar tashkil etildi;

Bunday tadbirlar qatoriga:

- Cholg'u sozlari haqida turkum suhbat, ma'ruzalar o'tkazish;
- Turli cholg'ular bo'yicha mahoratli cholg'uchi sozandalar chiqishlarini uyushtirish;
- Musiqa sozlari haqidagi manbalarni o'rganish, tahlil qilish;
- Cholg'u sozlari bo'yicha ko'rik tanlovlar uyushtirish;
- Ijodiy jamoalar konsertlariga ijodiy sayohatlar uyushtirish.

Mazkur tadbirlar talabalarni cholg'u sozlari haqida qiziqish va ishtiyoqlari kuchayib borayotganligi, ular o'zlari ham mustaqil ravishda zarur manbalarni o'rganishga intilishlari kuchayib borganligini ko'rsatdi. Natijalar tajriba-sinov ishlari maqsadini talabalarni milliy cholg'u sozlari tarixi, rivojlanishi, takomillashishi jarayonlari va bugungi kunda umummusiqa madaniyatimizda uning o'rni va ahamiyatini bilish, shu orqali ularni musiqiy madaniyatini shakllantirishga qaratilgan metodikamizni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash mumkinligiga ishonch hosil qildik.

Tajriba-sinov ishlarining predmeti sifatida quyidagilar belgilandi:

- Talabalarni O'rta Osiyo xalqlarini umummadaniyatga mansub cholg'ular to'g'risidagi tarixi, nazariy bilimlari;
- Talabalarni cholg'u sozlari turi, ijrochilik an'analari haqidagi tushunchalari
- Cholg'u sozlarida ijro etish malakalari va mahorati.

Tajriba-sinov ishlarida Jizzax san'at kollejining ikkinchi kurs talabalaridan ikkita (201,202-guruh) guruh, har bir guruhda 23 tadan talaba ishtirok etdi. Bunda 201-guruh tajriba,202-guruh nazorat guruhi sifatida olindi. Uchinchi kursdan ikkita(301-guruh tajriba guruhi, 302-guruh nazorat guruhi) olindi, bu guruhlarni har birida 25 tadan talaba ishtirok etdi.

Biz o'z amaliy faoliyatimizda qo'llagan ish usul, shakl va vositalarning

samaradorligini aniqlash maqsadida yuqorida qayd etilgan guruhlarda tajriba-sinov dasturi asosida tizimli mashg'ulotlar olib borildi. Bunda tajriba guruhlarida O'rta Osiyo xalqlari umummusiqiy madaniyatiga tegishli cholg'ular haqida maxsus dastur asosidagi bilim va tushunchalar berib borishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar, tadbirlar o'tkazib borildi.

Nazorat guruhlarida esa bunday mashg'ulotlar, tadbirlar o'tkazilmadi.

Olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijalari sinchkovlik bilan tahlil qilib borildi. Qo'llanilgan ish usul va shakllarni samaradorlik xususiyatlarini aniqlovchi baholash mezonlari ishlab chiqildi. Bu olib borilgan tajriba-sinov ishimizda ijobiy ko'rsatkichlarni keltirib chiqardi.

3.2. Tajriba-sinov ishlari natijalarining tahlili va samaradorlik ko'rsatkichlari.

Olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishining maqsadidan kelib chiqqan holda bo'lg'usi cholg'u ijrochilarining cholg'u sozlari haqidagi umumiy bilim va tushunchalari darajasini, ularni ertangi kasbiy faoliyatida cholg'u sozlarini mohir ijrochisi bo'lishi bilan birga ularni faol targ'ibotchisi sifatidagi faoliyatini e'tiborga olgan holda aniqlash vazifasi qo'yilgan edi. Shundan kelib chiqib, tajriba-sinov ishlarining maqsadi bo'lg'usi cholg'u ijrochilarining amaliy faoliyatlarida cholg'u sozlarini targ'ib va tashviq qilishga tayyorlash bilan belgilanadi.

Tajriba va nazorat guruhlarida olib borilgan ishlarda quyidagilarga alohida e'tibor qaratildi:

Birinchi navbatda – bo'lg'usi cholg'u ijrochilarining milliy cholg'ular tarixi, ularni umummusiqiy musiqa madaniyatimizdagi tugal o'rni va ahamiyatini bilishga qiziqishlarini aniqlash;

Ikkinchi navbatda – cholg'u ijrochiligi bo'yicha kasbiga munosabatini aniqlash;

Uchinchi navbatda – cholg'u sozlari bo'yicha umumiy bilim va tushunchalarini aniqlash;

To'rtinchi navbatda – ilmiy tadqiqot ishimizning maqsad va vazifalarini amalga oshirish yo'lida tajriba va nazorat guruhlarini bilan ishlash tamoyillariga rioya qilish;

Beshinchi navbatda – ilmiy-tadqiqot ishimizning samaradorlik darajasini pedagogik mezonlar asosida aniqlash.

Tajriba va nazorat guruhlarida olib borilgan ta'limiy va tarbiyaviy jarayon bir-biridan farqli tomonlari bilan ajralib turdi. Nazorat guruhidagi olib borilgan ta'limiy-tarbiyaviy mashg'ulotlar ishni bajarish davomida amalda qo'llab sinalgan usullarni samaradorligini chiqilgan mezonlar asosida asoslab berilishini taqozo etardi.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida qo'llanilgan ish usul, shakl va vositalari sifat

jihatdan ustunligi va samaradorlik tomonlari ilmiy-nazariy jihatdan asoslandi. Bunga erishishda albatta talabalarni qiziqishlari, istaklari, taklif va talablarini o'rganib chiqilganligi katta ahamiyat kasb etdi. Bularning barchasi ilmiy xulosalar chiqarishga va tavsiyalar yaratilishiga olib keldi.

San`at Kolleji 2 kurs B,V guruhlarida olib borilgan tajriba-sinov ishlari
natijalari tahlili

3.1-jadval

№	Sifat ko'rsatgichi	Nazorat guruxi "B"		Tajriba guruxi "V"	
	Ballar xisobida	Baholar soni	% xisobida	Baholar soni	% xisobida
1	$85 < K \leq 100$	2	8,7	7	30,4
2	$71 < K \leq 85$	4	17,3	9	39,2
3	$55 < K \leq 72$	14	60,8	7	30,4
4	$0 < K < 55$	3	13,2	-	-
5	JAMI	23	100	23	100
6	O'ZLASHTIRISH	19	82,6	23	100
7	SIFAT KO'RSATGICH	6	26	16	69,6

San`at Kolleji 2 kurs A,B guruhlarida olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijalari
tahlili

3.2 jadval

№	Sifat ko'rsatgichi	Nazorat guruxi "A"		Tajriba guruxi "B"	
	Ballar xisobida	Baholar soni	% xisobida	Baholar soni	% xisobida
1	$85 < K \leq 100$	2	8	7	35,7
2	$71 < K \leq 85$	5	20	10	25
3	$55 < K \leq 72$	14	56	8	31,3
4	$0 < K < 55$	4	16	-	-
5	JAMI	25	100	25	100
6	O'ZLASHTIRISH	21	84	25	100
7	SIFAT KO'RSATGICH	7	28	17	68

Jadvaldagi ma'lumotlarni geometrik tarzda ifodalab, undagi o'zlashtirish va sifat ko'rsatkichlari orasidagi farqlarni tasavvur qilish uchun **birinchidan**, uning ko'rgazmalilik tomoni yoritildi. **Ikkinchidan**, olib borilgan ilmiy tadqiqot ishimizning qay darajada ahamiyatli ekanligi yoki bo'lmasa nazorat va tajriba guruhlaridagi o'zlashtirishlar orasidagi **sifat ko'rsatkichlarning** farqlari yaqqol ko'zga tashlanadi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarini olib borish jarayonida **nazorat va tajriba** guruhleri o'rtasidagi (bilim, ko'nikma va malakalar) farqlar nimaga ko'proq bog'liqligi belgilab olindi.

Bular quyidagilarda o'z aksini topdi:

- 1) Ta'limning milliylikka yo'naltirilganlik tamoyillari;
- 2) Ta'lim-tarbiya jarayonlarida bo'lajak cholg'u ijrochilarining milliy cholg'ular haqida chuqur ilmiy ma'lumotlarga ega bo'lganligi;
- 3) Qo'llanilgan ish usul va shakllarini yuqori samaradorlikka ega ekanligi.

Olib borilgan ilmiy tadqiqot ishimizning tajriba-sinov maydonchasidagi pedagogik-psixologik tahlillar, matematik-statistik aniqliklardan shunday xulosa qilish mumkinki, shu tarzda olib borilgan ishlar albatta o'z samarasini beradi.

San`at Kollejida o'tkazilgan tajriba-sinov ishining tahlili, mazkur magistrlik dissertatsiya ishimizda ko'zda tutilgan texnologiyani samarador deyishga asos bo'ldi.

XULOSA

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng inson ma'naviyati dolzarb masala bo'lib qoldi.

Mustaqillik va ma'naviyat masalalarining nazariy-metodologik asarlari va amaliy chora-tadbirlari Prezidentimiz I.A.Karimovning asarlari, suxbat va ma'ruzalarida har tomonlama ochib berilgan.

Mustaqillik tufayli xalqimizning tarixiy ruxi uyg'ondi, ma'naviyat taraqqiyotiga katta axamiyat berildi, milliy an'analarimiz, qadriyatlarimizga qaytish va ularni shu bugungi ma'naviy jarayonga jalb etish imkoniyati yaratildi.

O'rta Osiyo va islom dunyosida yashab o'tgan Sharq mutafakkirlarining ma'naviy merosini o'rganish, tiklash va rivojlantirish nainki mustaqillik natijasi, shuningdek, uni mustaxkamlash avlodlar ma'naviy yuksaltiruvchi omillardan biriga aylandi.

Mustaqillik tufayli milliy o'zligini anglash va ma'naviy qayta tiklanish tamoyili kuchaydi. Ma'naviyat masalalari juda ko'p omillarni o'z ichiga oladi:

Birinchi navbatda insonparvarlik hamda vatanparvarlik;

- ma'naviy poklikni qayta tiklash;
- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;

Qadimgi va zamonaviy madaniyat boyliklarini chuqur bilish va egallash;

- badiiy ijodiyotning barcha turlarini rivojlantirish;
- musiqa va qo'shiq san'atini tarbiyaviy kuchidan oqilona foydalanish;

- vijdonli, imonli, aql-zakovatli, yuksak ongli va mustaqil fikrlay oladigan yoshlarni tarbiyalash;

- milliy mafkura bilan qurollanish;
- yoshlarni san'atsevar, xis-tuyg'ularga boy yuksak ma'naviy sifatlarga ega bo'lgan kishilar qilib tarbiyalash;

- o'z xalqi tarixi, madaniyati va milliy an'analarini chuqur egallash va xokazolar.

Bu masalalarni to'g'ri hal qilish ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashning asosiy garovidir.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashda musiqiy madaniyat juda katta ahamiyat kasb etadi. Musiqa vositasi orqali kishilar Vatanga sadoqat, yetuk axloqlilik, ma'naviy poklik, jismoniy va ruhiy yetuklik, siyosiy va xuquqiy komillik ruhida tarbiyalanadilar. Shuningdek, musiqa madaniyati tarbiyaning barcha tarkibiy qismlari ta'sir doirasini bir joyda mujassamlashtirish xususiyatiga ega, nainki, xalqning ming yillik orzu-umidlari, ruhiy holatlari, ma'naviyati, axloq-odobi, badiiy tafakkuri, iymon-e'tiqodi musiqada o'z ifodasini topgan.

Insoniyat tarixida ruhiyatga ta'sir o'tkazishda musiqa ohanglariga teng keladigan boshqa birorta vosita hali kashf etilmagan. Chunki xalq musiqa madaniyati orqali o'zining o'y-fikrlarini, orzu-umidlarini, dunyoqarashini, darajasini, ichki tuyg'ularini, qaxr-g'azabini, mehr-muhabbatini ifodalab kelgan.

Binobarin, musiqa va musiqiy ohanglar eng qadimiy davrlarda amaliy - foyda vazifalarni bajarish maqsadida paydo bo'lgan bo'lsa-da, insonning madaniy rivojlanishi jarayonida ma'naviy hayotning zarur bo'lagiga aylangan, shu boisdan, musiqa uzoq tarixiy jarayonda insonni tarbiyalashda ruxlantiruvchi, ilhomlantiruvchi, ma'naviy ozuq beruvchi qudratli vosita sifatida namoyon bo'lgan.

Islom dini bilan birga Markaziy Osiyoga arab va Yaqin Sharq madaniyati kirib kelib, bular maxalliy musiqa san'atning takomillashuvi va mazmunan boyishi bilan birga, musiqa ilmining rivojiga ham sabab bo'lgan. Natijada, Markaziy Osiyo xududlarida jaxon musiqa faniga katta xissa qo'shgan Forobiy, Ibn Sino, Urmaviy, Marog'iy, Sheroziy, Jomiy singari allomalar bu san'atning inson ongiga, ruhiyatiga samarali ta'sir etish va umuman tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega ekanligini isbotlab beruvchi asarlar yaratdilar.

Musiqa madaniyati nazariyasi bilan shug'ullangan Sharqning buyuk mutafakkirlari musiqiy ohanglarining, ayniqsa, mumtoz musiqaning inson ruhiyatiga, kayfiyatiga ta'sir ko'rsatishini, kishi xatti-harakatlarini o'zgartira bilishini, bemorlarni davolay olishini, insonning aqliy va axloqiy xislatlarini shakllantirishini, ularning xordiq

chiqarishlari, taskin topishlari, ruhlanishlariga yordam berishini ta'kidlab o'tadilar. Shuningdek, ular mumtoz musiqaning keng tarqalgan turi - maqomlarning insonda xorg'inlik va alam, g'amginlik va jo'shqinlik uyg'otishini, xuzur, shijoat, jasorat bag'ishlashini, xushchaqchaq kayfiyat ato qilishini isbotlab berdilar.

Musiqqa madaniyati xalq hayotining in'ikosi sifatida qaror topgan. Xalq hayoti farovonlashgan davrlarda baxt, quvonch, ozodlik, baxtiyorlik mavzularida, turmush og'irlashgan paytlarda esa xalqning g'am-alamlari, azob-uqubatlari haqida qo'shiqlar to'qilgan. Masalan: chorizm mustamlakachilik siyosatining chuqurlashuvi tuzumga nisbatan xalq g'azabi, nafrati va noroziliklarini ifodalovchi asarlarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Sho'rolar davrida musiqqa madaniyatimiz yangi shakllar, vositalar, ovrupocha ohang asboblari bilan boyigan bo'lsa-da, asta-sekin milliy-ma'naviy ruhiyatdan maxrum bo'lish tamoyili boshlangan edi.

Mustaqillik tufayli milliy ruhiyatini musiqqa madaniyatimiz o'zining azaliy manbaidan kuch olib, milliy ruhiyatni va milliy qiyofani shakllantirishga xizmat qila boshladi. U zamonaviy musiqqa janrlari bilan boyigan holda xalqimizni yangi, obod jamiyat qurishga ruhlantirmoqda.

San'at - ijtimoiy ongning bir turi, kengroq mushoxada etsak, asl san'at ideal mafkura demaqlir. Xatto yuksak taraqqiy etgan fan va texnika vositalari ham yechimini topa olmayotgan muammolarni san'at vositasida ijobiy hal etish, insoniyat taqdirida muxim o'zgarishlarga erishish mumkinligi mubolag'a emas. Ayniqsa, musiqiy kuhna san'atlar sirasida insonga tabiatan xos, ta'sir quvvati beqiyos san'at sifatida aloxida mavqyega ega. Musiqaning yuksak badiiy-estetik qiymati, kuchli ruhiy-ma'naviy ta'siri, tarbiyaviy axamiyati xususida o'rta asrlarga mansub ilmiy va badiiy adabiyotlarda talaygina e'tiborga loyiq fikrlar mavjud. Ajdodlarimiz musiqani ilohiy go'zallik, latif san'at sifatida asrlar osha e'zozlab kelganlar. Qolaversa, biz ham kundalik hayotimizni musiqasiz tasavvur eta olmaymiz.

Tadqiqotimiz Uzbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng musiqqa madaniyati sohasida katta yutuqlarga erishganini ko'rsatadi:

- Uzbekistonda madaniy-tarixiy meros bilan bir qatorda musiqiy an'analarning

tiklanishi, musiqa ta'limining takomillashishi, yangi «O`zbeknavo», «O`zbekraqs» konsert birlashmalarining tashkil etilishi, xalqaro darajada («Sharq taronalari» xalqaro festivali), Respublika miqyosida («O`zbekiston - Vatanim manim») ko'rik-tanlovlarining uyushtirilishi o'zbek musiqa madaniyati saviyasining ko'tarilishi va uning jaxon miqyosiga chiqishga imkoniyat yaratdi;

- musiqa madaniyatini rivojlantirishda yirik Respublika va xalqaro darajadagi anjumanlar muxim o'rin egallamoqda. Binobarin, «O`zbekiston - Vatanim manim» ko'rik-tanlovi o'zbek xalqi orasidan ko'plab iste'dodlarning jaxon musiqa madaniyatining jaxonga tanilishiga xizmat qildi;

- Respublika xalq ijodi va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy-uslubiyat markazi tomonidan o'zbek an'anaviy musiqasining ko'pgina janrlari: alla, katta ashula, lapar, yalla, maqom hamda oilaviy va folklor-etnografik ansambllarining ko'rik-tanlovlari o'tkazilishi an'anaviy xalq musiqa madaniyatini tiklashga va uning ko'plab azaliy turlari rivojlanishiga zamin yaratmoqqa;

- musiqa madaniyatining rivojlanishiga ulkan xissa qo'shgan buyuk san'atkorlarni qadrlash azaliy udumi tiklanib, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Xojixon Boltayev, Komiljon Otaniyozov, Xoji Abdulaziz Abdurasulovlarga atalib o'tkazilgan ko'rik-tanlovlar shu namoyandalar ijrochilik iste'dodlarning yuzaga chiqishiga olib keldi;

- xalq musiqasi - asrlar osha avloddan-avlodga o'tib, shakllanib, boyib, xalqning o'y-fikri, dardi, orzusi, donishmandligini mujassamlashtirib, o'zining an'anaviyligi, ommabopligi, oddiyligi va buyukligi, ta'sirchanligi, badiiylikka boyligi millatning nafaqat sevimli san'at turiga, shuningdek, barcha davrlarda insonning ma'naviy kamol topishida muxim omil bo'lib xizmat qilgan;

- katta ma'naviy imkoniyatlarga ega bo'lgan xalq musiqasi milliy ruh, milliy qiyofani shakllantirishning, qadriyatlarni saqlash, boyitishini haqiqiy vatanparvar, el-yurt uchun g'amxo'r, adolat bayrog'ini baland ko'taruvchi, insonparvar shaxslarni tarbiyalashning samarali vositasi sifatida namoyon bo'ladi;

- xalq musiqasining ma'naviy barkamol insonni shakllantirishdagi tarixda sinalgan xususiyatlari ancha keng bo'lib, hozirgi kunda ularning ruhiy, estetik,

ma'rifiy va tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Ma'naviy ta'sirning boy manbai hisoblangan marosim musiqasi va uning rang-barang turlari: beshik to'y, sochqi sochish, birinchi qadam, soch olish, sunnat to'yi, sovchilik, qiz oshi, nikoh, turli xil o'lanlar va yor-yorlar, laparlar, tortishmashoq, oyna ko'rsatar, yuz ochar, kelin va kuyov salomlari kabi udumlar hamda diniy marosimlar - Bibi seshanba, Bibi mushkulkushod, qurbonlik qilish, iftorlik, motam marosimlari kabilarda foydalanilgan kuy va qo'shiqlar millatning o'zligini saqlab qolishda va milliy odob-axloqni shakllantirishda bebaho manba hisoblanadi.

Maqomlarimiz millatimiz va xalqimizning boqiy mulki sanaladi. Necha ming yillik tarixga ega maqomlarimiz, mumtoz musiqamiz bilan har qancha faxrlansak, arziydi. Birgina «Maqom» jamoamizning Samarqand shahrida o'tgan qator xalqaro musiqashunoslik anjumanlarida qilgan chiqishlari yuqori baholanganligi fikrimizga dalildir. Ha, maqom - boqiy mulk. Negaki unda so'z, kuy, ijro birligi mujassam.

Shu o'rinda bir misol keltirsak. Hozirga kelib iste'moldan chiqib, unutilgan milliy sozlarimizning o'zi, yigirmaga yaqindir. Mana ular: avlos, rud, xushtor, sarbat, chag'ona, dilrabo, yotug'on, qo'biz, kungura, daf, valamiz, mizmor, ayalg'u, musiqor va boshqalar. Ana shu misolning o'ziyoq biz nechog'li yuksak musiqiy madaniyatga ega xalq ekanligimizni ko'rsatmaydimi?

Kuy-qo'shildarimiz milliy zamindan ajralmasligi kerak. Turli xalqlar kuylarining qorishmasidan iborat «butqa» bizga nima beradi?

O'zining milliy musiqa tafakkuridan maxrum etilgan xalq xech qachon ro'shnolikka chiqolmagan, chiqolmaydi ham.

Biz bugunda 400 bosma taboqdan ziyod katta bir musiqiy qatlam - maqomlarning mushkulotlari, nasrlari, ularning 40 soatlik musiqiy yozuviga egamiz (bunga Xorazm maqomlarini ham qo'shib qo'ying).

Musiqa milliy g'oyaning shakllanishida muxim ahamiyat kasb etadi. Uzbek milliy musiqasi targ'ibotidagi vujudga kelgan bo'shliqni to'ldirish uchun radioda maqom va mumtoz musiqa shinavandalari uchun aloxida bir kanal ochib berish lozim.

Bundan tashqari, haftaning ma'lum kunlarida (masalan: payshanba kuni) Navoiy nomidagi o'zbek davlat Akademik opera va balet katta teatrida, Xalqlar Do'stligi saroyida, «Turkiston» saroyida, Muqimiy nomidagi musiqali drama va komediya teatrida, madaniyat va istiroxat bog'larida maqomlarimiz va mumtoz kuy-qo'shiqlarimiz asosida teatrlashtirilgan konsertlar uyushtirilsa, ayni muddao bo'lo'r edi. Faqat Respublika Madaniyat ishlari vazirligi, O'zbekiston Teatr jamiyati, O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi, O'zbekiston Badiiy akademiyasining Xamza nomidagi San'atshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti, Mukarrama Turg'unboyeva nomidagi milliy raqs birlashmasi, «Maqom», «Tanavor» ansambllari, qolaversa, atoqli rejissyorlar, aktyorlar, suxandonlar, xatto kostyumerlar bu borada yaqindan yordam berishlari, matbuot, televideniye va radio esa katta targ'ibot ishlari olib borishi zarur.

Ko'p o'tmay Navoiyni, uning salaflari va izdoshlari ijodini teran tushunadigan, asrlar sinovidan o'tgan maqomlarimizni, mumtoz ashulalarimizni, kuylarimizni nozik xis etadigan, ya'ni o'zligini biladigan avlod yetishib chiqadi. Biz bunga qat'iy ishonamiz. Axir Navoiy xazratlari bejiz:

Erursan shoh agar ogoh sensen,

Agar ogoh sensen, shoh sensen',

- deb, yozmaganlar-ku?!

Biz kelgusi avlodlar qarg'ishiga qolishni istamasak, hoziroq bolalar bog'chalarida, maktablarda, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida mumtoz merosga munosabatni keskin yaxshilamog'imiz lozim.

Dissertatsiya natijasi shuni ko'rsatadiki, xalq qo'shiqlarining har bir turi va janri insonni ma'naviy jixatdan tarbiyalashda o'ziga xos vazifani bajaradi. Chunonchi, marosim qo'shiqlari marosim harakatlarini mazmunan boyitib, uning emosional ta'sirchanligini kuchaytirsam, mehnat qo'shiqlari ish sur'ati va samarasini oshiradi, kishining charchog'ini yozadi, tinglovchilarga ruhiy ozuq berish qudratiga ega bo'ladi, tarixiy qo'shiqlar esa tarixiy xodisalar to'g'risida muayyan badiiy tasavvurlar hosil qilishga ko'maklashadi.

Respublikamiz miqyosida muntazam ravishda uyushtirilayotgan ko'rik-tanlovlar, bir jixatdan, buyuk san'atkorlarimizning musiqa madaniyatimizga qo'shgan xissasini,

ularning individual maxorat va iste'dod qirralarini aniqlashga, ommalashtirishga imkon bersa, ikkinchi tomondan, xalq orasida mumtoz san'atimiz va san'atkorlarimizning keng tarqalishi va kelajakda yanada davom ettirib, rivojlanishiga olib keladi.

Hozirgi zamon milliy qo'shiqchilik san'atimiz axvolini taxlil qilishligini ko'rsatdiki, ayrim ansambl va xonandalar ijodida yengil G'arb musiqasiga taqdid qilish avj olgan, yarim hindcha, yarim eropacha, yarim turkcha kuy va qo'shiqdarni kuylash odat tusiga kirgan.

Qo'shiqchilik san'atimizdagi kamchilik sifatida yaxshi she'rlarning yo'qligi va xonandalarning o'zlari she'r yozib, musiqa to'qib kuylayotganliklari salbiy xodisa sifatida ko'rsatildi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, hamma sohalarda bo'lgani kabi musiqiy bilim, musiqiy ta'lim tizimida ham jaxon andozalari darajasida ish ko'rish davr talabi bo'lib qoldi. Shuning uchun musiqiy ta'limni kompyuterlashtirish tobora reallikka aylanib bormoqda. Kompyuter - musiqiy asboblarning bir turi bo'lib, nafaqat an'anaviy asoslarni saqlab qolish imkonini, balki ijodkor shaxs tarbiyasida yangi yo'llar ochib beradi.

Shu bilan birga, musiqiy ta'limda kompyuter yordamchi vazifani bajaradi, u xech qachon asosiy vosita bo'lmaydi.

Mashina - kompyuter musiqa «o'qituvchisi» vazifasini bajarish uchun ijodiy subyektga aylana olishi, olam go'zalligini anglash va aks ettirish quvvatiga ega bo'lishi, tovushlar ohangdorligini qalb ohanglari bilan uyg'unlashtira olishi, yurak tuyg'ularini xis eta bilishi zarur bo'ladi. Bu qiyin masala. Kompyuter, avvalo, avtomat ekanligini unutmaslik kerak.

Demak, musiqa o'qituvchilari, murabbiy va ustozlar birinchi navbatda o'zlari zamonaviy tafakkur bilan qurollangan, asriy musiqiy merosimizni chuqur bilgan va xis qilgan bo'lishlari hamda bu nodir ma'naviy xazinani yoshlar ongi, faoliyatiga zamonaviy texnika vositalari asosida singdira olishlari zarur. Ana shunda avlodlar va qadriyatlar vorisligi, an'analarning umrboqiyiligi, san'atimiz istiqboli, ravnaqi va zamonaviyligi ta'minlangan bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: «O'zbekiston». 1992 yil.
2. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», («O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» kitobi). -T.: «Sharq» nashriyot-matbaa konserni. 1997 yil.
3. I.A.Karimov. “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”.-T.: “O'zbekiston” 2010.
4. I.A.Karimov. “Jaxon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari”. – T.: “O'zbekiston” 2010.
5. I.A.Karimov. “Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch”. – T.: “Ma'naviyat” 2008.
6. I.A.Karimov “O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li”.-T.: “Ozbekiston”. 1992y
3. I.A.Karimov. «O'zbekiston - kelajagi buyuk davlat». -T.: «O'zbekiston». 1992 yil.
4. I.A.Karimov. «O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura». 1-jild. - T.: «O'zbekiston». 1996 yil.
5. I.A.Karimov. «Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi». 5-jild. -T.: «O'zbekiston». 1997 yil.
6. I.A.Karimov. «Ma'naviy yuksalish yo'lida». -T.: «O'zbekiston». 1998 yil.
7. I.A.Karimov. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q». «Muloqot» jurnali. 1998 yil. 5-son.
8. I.A.Karimov. «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda».-T.:«O'zbekiston». 1999 yil.
9. I.A.Karimov. «Barkamol avlod orzusi». -T.: «O'zbekiston». 1999 yil.
10. I.A.Karimov. «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz». 8-jild. -T.: «O'zbekiston». 2000 yil.
11. I.A.Karimov. «Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz». 7-jild. -T.: «O'zbekiston». 1999 yil.

12. F.Abduraximova. A.I.Petrosyans - O'zbek xalq cholg'ulari zamonaviy ijrochilik asoschisi», «O'zbekistonda musiqa ijrochiligi». -T.: 1985 yil.
13. K.Alimbayeva, M.Axmedov. «O'zbekiston xalq sozandalari». -T.: 1974 yil.
14. M.Ashrafiy. «Musiqa mening hayotimda». -T.: 1975 yil.
15. N.Boymuxamedova. «A.Navoiy musiqa haqida», «O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston xalqlari musiqa madaniyati masalalari, tarix va zamonaviylik». - M., 1972 yil.
16. T.Vizgo. «O'rta Osiyo musiqa cholg'ulari». Tarixiy ocherk. -M., 1980 yil.
17. A.Jomiy. «Musiqa haqida risola». -T.: 1960 yil.
18. A.Jabborov, T.Solomonova. «O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari». -T.: 1975 yil.
19. I.Dulgarova. «Turkiston xalq konservatoriyasi», «Musiqashunoslik masalalari». 2-to'plam. -T.: 1971 yil.
20. «O'zbek musiqasi tarixi». -M., 1979 yil.
21. «O'zbek musiqasi tarixi». 1-2 jildlar. -T.: 1972-1973 yillar.
22. Z.Karimova. «A.Navoiy va musiqa», «Musiqa haqida». - M., 1980 yil.
23. F.Karomatov. «O'zbek cholg'u musiqasi», «Meros». -T.: 1972 yil.
24. I.Karelova. «O'zbekistonda musiqa-ta'lim», «O'zbekiston musiqa madaniyati masalalari». -T.: 1961 yil.
25. T.Qori-Niyozov. «O'zbekiston madaniyati ocherki». -M., 1955 yil.
26. M.Kovbas. «V.VLeysek O'zbekistonda», «O'zbekiston musiqa madaniyati masalalari». 2-to'plam. -T.: 1964 yil.
27. M.Kovbas. «O'zbekistonda musiqa ta'limini rivojlanishining ba'zi masalalari», «O'zbek musiqasi tarixi va nazariyasi masalalari». -T.: 1976 yil.
28. O.Matyoqubov. «Forobiy Sharq musiqasi asoslari haqida». -T.: 1986 yil.
29. O.Matyoqubov. «Sayfiddin Urmaviyning tovush qatori haqida», «Sovet O'zbekiston musiqasi nazariyasi, tarixi va ijrochiligi masalalari». -T.: 1984 yil.
30. A.Petrosyan. «Cholg'ushunoslik» (o'zbek xalq cholg'ulari). 3-nashri. -T.: 1990 yil.

31. G.Pugachenkova, L.Rempel. «O'rta Osiyo san'ati ocherki. Qadimgi davr va o'rta asr». -M., 1982 yil.
32. I.Rajabov. «Maqomlar masalasiga doir». -T.: 1963 yil.
33. I.Akbarov. «Doira ohanglari». -T.: 1952 yil.
34. Ye.Romonovskaya. «O'zbek xalq musiqasi», «O'zbekiston adabiyoti va san'ati». 1940 yil. 4-soni.
35. A.Semyonov. «Darvesh Alining O'rta Osiyo musiqasi risolasi». -T.: 1946 yil.
36. «O'zbek xalq musiqasi». 1-5 jildlar. -T.: 1955-1957-1958-1959-1961 yillar.
37. «Shashmaqom». 1-6 jildlar. -T.: 1966-75 yillar.
38. A.Eyxorn. «Musiqiy-etnografik materiallari». -T.: 1963 yil.
39. S.Yo'ldosheva. «O'zbekistonda musiqiy ta'lim va tarbiyaning rivojlanishi». -T.: 1979 yil.
40. I.Akbarov. «Musiqalug'ati». -T.: G'.G'ulom nomidagi «Adabiyot va san'at» nashriyoti. 1987 yil.
41. K.Berkov, G.Blagodatov, E.Yazoviqkaya. «Atlas muzikalnykh instrumentov narodov». -M., 1963 god.
42. A.Eyxorn. «Muzikalno-etnograficheskiye materialy», «Muzikalnaya folkloristika v Uzbekistane». -T.: 1963 god.
43. V.Belyayev. «Muzikalnye instrumenty Uzbekistana». - M., 1933 god.
44. B.Zufarov. «O'zbek milliy cholg'u asboblari». -T., 1982 yil.
45. O.Ibroximov. «O'zbek xalq musiqasi ijodi». Metodik tavsiyalar. -T., 1994 yil.
46. F.Karomatov. «Uzbekskaya instrumentalnaya muzika». Naslediye. -T., Izdatelstvo literatury i iskusstva. G'.G'ulom.